



UDK: 338.48:75.042:902.2

Ravshan ABDUZOHIROV,
O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi
E-Mail: abduzohirov_r@nuu.uz
Marjona BO'RIYEVA,
O'zbekiston Milliy universiteti talabasi

O'zRFA Tarix instituti professori, t.f.d A.Ashirov taqrizi asosida

ROCK ART AS A SOURCE FOR STUDYING THE HISTORY OF CENTRAL ASIA

Аннотация

This article examines the rock art found in Zarautsoy, Sarmishsoy, Kochaksoy, and Siypantosh in Central Asia, particularly in Uzbekistan, from historical, ethnographic, archaeological, and geographical perspectives. These images reflect the development of primitive art, as well as the life, hunting activities, and worldview of ancient societies. The article analyzes the techniques, composition, and cultural distinctions of the rock engravings, contributing to a deeper understanding of Uzbekistan's ancient cultural heritage.

Key words: Central Asia, rock art, petroglyphs, Neolithic period, Mesolithic period, primitive art, animal depictions, Sarmishsoy, Zarautsoy, Kochaksoy, Siypantosh, archaeological research.

ДРЕВНИЕ НАСКАЛЬНЫЕ ИЗОБРАЖЕНИЯ КАК ИСТОЧНИК ИЗУЧЕНИЯ ИСТОРИИ СРЕДНЕЙ АЗИИ

Аннотация

Статья рассматривает наскальные изображения в таких регионах Узбекистана, как Зараутсай, Сармишсай, Кочаксай и Сийпантош, с этнографической, археологической, географической и частично лингвистической точек зрения. Эти изображения отражают развитие первобытного искусства, жизнь древних обществ, их охотничью деятельность и мировоззрение. В статье анализируются техника исполнения, композиция и культурные особенности изображений, что способствует более глубокому пониманию древнего культурного наследия Узбекистана.

Ключевые слова: Средняя Азия, наскальные изображения, петроглифы, неолит, мезолит, первобытное искусство, изображения животных, Сармишсай, Зараутсай, Кочаксай, Сийпантош, археологические исследования.

QADIMGI QOYATOSH SURATLARI O'RTA OSIYO TARIXINI O'RGANUVCHI MANBA SIFATIDA

Аннотация

Maqola O'rta Osiyo, xususan, O'zbekiston hududidagi Zarautsoy, Sarmishsoy, Kochaksoy va Siypantoshdagi qoyatosh rasmlarini etnografik, arxeologik, geografik va qisman, lingvistik nuqtai nazaridan o'rganadi. Bu rasmlar ibtidoiy san'atning rivojlanishini, qadimiy jamiyatlarning hayoti, ovchilik faoliyati va dunyoqarashini aks ettiradi. Maqolada rasmlarning texnikasi, kompozitsiyasi va madaniy farqlari tahlil qilinib, O'zbekistonning qadimiy madaniy merosini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: O'rta Osiyo, qoyatosh rasmlari, petrogliflar, neolit davri, mezolit davri, ibtidoiy san'at, hayvonlar tasviri, Sarmishsoy, Zarautsoy, Kochaksoy, Siypantosh, arxeologik tadqiqotlar.

Kirish. O'rta Osiyoning turli hududlarida joylashgan qadimiy qoyatosh rasmlari, arxeologik va antropologik tadqiqotlar uchun katta ahamiyatga ega. Sarmishsoy va Zarautsoy qoyatosh rasmlari yaxshi o'rganilgan bo'lsa-da, Turkiston tizmasining shimoli-g'arbiy tarmog'ini tashkil qilgan Nurota tog'larida Suzmoyli ota, Kochaksoy kabi qoyatosh tasvirlari topib o'rganilgan, biroq hali hanuz batafsil yoritilmagan. Bu hududlardagi rasmlar etnografik, arxeologik va antropologik nuqtai nazardan katta ahamiyatga ega, chunki ular qadim zamonlardagi insonlarning turmush tarzi va madaniyati haqida so'zlaydi.

Mazkur maqola, Zarautsoy va Sarmishsoy qoyatosh rasmlarining shakllanishi, ularning etnik tarkibi va madaniy ahamiyatini o'rganishga qaratilgan. Bundan tashqari, O'rta Osiyo, shu jumladan Nurota tog'lari etagidagi boshqa qoyatosh rasmlarini o'rganish, ushbu hududlarning tarixiy va madaniy o'ziga xosligini yanada yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Tadqiqot usullari. Maqolada quyidagicha metodlar qo'llanildi: komparativ, arxeologik, manbalar tahlili, qiyosiy-tahliliy metodlaridan foydalanildi.

Komparativ metod asosida mintaqadagi qoyatosh rasmlari o'rtasidagi o'xshashliklar va farqlar tahlil qilindi.

Masalan, hududlardagi hayvon tasvirlarining shakli va kompozitsiyasi solishtirildi. Arxeologik metod tasvirlarning tarixiy konteksti va ularning qayerda topilganligi asosida arxeologik qazishmalar natijalari asosida o'rganildi. Manbalar tahlili orqali tarixiy manbalardan olingan ma'lumotlar yordamida suratlarining tarixiy ahamiyati belgilandi. Qiyosiy-tahliliy metodda Zarautsoy va boshqa joylardagi qoyatosh rasmlarini solishtirib, turli madaniyatlarning o'ziga xos jihatlari qiyoslab aniqlash uchun ishlatilgan.

Adabiyotlar tahlili. O'rta Osiyoda qoyatoshlarida olib borilgan tadqiqotlar tasvirlangan rasmlardagi ibtidoiy odamlarning hayot tarzini, fikrlashini va atrof-muhit bilan qanday munosabatda bo'lganini yoritishga qaratilgan.

Tadqiqotchilar Xolmatov A.N.[2,3] Oynazarov X.G.[7] va D. Jamolova[6]lar tomonidan Janubiy O'zbekiston va Nurota tog' tizmasidagi qoyatosh rasmlari texnika-tipologik va tarixiy jihatdan o'rganilgan. Xasanov P.A. va M.G. Xushboqovalar[4] o'z tadqiqotlarida qoyatosh suratlarini turizm nuqtai nazaridan baholagan. Tadqiqotchilar Abdullayev M.M.[1] hamda Sh.Sh. Ismoilov[5] Zarautsoy rasmlarining ilmiy o'rganilish tarixiga e'tibor qaratgan. Adabiyotlar mavzuni har tomonlama yoritishga xizmat qiladi.

Muhokama va natija. Ustrushona hududida topilgan qoyatosh tasvirlari mazmun va ifoda uslubi jihatidan rang-barang bo'lib, ular orasida alohida sahnalarga birlashgan kompozitsion rasmlar, shuningdek, mustaqil shaklda chizilgan antropomorf, zoomorf hamda geometrik belgilar mavjud. Ushbu tasvirlar sinchkovlik bilan ishlangan. Inson obrazlari esa ularning badiiy-uslubiy xususiyatlariga qarab bir nechta tiplarga ajratilib, ilmiy asosda tahlil qilingan. Ushbu tahlil tasvirlarning tasodifiy emas, balki muayyan ma'naviy yoki diniy mazmunni ifodalaganini anglatadi. Bunday qoyatosh suratlari orqali Ustrushona aholisi hayoti, ularning atrof-muhitga munosabati hamda ijtimoiy munosabatlari haqida xulosalar chiqarish mumkin. Bu esa ularni nafaqat san'at asari sifatida, balki tarixiy-antropologik manba sifatida ham qarashga imkon beradi.

Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumanidagi Jelli-g'ulli qishlog'ida qadimdan tog' cho'qqilarini muqaddas deb bilish, ularga sig'inish kabi an'analar saqlanib qolgan. Qishloqning shimoliy-sharqida, Nurota tog'larining chekka hududida joylashgan Suzmoyil ota nomli baland qoyalarga yaqqol misoldir. Bu joy quyosh nuri kun bo'yi tegib turadigan, shimol tomoni esa keng yaylovlarga tutashgan tabiiy hudud bo'lib, qadimda muqaddas ziyoratgoh sifatida xizmat qilgan. Bu yerdan bronza davridan to o'rta asrlargacha bo'lgan davrga oid 200 dan ortiq toshga chizilgan tasvirlar topilgan. Ular orasida odamlar, turli hayvonlar, ov sahnalari, aravalar va quyosh belgilarini ko'rish mumkin[2]. Bu kabi tasvirlarning o'rganilishi orqali faqatgina san'at namunalari emas, balki tarixiy jarayonlarni, qadimgi odamlarning turmush tarzini va ijtimoiy hayotini tushunish mumkin. Ayniqsa, turli obrazlarning bir joyda kompozitsion tarzda berilishi bu hududlardagi e'tiqod va dunyoqarashning avloddan-avlodga o'tib kelganini anglatadi.

Kochaksoy shimoliy Nurota tog' tizmasi yon bag'ridan oqib tushuvchi yirik soylardan biri bo'lib, yuqori qismi Nurota davlat qo'riqxonasiga tutashgan, pastki qismida Andagin qishlog'i joylashgan. Nurota tog' tizmasining janubiy qismidagi qoyatosh rasmlari tadqiqotchi A.N. Xolmatov tomonidan tadqiq qilingan. Tadqiqotlar davomida Nurota tog' tizmasining geografik joylashuvi, iqlimi, o'simlik va hayvonot dunyosi, qoyatosh rasmlarining o'rganilish tarixi, tipologiyasi, ishlanish texnikalari haqida ma'lumotlar to'plangan. Kochaksoy qoyatosh rasmlarida yovvoyi hayvonlar, odam, arxar, tog' echkisi, gepard, bo'ri, yovvoyi cho'chqa va geometrik shakllardagi rasmlar chizilgan. Bu rasmlar 4 km masofada, Kochaksoyning o'ng va chap tomonlarida cho'zilgan. Tasvirlar soya, kontur va naqshdor-bezakli uslublarda ishlangan. Ayniqsa, bug'u va tog' echkilarining jonli tasvirlari, shuningdek, yovvoyi yirtqich hayvonlarning tasvirlari mahorat bilan ishlangan. Ushbu qoyatosh rasmlar turli davrlar haqida ma'lumot berib, qadimiy san'atning ajoyib namunalari hisoblanadi[3]. Kochaksoy hududida aniqlangan qoyatosh rasmlari O'zbekiston hududida qadimdan tasviriy san'at rivojlanganini tasdiqlaydi. Tasvirlar o'zining boy mazmuni va chizilish texnikasi bilan ajralib turadi. Bu kabi qoyatosh rasmlari faqatgina oddiy chizmalar emas, balki o'sha davr odamlarining atrof-muhitga munosabati va diniy qarashlarini aks ettiradi.

Kochaksoyning geografik joylashuvi, ya'ni tog'li hududda, tabiat qo'riqxonasi yaqinida bo'lishi, qadimgi odamlar uchun bu joyning marosim o'tkaziladigan maskan bo'lganini taxmin qilishga asos bo'ladi. Shuningdek, bu tasvirlar turli davrlarga oid bo'lgani sababli, ularni ketma-ketlikda o'rganish orqali mahalliy aholining fikrlash doirasi va tasviriy san'atining bosqichma-bosqich rivojlanishini kuzatish mumkin.

Zarautsoy darasidagi qoyatosh rasmlari yuqori neolit davriga oid noyob topilma bo'lib, Surxondaryo viloyatining Sherobod tumani hududida joylashgan. Boysun tog'idagi

Teshiktosh g'oridan o'rta paleolitga xos neandertal odamlar manzilgohlari topilgan. Zarautsoy petrogliflarida qadimgi odamlarning hayvonlarni ovlash marosimi tasvirlangan, uning yoshi 15-20 ming yilga teng. Rasmlar asosan g'or shiftlari va devorlarga qizil angob (oxra) bilan chizilgan. Chizmalarda ov qilish manzaralari, shuningdek, itlar yordamida yovvoyi buqalarni ovlash aks ettirilgan. Hayvonlar va qurollar tasvirlari ham mohirona ishlangan. Zarautsoy qoyatoshlarida 246 ta ibtidoiy tasvir topilgan[4]. Ular orqali neolit davri odamlari hayoti, ovchilik faoliyati va ilk marosimiy tasavvurlari haqida muhim ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin. Bu rasmlar ibtidoiy inson rivojlanishining ilk bosqichlarini yoritadi.

Siypantosh va Zarautsoy qoyatosh rasmlari qadimiy san'at yodgorliklaridir. Zarautsoydagi rasmlar G.V. Parfenov tomonidan o'rganilib, 27 ta kamarda 264 ta tasvir kashf qilingan. Siypantoshda esa, 10 ta tosh kamarida hayvonlar, odamlar, o'q-yoylar va geometrik tasvirlar mavjud. Rasmlar tabiiy bo'yoqlar bilan, asosan, qora, jigarrang va och jigarrang ranglarda chizilgan. Ushbu yodgorlik zamonaviy kishlak hududida, aholining yashash joylari va xo'jalik inshootlariga yaqin joylashgan bo'lsa-da, tasvirlar tushirilgan tosh yuzasi va atrofdagi toshlarning holati qoniqarli darajada saqlanib qolgan. Ba'zi joylarda tosh yuzasida tosh yoki ohak qatlaminig ajralib ketishi kabi shikastlanishlar kuzatiladi. Shuningdek, asosiy tosh yuzasining tashqi, qadimiy tasvirlarsiz qismida bo'yoq bilan yozilgan alohida yozuvlar ham aniqlangan[9]. Zarautsoyda, shuningdek, arab yozuvlari ham topilgan. Ular X-XIII asrlar bilan bog'liq bo'lib, yozuvlarda Muhammad (s.a.v.)ning xalifalari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Bu yozuvlar va tasvirlar Zarautsoyning o'rta asrlarda muqaddas joy bo'lganini va tarixiy ahamiyatini ko'rsatadi[7]. Siypantosh va Zarautsoy qoyatosh rasmlarining ko'pligi va murakkabligi bu hududda qadimgi odamlarning madaniyati va turmush tarzini chuqur o'rganishga imkon beradi. Siypantoshdagi rasmlar orqali qadimgi insonlarning e'tiqodlari aks etadi. Zarautsoydagi arab yozuvlari esa bu hududning o'rta asrlarda diniy va madaniy markaz bo'lganligini ko'rsatadi. Bu rasmlar va yozuvlar o'zining tarixiy va madaniy ahamiyati bilan ajralib turadi.

Dastlabki rasmlar qoyatosh yuzalari, g'or devorlari va suyak yuzalariga chizish usulida yaratilgan. Ayrim rasmlar tabiiy bo'yoqlar bilan tasvirlangan bo'lib, arxeologlar rangli tuproqlarni hayvon yog'i bilan aralashtirishganini aniqlashgan. Tasvirlarda hayvonlar, to'dalar va ov manzaralari aks etgan. Zarautsoy rasmlari O'zbekistondagi eng qadimgi qoyatosh suratlari bo'lib, Hisor tog' tizmasining janubi-g'arbi va Ko'hitang tog'ida joylashgan. 1912 yilda topilgan rasmlar mezolit, neolit va undan keyingi davrlarga tegishli. 200 dan ortiq rasmlar mavjud bo'lib, ular kontur va soya uslubida chizilgan. Rasmlarda tulki, cho'chqa, jayron va boshqa hayvonlar tasvirlari ko'p uchraydi. "Ov qilish" kompozitsiyasi bu davr kishilarining hayoti va fikr yuritishini namoyish etadi. Kompozitsiyada ovchilar niqob kiyib, hayvonlarga yaqinlashgan va buqa xotirjam va baquvvat tasvirlangan. Bu oddiy tasvirlar ibtidoiy san'atning rivojini ko'rsatadi[6]. Sarmishsoy suratlari turli davrlarga mansub bo'lib, ishlanish texnikasi, uslubi va saqlanishi jihatidan farq qiladi. Ba'zi rasmlar mil. avv. 1-ming yilliklarga oid bo'lib, unda odam, ibtidoiy hayvonlar va yirtqichlar tasvirlangan. Suratlar qoyalarda o'yilgan va ba'zilar tabiiy omillar ta'sirida zarar ko'rgan. Sarmishsoy rasmlarining qadimiy qatlamida hayvonlarni ovlash va ibtidoiy hayot sahnalari aks etgan. Bu rasmlar Sarmishsoyning qadimiylikni tasdiqlovchi asosiy dalillarni beradi. Hududda 10,000 dan ortiq petrogliflar mavjud bo'lib, ular asosan 22,5 km masofadagi qoyatoshlar ustiga o'yilgan. Sarmishsoy rasmlarining ishlanish uslubi o'zgargan: qadimiy suratlar naqshli va murakkab, so'nggi davr rasmlari esa sxematik va soyali uslublarda ishlangan. Bu

suratlar boshqa joylardagi, masalan, Qoratog' va So'x vohasidagi rasmlar bilan o'xshash[8]. Bu yodgorlik Qozog'istondagi Tamgaly va Qirg'izistondagi Saymaluu-Tashdagi petrogliflar bilan teng darajada qadrlanadi[10]. Zarautsoy va Sarmishsoy rasmlarining farqi shundaki, Zarautsoy rasmlari dastlab ko'proq oddiy va sodda tarzda tasvirlangan, Sarmishsoy rasmlari esa ko'proq murakkab tarzda tushirilgan. Sarmishsoy rasmlari tabiiy omillar ta'sirida zarar ko'rgan bo'lsa-da, ular butkul yo'qolmagan. Qoyalarda o'yilgan rasmlar ba'zi qismlari zararlangan, ammo umuman olganda, ular saqlanib qolgan.

Tojikistonning Zarafshon tizmasidan Sharqiy Pomirgacha, Oloy tog'laridan Badaxshongacha bo'lgan hududda 120 dan ortiq qoyatosh rasmlari mavjud. Bu rasmlar bo'yoqli va urib o'yilgan petrogliflarga bo'linadi. Tasvirlar Pomirning g'arbiy, markaziy va janubiy qismlarida ko'proq tarqalgan. Tojikistondagi rasmlar orasida odam, ayiq, arxar, tog' echkisi, bug'u, o'q-yoy, bars, buqa va uy hayvonlari tasvirlangan. Rasmlar mezolit va neolit davrlariga mansub bo'lib, ular eramizgacha bo'lgan III-II ming yilliklarga tegishli. Eng qadimgi rasmlar bronza davriga oid, sak-skif turi esa I ming yillikka to'g'ri keladi. Zarautsoy rasmlari bilan bog'lanishi shundaki, Tojikistondagi Bittikchashma va Kurtaka soyining shaxta g'oridagi tasvirlar mezolit va neolit davrlariga oid bo'lib, ular Zarautsoy rasmlari bilan zamondoshdir[1]. Shunga qaramasdan ularning geografik joylashuvi o'sha davrda yashagan jamiyatlarning turli ijtimoiy va madaniy hayotini aks ettiradi. Zarautsoy va Tojikistondagi rasmlarning o'xshashligi ularning hayvonlar, ovchilar va atrof-muhitni tasvirlashda bir xil maqsadni ko'zlaganini ko'rsatadi. Ammo, geografik farqlar va turli madaniy ta'sirlar bu tasvirlarning uslubida o'zgarishlarga olib kelgan.

Zarautsoy rasmlarining boshlanish davrida hayvon tasvirlari oddiy shakllarda ishlangan. Rassom hayvonlarning

qudratini va harakatdagi vaqtini ishonarli tasvirlagan. Bu rasmlar ibtidoiy san'atning rivojini, odamlarning hayvonlarni ovlashda o'zlarining psixologiyasini, himoya usullarini bilganligini ko'rsatadi[5]. Zarautsoy, Sarmishsoy, Kochaksoy va Siypantoshdagi qoyatosh rasmlari o'rtasida bir qator umumiy jihatlar mavjud. Bularning barchasi ibtidoiy tasvirlar bo'lib, hayvonlar va insonlarning o'zaro aloqalarini, tabiiy muhitni va jamiyatlarning hayotini tasvirlaydi. Rassomlar oddiy shakllardan murakkab kompozitsiyalarga o'tib, san'atda yangi bosqichni boshlagan. Barcha qoyatosh rasmlari bir-biri bilan o'xshash bo'lsa-da, ular o'ziga xos madaniy va geografik farqlarga ega va o'sha davr kishilarini chuqur anglashga yordam beradigan ilmiy manbadir.

Xulosa va takliflar. O'rta Osiyo hududidagi qoyatosh rasmlari qadimiy dunyoning tasvirlaridir. Bu rasmlar, oddiy shakllardan murakkab kompozitsiyalarga o'tgan san'atning rivojini ko'rsatadi. Rasmlar orasidagi farqlar va o'xshashliklar bizga bir xil davrda yashagan odamlarning turli madaniyatlari va hayot tarzlarini ko'rsatadi. Shuning uchun bu rasmlar nafaqat san'at, balki tarixiy va madaniy yodgorlik sifatida ham ahamiyatlidir. Takliflar:

1. Qoyatosh suratlarini yanada chuqurroq o'rganish uchun zamonaviy texnologiyalarni, masalan, 3D model yaratish yoki virtual ko'rgazmalarni qo'llash bilan uning turistik salohiyatini oshirish mumkin.

2. Madaniy meros agentligi tomonidan ushbu qoyatosh suratlari ochiq osmon ostidagi muzey sifatida tashkil etilib, davlat muhofazasiga olinsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Natijada ham mahalliy ham xorijiy sayyohlar muzeyga jalb etilib, ular orqali pul jamg'armalari yaratish imkoniyati vujudga keladi.

3. Maktab darsliklari yaratishda qoyatosh suratlarining vizual materiallaridan foydalanish orqali tarixiy yodgorliklarni kengroq auditoriya bilan bo'lishish kerak.

ADABIYOTLAR

1. Abdullayev M. M. Istoriya issledovaniya kamennykh izobrazheniy Zaroutsoya // Academic Research in Modern Science: International scientific-online conference. – 2024. – S. 66.
2. Xolmatov A. N., Pardayev M. H., Toshboyev F. E. Suzmoyilota qoyatosh rasmlari tadqiqotining dastlabki natijalari // AI. – Samarqand, 2018. – B. 254–258.
3. Xolmatov A. N. Nurota tog' tizmasi qoyatosh rasmlari texnika-tipologiyasi va tarixiy tahlili : PhD dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2019.
4. Xasanov P. A., Xushboqova M. G. Surxon davlat qo'riqxonasi rekreatsion turistik obyekt sifatida // Ekonomika i sotsium. – 2022. – №6(97-2). – B. 261. – URL: <http://www.iupr.ru>
5. Исмоилов Ш. Ш. Зарутсай каменные изображения // Новости образования: Исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 15, №100, ч. 1. – С. 174–175.
6. Jamolova D. O'rta Osiyoning ornamenti va tasviriy san'ati tarixi. – Buxoro: Durdona nashriyoti, 2021.
7. Oynazarov X. G. Janubiy O'zbekiston qoyatosh rasmlari texnika-tipologiyasi va qiyosiy tahlili : PhD dis. avtoreferati. – Toshkent, 2024. – B. 11–15.
8. Scienceproblems.uz. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. – Toshkent, 2024. – B. 63.
9. Siypantosh Rock Paintings https://whc.unesco.org/en/tentativelists/5297/?utm_source.
10. Sarmishsay petroglyphs https://whc.unesco.org/en/tentativelists/6784/?utm_source



Xasanjon KARIMOV,
Andijon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
E-mail: xkarimov.1120@gmail.com

O'zDJTU professori, tarix fanlari doktori D.Babajanova taqrizi asosida

THE IMPACT OF INTERETHNIC RELATIONS IN UZBEKISTAN ON THE LIVES OF KYRGYZ NATIONALITIES DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE

Annotation

This article describes the impact of interethnic relations in Uzbekistan on the lives of Kyrgyz nationalities during the years of independence, the history of Kyrgyz nationalities living in the Fergana Valley in particular in the regions of Andijan, Namangan and Fergana, their lifestyle customs, understanding of national identity, scientific significance in the study of national value and culture.

Key words: Kyrgyz nation, culture, elat, Turkic peoples, Fergana Valley, interethnic harmony, religious tolerance, cultural center.

ВЛИЯНИЕ МЕЖНАЦИОНАЛЬНЫХ ОТНОШЕНИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ НА ЖИЗНЬ КЫРГЫЗОВ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

Аннотация

В данной статье описывается влияние межнациональных отношений в Узбекистане на жизнь кыргызов в годы независимости, история киргизских национальностей, проживающих в Ферганской долине, в частности в Андижанской, Наманганской и Ферганской областях, их традиции в образе жизни, научное значение в изучении национального самосознания, национальных ценностей и культуры.

Ключевые слова: Кыргызская нация, культура, Элат, тюркские народы, Ферганская долина, межнациональное согласие, религиозная терпимость, культурный центр.

MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO MUNOSABATLARNING QIRG'IZ MILLAT VAKILLARI HAYOTIGA TA'SIRI

Annotatsiya

Mazkur maqolada mustaqillik yillarida O'zbekistonda millatlararo munosabatlarning qirg'iz millat vakillari hayotiga ta'siri, Farg'ona vodiysida xususan, Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlarida yashovchi qirg'iz millatlarining tarixi, ularning turmush tarzidagi urf-odatlar, milliy o'zlikni anglash, milliy qadriyat va madaniyatini o'rganishdagi ilmiy ahamiyati bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Qirg'iz millati, madaniyat, elat, turkiy xalqlar, Farg'ona vodiysi, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik, madaniy markaz.

Kirish. "O'zbekistonning boyliklari juda ko'p, lekin bizning eng katta boyligimiz, eng yuksak qadriyatimiz, bu - jamiyatimizda hukm surayotgan tinchlik, millatlararo do'stlik va hamjihatlikdir-desak hech qachon mubolag'a bo'lmaydi".

Ushbu tadqiqot mavzuning dolzarbligi va zarurligi ko'p millatli yurtimizda tinchlik va totuvlikni, dinlararo bag'rikenglik (tolerantlik g'oyasi)ni ta'minlash, inson huquqlari hamda erkinliklari ustuvorligini kafolatlash, hamda Konstitutsiyamizning 12-moddasida keltirilganidek: ijtimoiy kelib chiqishi, tili va diniy e'tiqodidan qat'iy nazar har bir millat vakili yashash, o'z kelajagini yurtimiz istiqboli bilan uzviylikda taraqqiy ettirish huquqiga egadir. Shu bilan birgalikda mustaqillik yillarida Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlarida yashovchi qirg'iz millati vakillarining ijtimoiy-madaniy hayotdagi ishtiroki yoritib o'tilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Markaziy Osiyoning qadimiy xalqlaridan biri hisoblangan qirg'izlar, ularning siyosiy tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti to'g'risida manbalar va adabiyotlarda ma'lumotlar mavjud. Chunonchi, qirg'izlar tarixidagi voqealar, bir necha asrlardan beri Yevropa, Rossiya, Xitoy olimlari, shu jumladan bugungi kunda O'zbekistonlik yosh tadqiqotchi olimlarni ham e'tiborida qirg'iz xalqining tarixini o'rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Qirg'izlar tarixini o'rganishda chet el olimlari jumladan: V.Radlov, V.V.Bartold, S.V.Kiselev, A.N. Bernshtam, S.M. Abramzon, N.F.Miller, V.Shott, A.Baytur va

boshqa olimlar katta xissa qo'shdilar. Xususan, R.A.Abdumannopovning tadqiqotlarida qirg'iz millatining yashash turmush tarzi, madaniy hayoti va boshqa shu kabi jarayonlar yoritib o'tilgan bo'lsa, qirg'iz xalqi etnogenezi masalasi borasidagi fikrlar miloddan avvalgi I asrdan boshlab tarixchilarni qiziqтира boshlagan. Sinologlar – xitoyshunoslar ilk marta aniqlashicha, qirg'izlar birinchi marta Xitoy manbalarida miloddan oldingi III asr oxiridagi voqealarni, aniqrog'i, 203 yoki 201 yilda xunlar imperatori Mode Shanyuy shimolga harbiy yurish qilib, bir qancha yerlarni, jumladan, gyangun yerlarini ham xunlarga bo'ysundirib berganini yoritishda tilga olib o'tilgan ekan. Mana shu "gyangun" atamasini xitoyshunoslar Yulius Klappart, Pol Pellio, Edvard Shavan, rossiyalik xitoyshunoslar N. Y. Bichurin va boshqalar qadimiy "qirg'iz" atamasining xitoycha transliteratsiyasi deb ataydi. Keyinchalik bu qarashni sovet davrida mashhur xitoyshunos Sergey Evgenyevich Yaxontov kengroq va teranroq ishlab chiqqan. So'ngra boshqa tadqiqotchilar ham bu muammoni o'rgangan va natijada quyidagi holat aniqlangan: "gyangun" birinchi marta "Shi szi" manbasida tilga olingan. U Xitoy tarixi otasi deb tan olingan Sim Syanning "ShiSzi" asarida miloddan oldingi 201 – 203 yillarda Mode Shanyuyning shimolga harbiy yurishi tavsifida keltiriladi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qirg'iz xalqining kelib chiqishi haqidagi dastlabki ma'lumotlar chet el olimlari

F.Miller va E.Fisherlar tomonidan bildirilgan bo'lib, ular qirg'izlar jung'orlar tomonidan 17- asrda Yeniseydan hozirgi Qirg'iziston hududiga ko'chirilgan deb ta'kidlaydilar. Ushbu fikrni A.I.Levshin[1] ham qo'llab-quvvatlaydi va bu tadqiqot qirg'iz xalqining shakllanishida muhim dalil bo'lib xizmat qiladi. Qirg'iz xalqining etnogenezi, etnik madaniyatini o'rganishda xitoyshunos olim Nikolay Yevgenevich Bichurin (ruscha: N.Y. Bichurin, 1777–1853) o'zining ilmiy faoliyati davomida ko'plab markaziy osiyolik xalqlar, jumladan, qirg'izlar haqida qimmatli ma'lumotlarni to'pladi va tahlil qildi. U o'zining "Sobraniye svedeniy o narodax" ("Xalqlar haqida ma'lumotlar to'plami") asarida qadimgi xitoy manbalariga asoslanib, turkiy xalqlar, jumladan, qirg'izlar haqida ma'lumotlar keltirgan. Bichurinning tadqiqotlari qirg'izlarning etnogenezi va tarixiy rivojlanishini o'rganishda muhim manba hisoblanadi, u o'z ishida qirg'izlarning Tyanshan va sharqiy Turkistonda yashaganlar deydi.[2] N.Aristovning nazariyasiga ko'ra qirg'izlar Usun nomi bilan tanilgan[3]. Radlov 1860–1870-yillarda Sibir, O'rta Osiyo va Qirg'izistonga safarlari davomida ko'plab ma'lumotlar to'plagan. Ularning orasida Qirg'iz xalqining etnografiyasi, folklori, tili va yozuvi haqida qimmatli asarlar mavjud[4].

"Qirg'izlar haqida kuzatuvlar" (1863–1864): Bu asarida Radlov Qirg'izlarning turmush tarzi, urf-odatlar va ijtimoiy tuzilishini batafsil tasvirlab bergan.

"Manas" eposi: Radlov 1885-yilda "Manas" eposining birinchi nashrini chop etdi. U bu asarni to'liq va tizimli ravishda nashr etgan birinchi olim bo'lib, bu asar Qirg'iz xalqining tarixiy xotirasini saqlashda muhim rol o'ynadi.

"Sibirdan" (1884): Bu asarida Radlov Sibir xalqlarining tili, folklori va etnografiyasini o'rganib, Qirg'izlarning o'ziga xos xususiyatlarini ta'kidlagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotning uslubiy asosini metodologik jihatdan ilmiylik, obyektivlik va tarixiylik prinsipi, mantiqiylik, tizimlilik, taqqoslash, analiz, sintez, qiyosiy tahlil va kontent tahlildan, shuningdek, maqoladagi ma'lumotlarni tahlil etishda statistik usuldan ham foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Konstitutsiyaning 4-moddasida: "O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi", deb ta'kidlab o'tilgan.

Qirg'izlar (qirg'iz) O'rta Osiyoning eng qadimgi xalqlari qatoriga kiradi. Hozirgi kunda O'rta Osiyoda yashovchi xalqlardan hech biri yo'q, ko'rish mumkin, ularning nomi tarixda juda erta uchraydi. Mo'g'ulgacha bo'lgan davrda Markaziy Osiyoning Sharqiy qismi taqdiri haqidagi deyarli barcha ma'lumotlarimiz Xitoy rasmiy tarixshunosligi asarlaridan olingan bo'lib, unda xalqlarning nomlari va boshqa shaxsiy va geografik nomlar, albatta, transkripsiyada xitoycha belgilar bilan uzatiladi. Xitoyliklarning o'zlari ham, yevropalik olimlar ham ushbu transkripsiyani "qirg'iz" so'zini yetkazish uchun ishlatilgan boshqalar bilan yaqinlashtirmoqdalar, shuning uchun miloddan avvalgi 201 yildagi voqea haqidagi xabar qirg'izlar haqidagi birinchi yangilik sifatida tan olinishi kerak. Biz ushbu transkripsiyani boshqacha tushuntirishga harakat qildik; birinchi bo'g'inda, hozir ko'rib turganimizdek, keyinchalik "Gyan" shaklida biz Daryo nomining "kem", ikkinchida — Daryo nomining "Orxon" tarjimasini ko'rdik va shuning uchun xitoyliklar Yenisey va Orxon o'rtasidagi hududni shunday deb atashgan deb ishonishdi. Yenisey, albatta, turk xalqlari orasida har doim "kem" nomini olgan, ammo xitoyliklar bu so'zni "qirg'iz" nomining birinchi qismi bilan emas, balki boshqa ieroglifda yetkazishgan[5].

Tang-shuning so'zlariga ko'ra, qirg'izlar "dinlinlar bilan aralashishgan", shu bilan birga, ular tashqi ko'rinishi bilan xitoylardan "bo-ma" laqabini olgan xalqqa o'xshaganligi

aytiladi ("piebald otlar" — go'yo bu xalqning bunday rangdagi otlari borligi uchun). Bo-ma (Shavann Pouomada) turklarning (o'g'uzlarning) to'g'ridan-to'g'ri shimolida yashagan. Ayniqsa, ular doimiy ravishda qirg'izlar bilan jang qilishgan va ularning yerlari har doim qor bilan qoplangan va shimolda dengizga yetib borgan. Tashqi ko'rinish xususiyatlari "bo-ma" tavsifida emas, balki qirg'izni tasvirlashda: "qizil sochlar, qizg'ish yuz va ko'k ko'zlar" deyilgan. Zamonaviy qirg'iz turiga ("qizil sochlar va oq teri") juda kam mos keladigan tashqi ko'rinishning bir xil xususiyatlari XI asr fors muallifi Gardizining VIII asrda yozgan (757 yilda vafot etgan) Ibn Mukaffadan olgan, ko'rgan hikoyasida qirg'izlarga tegishli ushbu belgilarga ko'ra Ibn Mukaffa qirg'izlarni slavyanlarning qarindoshlari deb hisoblagan. Xitoyliklar, shuningdek, qirg'izlarning tili bo-ma tilidan farq qilganini aytishadi. Bir nechta qirg'iz so'zlari (masalan, ay — oy so'zi) keltirilgan, ulardan qirg'izlar o'sha paytda turk tilining so'zlaridan birida gapirganini ko'rish mumkin. Til bo'yicha turklarga qirg'iz va musulmon mualliflari kiradi.

Bularning barchasidan ko'rinish turibdiki, qirg'izlar Yenisey ostyaklari bo'lgan va o'zlarining eski tillarini saqlab qolgan qarindoshlari bilan urush olib borishgan. Yenisey ostyaklari ularga "yuqoridan" hujum qilish haqidagi afsonalarni saqlab qolishgan[6].

Yurtimizda yashovchi qirg'iz millatiga mansub aholi ijtimoiy-madaniy xususiyatidan kelib chiqilsa ular asosan Farg'ona vodiysi uch viloyati: Andijon, Farg'ona va Namangan viloyatining Qirg'iziston bilan chegaradosh tog' oldi, qiradirliliklarida istiqomat qiladi. 2021-yilda qirg'izlar soni 511 mingni tashkil etib, Andijon viloyatining Paxtaobod, Izboskan, Jalalquduq va Qo'g'ontepa tumanlarida 102 517(2017) nafar qirg'izlar aholisi yashaydi. Farg'ona viloyati: Farg'ona, So'h, Toshloq va Quva tumanlarida 70 866 (2017) nafar va Namangan viloyati: Norin, Uchqo'rg'on, Uychi, Chortoq, Yangiqo'rg'on va Kosonsoy tumanlarida 22 279 (2017) nafar hamda Toshkent, Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida qirg'iz millatiga mansub aholi boshqa millat vakillari bilan ahlikda yashab keladi[7].

Hozirgi kunda Uzbekistonda talim qirgiz tilida olib boriladigan 56ta maktab oz faoliyatini yuritadi va ular uchun qirgiz darsliklar chop etiladi. Shu qatorda katorada Namangan viloyatida qirgiz millatining soni 12 mingtani tashkil qiladi. Namangan viloyatida yashagan qirgizlar asosan chegara hududlarida istiqomat qilishadi. Namangandagi Chust, Pop, Kosonsoy, Chortoqni ba'zi mahallalari, Beshtol, Sossoy, Saroy, Uchqo'rg'on, Nanay, Jelkon, Nov, Kolbukon, Michurin, Uzak, Mugol qishloqlarida qirgiz xalqi istiqomat qiladi. Ularning orasidan Mug'ol qishlogi alohida tarixga ega. Binobarin, millatlararo totuvlik g'oyasi- bu sayyoramizda yashayotgan 1600 dan ziyod etnik guruhlarining teng huquqlilik, o'zaro hurmat va hamkorlik asosida tinch-totuv yashash g'oyasidir.[8] O'zbekistonda ham millatlararo munosabatlarda yuqori ko'rsatkichlarda o'z faoliyatini amalga oshirib kelayotgan qirg'iz millat vakillari ham shunday g'oya asosida birlashmoqda. O'zbekiston qadimdan buyuk Ipak yo'li chorrahasida joylashgan, azal-azaldan bu yerga turli mamlakatlardan kelgan turli millat vakillari o'troqlashib qolgan. Millatlararo totuvlik g'oyasi, shuningdek, barcha xalqlar o'rtasida bir-birini tushunish va qo'llab-quvvatlash, hamda inson huquqlarining himoya qilinishi kabi asosiy qadriyatlarini o'z ichiga oladi. Bu g'oya, faqat etnik guruhlar o'rtasidagi yarashuvni emas, balki milliylikni saqlab qolgan holda, madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishni ham ta'minlaydi.

O'zbekistonning bugungi kunda amalga oshirayotgan siyosati va g'oyalarida millatlararo totuvlikka alohida e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatda turli millat vakillarining birgalikda yashashiga imkoniyat yaratadigan integratsion jarayonlar olib

borilmoqda. Ayniqsa, qirg'iz millati vakillarining faol ishtiroki, millatlararo munosabatlarni yanada mustahkamlashda katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu g'oya, bir-biriga hurmat va ishonchni mustahkamlab, jahon hamjamiyatida O'zbekistonning obro'-e'tiborini oshirishga xizmat qilmoqda. O'zbekistonning millatlararo

munosabatlarda olib borayotgan faoliyati, shu bilan birga, dunyo miqyosida ham tinchlik, hamkorlik va adolatni targ'ib qilishga xizmat qiladi. Bugungi kunda O'zbekistonda eng ko'p tarqalgan etnik guruhlar qatorida biz tadqiq qilayotgan qirg'iz millati vakillari ham 1,5% ni tashkil qilmoqda[9].

O'zbekistonda qirg'iz millatining milliy tarkibi (ming hisobida)

№	Millati	1989-y	2000-y	2008-y	2013-y	2017-y
1	Qirg'iz	174,9	231,9	241,5	260,5	274,4

O'zbekistonning milliy madaniy markazlari mamlakatdagi turli millatlar va etnik guruhlarining madaniyati va an'alarini saqlash, rivojlantirish va ommalashtirish maqsadida faoliyat yuritmoqda. Bu markazlar, asosan, millatlararo do'stlikni mustahkamlash va madaniy almashuvni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Yurtimizda bugunga kelib 138 ta milliy, madaniy markazni birlashtiruvchi Respublika baynalminal madaniyat markazi faoliyat olib bormoqda. O'zbekistondagi milliy madaniy markazlar nafaqat o'z millatlarining madaniyatini saqlash, balki millatlararo totuvlikni ta'minlashga ham katta hissa qo'shmoqda. Bu markazlar, turli etnik guruhlar vakillarini birlashtirib, bir-birining madaniyatini tushinishga yordam beradi. O'zbekiston hukumati va madaniy markazlar tomonidan turli madaniy tadbirlar, festival va bayramlar o'tkaziladi, bu esa millatlararo munosabatlarning mustahkamlanishiga yordam beradi.

Hammamizga ma'lumki, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi ishlab chiqildi. Strategiyada beshinchi yo'nalish sifatida "Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar" belgilandi. Bu ham yurtimizda fuqarolarimiz xavfsizligi, millatlar va diniy bag'rikenglikka berilayotgan ulkan e'tibordan dalolat beradi desak maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa. "Millati, tili va dinidan qat'iy nazar, O'zbekistonni o'zining Vatani deb biladigan, uning ravnaqi uchun hissa qo'shib kelayotgan har bir fuqaro bundan buyon ham davlatimiz va jamiyatimizning e'tibori va ardog'ida bo'ladi. Millatlararo do'stlik, diniy konfessiyalar o'rtasidagi hamjihatlik, ijtimoiy bag'rikenglik muhitini yanada

mustahkamlash uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz".

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasidan.

Hozirgi Qirg'izistonning katta hududlari Qo'qon xonligi tasarrufida bo'lgan. Qo'qon xonligiga solta va sayak qirg'iz urug'lari qarashli bo'lgan[10]. O'sha davrda eng kuchli urug'lardan biri saribag'ish urug'i bo'lib, ular Qo'qon xonligiga qarashli bo'lgan[11]. Qo'qon xonligi qirg'izlar yashaydigan joylarda xonlik boshqaruv tizimini joriy qilgan. U yerlarni siyosiy jihatdan mustahkamlash maqsadida qo'rg'onlar qurgan edi. Nikitin, ikkinchi yo'l Oloy yo'li bo'lib, baland tog' tizmalari orqali o'tganligi, u yerda Qo'qon xonligiga qarashli 11 ta qirg'iz urug'lari nomlari va ularning yashagan joylari haqida xabar qilgan. 11 ta qirg'iz urug'lari, o'tovlari soni va ular yashagan makonlari quyidagicha keltirilgan. Statistik malumotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, O'zbekistonda ta'lim qirg'iz tilida olib boriladigan 64 ta maktab bo'lsa, qirg'iz-o'zbek tilida olib boriladigan 27 ta maktab mavjud. Ularda 13 782 nafar bola tahsil oladi. Bugungi kunda qirg'iz maktablari uchun darsliklarni nashrga tayyorlash ustida ish olib borayotgan „O'zbekiston“ nashriyot-matbaa ijodiy uyida maxsus nashr tashkil etilgan bo'lib, O'zbekiston telekanalida mashhur „Aychurek“ ko'rsatuvi, radioda qirg'iz tilida „Elaman“ ko'rsatuvi muntazam efirga uzatilmoqda va buning natijasida yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarda ham O'zbekiston qirg'izlarining ishtiroki yuqori baholanmoqda.

Shu bilan birga maqolada qirg'izlarning rus hamda o'zbek tarixshunosligida yoritilishi masalasi ham ko'rib chiqildi.

ADABIYOTLAR

1. Левшин А.И. Описание киргиз-казачьих, или киргиз-кайсацких орд и степей. Изд. 3-е / Сост. И.В. Ерофеева. Алматы, 2009.
2. Бичурин Н.Я.. "Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена". Москва , Ленинград: Издательство Академии Наук СССР, 1953.-346 стр
3. *Usun-Turkiy xalqlar, jumladan, uzbek, qozoq, qirg'izlar tarkibiga kirgan uyshun qabilasi Usun bilan aynan bir deb taxmin etiladi. Yettisuvda ular kuchli davlat tashkil etgan. Uning markazi xitoy manbalarida Ili daryosining janubidagi Chigu (Qirg'izistondagi qad. Qizil qo'rg'on sh.) deb yuritilgan.
4. Акад. В.В. Бартольд. <<Киргизы>>.(Исторический очерк). Фрунзе,-1927-ст.1-12
5. Радлов В.В. Из Сибири: Страницы дневника [Текст] / В.В.Радлов / Пер. С нем. К.Д.Цивинной и Б.Е.Чистовой. – М.: Наука, 1989.
6. Каратаев О., Эралиев С.. Кыргыз этнографиясы боюнча сөздүк. Бишкек: Бийиктик, 2005.13-14 стр
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 15 noyabrda qabul qilingan "Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni.
8. Mustaqil O'zbekistonda millatlararo munosabatlar rivoji. -Toshkent: O'zbekiston, 2012.
9. Sh.M.Mirziyoyevning Respublika baynalmilal madaniyat markazi tashkil etilganining 25 yilligiga bag'ishlangan uchrashuvdagi nutqi // Xalq so'zi, 2017-yil 25-yanvar.
10. Ўзбекистон Миллий архиви. 1-фонд, 20-рўйхат, 8138-иш. – 3 об.
11. Киргизов Узбекистана удивила забота, проявленная Узбеками Киргизстана | ЦентрАзия, 2016-03-04да асл нусхадан архивланди, қаралди: 2021-11-13



UDK: 2621

Nodirjon QURBONOV,
O'MPU dotsenti, PhD
E-mail: nodirjonqurbonov3002@gmail.com

TDPU dotsenti, t.f.n H.Matyakubov taqrizi asosida

SEISMIC PROCESSES IN UZBEKISTAN AND THEIR SCIENTIFIC AND PRACTICAL FORECASTING

Annotation

One of the important problems facing Uzbek seismologists is the issue of predicting the occurrence of earthquakes. Different views among scientists in the field of earthquake forecasting indicate that the possibility of predicting the occurrence of earthquakes is increasing. Uzbek seismologists have been emphasizing the increasing possibilities of predicting seismic processes. This article covers the history of scientific research by Uzbek seismologists on earthquake forecasting.

Key words: process, republic, epicenter, universe, sun, earthquake, natural disaster, forecast, oil fields, water, human, disaster, tsunami, fusion, history, seismology, reservoir, nature, society, seismic, earth.

СЕЙСМИЧЕСКИЕ ПРОЦЕССЫ В УЗБЕКИСТАНЕ И ИХ ИЗМЕРЕНИЯ НАУЧНО – ПРАКТИЧЕСКОЕ ПРОГНОЗИРОВАНИЕ

Аннотация

Одной из важных проблем, стоящих перед узбекскими сейсмологами, является вопрос прогнозирования возникновения землетрясений. Различные мнения ученых в этой области относительно прогнозирования землетрясений указывают на то, что возможность предсказания землетрясений возрастает. Ученые-сейсмологи Узбекистана подчеркивают, что возможности прогнозирования сейсмических процессов расширяются. В статье рассматривается история научных исследований узбекских сейсмологов по прогнозированию землетрясений.

Ключевые слова: процесс, республика, гипоцентр, эпицентр, вселенная, солнце, землетрясение, стихийное бедствие, прогноз, нефтяные месторождения, вода, человек, катастрофа, цунами, синтез, история, сейсмология, водохранилище, природа, общество, сейсмический, земля.

O'ZBEKISTONDA SEYSMIK JARAYONLAR VA ULARNI ILMIY - AMALIY PROGNOZLASH

Annotatsiya

O'zbekistonlik seysmologlar oldidagi muhim muammolardan biri zilzilalar sodir bo'lishini oldindan aniqlash masalasidir. Zilzilalarni prognozlash borasida soha olimlari orasida turlicha qarashlar, zilzilalar sodir bo'lishini oldindan aniqlash ehtimoli ortib borayotganligini ko'rsatadi. O'zbekistonlik seysmolog olimlar seysmik jarayonlarni oldindan aniqlash imkoniyatlari kengayib bo'layotganligini takidlab kelmoqdalar. Mazkur maqolada o'zbekistonlik seysmolog olimlarni zilzilalarni prognozlash borasidagi ilmiy tadqiqotlari tarixi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: jarayon, respublika, gipotsentr, epotsentr, olam, quyosh, zilzila, tabiiy ofat, prognoz, neft konlari, suv, inson, ofat, suvni, termoyadro, tarix, seysmologiya, suv ombori, tabiat, jamiyat, seysmik, yer.

Kirish. Zilzilalarni oldindan aytishda ularning darakchilarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Soxa olimi B.N.Straxov fikricha, "Zilzilalarni oldindan aniqlash bu barqaror bo'lmagan bir butunlikning barqaror tuzilishidir". Umumiy olganda, seysmologiya soxasi oldida turgan muhim vazifa qarlarda zilzila sodir bo'lishi mumkinligini aniqlashdan iborat bo'lish bilan birga, eng muhimi zilzila bo'lishini oldindan aniq aytib berishdir. Albatta, bu masala qiyin va murakkabligi bilan ajralib turadi. Shunga qaramay bu masala ham vaqti kelib o'z yechimini topishi muqarrar [1].

O'zbekistonlik seysmolog olimlar tomonidan zilzilalar sodir bo'lishini tadqiqotlar natijasida oldindan aniqlash masalasida ko'plab ishlar amalga oshirildi. O'zFA Seysmologiya institutining tashkil etilishi, ularni oldiga zilzilalarni kompleks o'rganish vazifasi ko'ndalang qo'yilishiga sabab bo'ldi. Ayni paytda institut oldidagi zilzila bo'lishi mumkin bo'lgan hududlarni rayonlashtirish orqali tabiiy xolatini o'rganib, bino va inshootlarni tabiiy xavfdan asrab qolish masalasi o'z yechimini topishi zarur edi. Buning uchun necha yillik kuhna tarixga ega bo'lgan, insoniyat hayotiga bir umir ta'sir qilib kelgan va ular uchun asosiy muammoli masalalardan biri bo'lib kelgan zilzilalarning paydo bo'lish sabablarini bilish, shuningdek, qaerda, qachon va qanday kuch bilan bo'lishini oldindan aniqlash ishiga,

Respublika va sobiq Sovet ittifoqi olimlari hamkorlikda kirishdi. Bu kabi katta ishni boshlashda seysmolog olimlarga barcha shart-sharoit yaratib berildi. Bunga javoban seysmologlar zilzilalarni sabablarini o'rganishga va kelajakda bo'lishi mumkin bo'lgan zilzilalarni kuchi va joyini oldindan aniqlashga erishdilar.

Shuningdek, olimlar zilzila bo'lishidan bir necha kun oldin yer satxi suvlarining kimyoviy tarkibi, harorati va bosimi sezilarli darajada ortib ketishi zilziladan darak ekanligini isbotlashga erishdi. O'zbekiston seysmologlari bu kashfiyot bilan jahon faniga katta xissa qo'shdi.

Aytib o'tishimiz mumkinki, olimlar yillar davomida ko'proq seysmik faol hududlarni o'rganib kelmoqdalar lekin, aynan o'sha yerlardagi ayrim falokatga olib keluvchi ikkinchi darajali faktorlar hisoblangan ko'chliklar, o'pirilishlar, suv toshqinlariga uncha e'tibor qaratilmaydi. Bugungi kungacha zilzilalarni oldindan aniq aytib beradigan ishonchli usullar yo'q. Lekin u yoki bu rayondagi seysmik faollikning qay darajadali – kuchli yoki kuchsiz ekanligini aniqlash bo'yicha katta muvaffaqiyatlarga erishildi. Bu ham o'z ahamiyatiga ko'ra juda muhimdir, chunki o'sha rayonni seysmik faolligidan kelib chiqib, kulfatlarni oldini oluvchi ba'zi bir chora-tadbirlarni ko'rish va qurilish ob'ektlarini mustahkamligini ta'minlash mumkin bo'ldi [2].

Seysmik oldindan aniqlash zilzilalardan ko'riladigan talofatlarni kamaytirish va oldini olishda katta ahamiyat kasb etgani bois, O'zbekistonda seysmik oldindan aniqlashga qaratilgan tadqiqot ishlari 1968 yildan boshlandi. O'tgan yillar davomida O'zbekistonda bu borada har tomonlama chuqur ilmiy izlanishlar olib borildi va jahon seysmologiyasi tarixida juda katta yutuqlar qo'lga kiritildi.

Yer silkinishlari haqida oldindan belgi beradigan ishonchli darakhchilar aniqlana boshlandi. Masalan, 1965-1970 yillarda seysmolog olimlar tomonidan o'tkazilgan kuzatuvlar yer usti maydonining ba'zi joylarida anomal o'zgarishlar yuz berganini aniqladi. Buning oqibatida zilzilalar kelib chiqqanligi o'z isbotini topdi.

Bugungi kunda dunyo mamlakatlaridagi eng dolzarb muammoli masalalardan biri zilzilalar oqibatida vujudga keladigan zararli oqibatlarni kamaytirish hisoblanadi. Geodinamik poligonlarda zilzila darakhchilarining namoyon bo'lish qonuniyatlarini o'rganish orqali ushbu muammoni hal etilishiga sabab bo'ladi. Texnogen ob'ektlardan tabiiy model sifatida foydalangan holda hududlarda zilzilalarning tayyorlanish jarayoni va ularning darakhchilarini namoyon bo'lishi orasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganish mumkin. Aynan shunday o'rganishlar To'xtag'ul, Chirkey, Talbingo, Nurek, Azat suv omborlarida olib borilganligini ko'rish mumkin [3].

Chorvoq suv ombori xududida olib borilgan ilmiy izlanishlar boshqa hududlardagiga nisbatan keng ko'lamli bo'lib, davomiyligi bo'yicha esa jahonda tengsizligi bilan ajralib turadi. Soxa olimlari Q.N.Abdullabekov, Ye.Berdaliev, S.X.Maqsudov, A.I.To'ychiev va boshqalar tomonidan olingan ilmiy natijalar asosida 1973-2013 yillar mobaynida bir nechta ilmiy adabiyotlar chop etilganligini ko'rishimiz mumkin. Mazkur tadqiqot ishlaridan ko'zlangan maqsad shundan iboratki, bunda yer magnit maydonining Chorvoq suv omborida yig'ilayotgan suvning hajmi, sathi bilan bog'liq bo'lgan lokal o'zgarishlar xususiyatlarini o'rganish va zilzilalar tayyorlanish jarayonini tabiiy sharoitda, o'zgaruvchan yuklanishlar hosil qilinadigan xududda modellashdan iborat ekanligidir. 1973 yil dekabridan boshlab Chorvoq suv ombori xududidagi geomagnit tadqiqotlar 40 ta punkt va 122 ta kuzatuv joylarida o'tkazildi [4]. Olib borilgan tadqiqot natijalari esa "Yangibozor" magnitosfera rasadxonasidagi geomagnit kuzatuvlar bergan ma'lumotlar nisbat qilingan holda hisoblab chiqishga erishildi. Hisoblab chiqilgan natijalarga ko'ra Chorvoq suv omborida to'plangan suv hajmi va sathining o'zgarishi har doim magnit maydonining sezilarli o'zgarishiga sabab bo'lishi aniqlandi. Shuningdek, chuqurroq olib borilgan tadqiqotlar natijalari esa magnit maydonidagi jarayonlari o'zgarishlariga faqat suv satxi va hajmi emas, balki, mazkur hudud atrofidagi seysmotektonik jarayonlarning ham kuchli ta'siri borligiga aniqlik kiritildi. Bunga 1977 yil 6 dekabrda yuz bergan 7 balli va 5 magnitudali Tovoqsoy zilzilasi misol sifatida olishimiz mumkin. Ushbu zilzila sodir bo'lgan vaqtda lokal geomagnit maydon +5 nTlga, yana bir misol, 1980 yilda sodir bo'lgan 5,5 magnitudali Nazarbek zilzilasi lokal geomagnit maydon +3 nTl ga, keyingi misol, 1982 yilda sodir bo'lgan 5,8 magnitudali Chimyon zilzilasi magnit maydon +3,5 nTlga o'zgarganligini ko'rish mumkin. Aynan Chorvoq suv ombori xududlarida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalaridan zilzilalarni tayyorlanish jarayonini modellash tirishda foydalanibgina qolmay, undan zilzilalarni oldindan aniqlashda ham, Korjantov yer yorig'i seysmik faolligini o'rganishda ham, boringki, Toshkent va uning atrofi hududlarini seysmik holatini nazorat qilishda ham keng qo'llagan holda, undan unumli foydalanish mumkin.

Ta'kidlash joizki, zilzila darakhchilarini izlab topish va uni oldindan aniqlashga ishonmagan olimlar ham yo'q emas edi. Toshkent zilzilasi bag'ishlab 1974 yilda o'tkazilgan

halqaro simpoziumda Sibirlik yirik olim V.T.Soloninka bergan maqolasida bunday darakhchilar borligini inkor etgan edi. Biroq, o'zbekistonlik seysmolog olimlar o'z ishlari davom ettirib Toshkent poligonidan keyin, Farg'ona vodiysi Farg'ona va markaziy Qizilqumdagi Qizilqum poligonlarida ish boshladilar. Bu poligonlarda ham zilzila darakhchilarini topish borasida ilmiy tadqiqot ishlari boshlab yuborildi. Tadqiqot o'tkazilgan poligon radius bo'ylab 70-100 km keladigan katta maydonni o'z ichiga olgan.

Gazlida 1976 yilda yuz bergan ikkita kuchli yer silkinishi bu sohaga zudlik bilan alohida e'tibor berishni taqozo etdi. Shu sabab sobiq SSSRda birinchi bo'lib 1977 yili O'zbekiston SSR Kompartiyasining Respublikada "Zilzilashunoslikni kuchaytirish to'g'risida"gi Qarori e'lon qilindi. Ushbu qarorga ko'ra Respublikaning barcha viloyatlarida zilzilalarni oldindan aytish uchun rasadxonalar qurish belgilandi[5].

1979 yilda SSSR Ministrlar Soveti "Zilzilashunoslikni kuchaytirish haqida"gi Qarorni qabul qildi. Unda SSSR Geologiya vazirligi - "Geolog razvedkasi"ga va O'zbekiston FA huzuridagi Seysmologiya institutiga seysmik jarayonlarni kuzatishni yanada rivojlantirish uchun mablag' ajratildi. Ushbu qarorga ko'ra ajratilgan mablag' miqdori dastlabki yili 1,5 million rubl, keyingi yildan boshlab har yili 2 million rubl ajratila boshlandi. Holbuki, zilzilalarni oldindan aniqlash maqsadida sobiq SSSRda birinchi bo'lib Seysmologiya institutida 1977 yilda akademik G'.O.Mavlonov tashabbusi bilan "Zilzilalarni oldindan aytish hay'ati" tashkil etildi.

Seysmik oldindan aniqlashda seysmik kuzatishlar oqibatida aniqlangan zilzila darakhchilarining faollashuvi yoki aksiga qarab ilmiy xulosa qilinadi. Biroq, O'zbekiston seysmologiyasida bir qator zilzilalarni oldindan aniqlash holatlar kuzatilgani bilan, aynan shu yo'nalishda o'ziga xos biror tuzilma shakllantirilmagan edi.

Forshoklar kuchli yer silkinishidan xabar beruvchi kuchsiz zilzilalarni oldindan ko'plab yuz berib turish jarayonidir. Forshoklar ham kuchli yer silkinishi yuz berishidan darak beradi. Biroq, forshoklar barcha kuchli zilzilalardan oldin ham bo'lavermaydi. Masalan, 1966 yil Toshkent zilzilasi forshok bo'lmagan. Uning aksi sifatida 1984 yil 18 fevralda Namangan zilzilasi oldin forshoklar bo'lgan. Ya'ni, kuniga bir-ikki marta zilzilalar bo'lib turgan. Oradan bir oy o'tib bunday forshoklar soni sutkasiga 100-150 tagacha yetgan. Mahalliy hokimiyatga bu haqida xabar berilgan. Oqibatda 8 balli yer silkinishi yuz bergan. Unga oldindan tayyorgarlik ko'rilgani bois, hech qanday qurbonlar va shikastlanganlar bo'lmagan. Biroq, bino va imoratlarda o'ziga xos shikastlanishlar bo'lgan.

Biroq, ayrim adabiyotlarda 1966 yildagi Toshkent hamda 1980 yildagi Nazarbek zilzilalari yuz berishidan oldin darakhchilar bo'lmagan, deyiladi. Bu zilzilalardan oldin ham muayyan xabar beruvchi omillar bo'lganligi ayrim manbalarda uchraydi. Jumladan, 1966 yili 26 aprelda yer osti silkinishi va shahar ustida yaltiragan chaqindan odamlar uyg'onib ketgan. Zilzila sodir bo'ladigan tunda yana boshqa g'ayritabiiy hodisalar kuzatilgan. Falokatdan bir necha soat oldin zilzila o'chog'ida joylashgan ba'zi uylarda kunduzgi chiroqlarni lyuminafar lampalari o'z-o'zidan yona boshladi va yuksak elektr zaryadlari paydo bo'ldi. Ba'zi uylarda devorning ichki tomoni ko'kish rangda yorishgan, bir-biriga yaqin joylashgan ammo, tegib turmagan elektr simlaridan uchqun chiqqan. Yoki 1980 yil 11 dekabrda yuz bergan Nazarbek zilzilasi haqida ham yozilgan boshqa bir manbaga e'tibor qaratsak, unda: "...mahalliy vaqt bilan kechki soat 20 dan 35 daqiqaga o'tganda Toshkent shahrining g'arbiy tomoni Nazarbekda 7-8 balli kuchli yer silkinishi yuz berdi. Bu yerda oldindan shafaq ko'rindi va zilzila sodir bo'ldi. Avvaliga yer ostidan momoqaldir ovozidek gumbirlagan ovoz eshitildi va to'satdan kuchli yer silkinishi sodir bo'ldi. Toshkent seysmik

stansiyasi pultlari "Kuchli zilzila" ekanligini ko'rsatdi. Uning epitsentri Toshkent shahridan 15 km g'arbda joylashgan edi," [6] - deyiladi.

1960 yillarda zilzilalarni oldindan aniqlashda Rossiya Federatsiyasi Fanlar akademiyasining Vulkanologiya instituti direktori S.A.Fedotov tomonidan seysmik harakatlarning vaqtinchalik kurs usuli nazariyasi ilgari surildi. Bunga ko'ra, zilzilalar ma'lum vaqtlar oralig'ida takrorlanishi mumkin, degan fikr ilgari surildi. Hozirgi kunda ham bu usuldan 70-80 foizgacha zilzilalarni oldindan aniqlashda foydalanib kelinmoqda.

O'zbekiston seysmik olimlarining bu kabi zilzilalarni oldindan aniqlash borasidagi ilmiy natijalarini moskvalik tadqiqotchilar ham laboratoriya sharoitida tajribadan o'tkazib, uning asosli ekanligini to'la tasdiqladilar. Bu qonuniyat asosida 1968 yildagi Dog'iston, 1977 yildagi Isfara-Botkenda zilzilalarida o'z isbotini topdi.

Biroq ko'pgina zilzilalar, xususan 1976 va 1999 yildagi Tyanshan, 1984 yildagi Gazli, 1988 yildagi Spitak, 1989 yildagi Xisor (23 yanvardagi Sharora, Oqulibolo, Oqulipoyon qishloq zilzilasi), 1991 yildagi Jigariston, (zilzila natijasida 200 ming kub tuproq ko'chkisi sodir bo'lgan) 2001 yildagi Hindiston yer silkinishlarini oldindan aniqlash imkoniyati bo'lmadi. Bundan tashqari bu hududlarda yuz berayotgan o'zgarishlar haqida oldindan seysmologiya sohasida to'planib kelgan ma'lumotlarda muayyan kamchiliklar borligi ko'rindi.

Ko'p yillik kompleks tadqiqotlar natijalariga ko'ra elektr, magnit, impuls elektromagnit maydon o'zgarishlarning paydo bo'lishi, rivojlanishi va maydon bo'ylab tarqalishida asosiy omil bo'lib yerning faol yoriqlari, tog' jinslarining xususiyatlari hisoblanadi.

Zilzilalarni sodir bo'lishini oldindan aniqlash maqsadida Seysmologiya institutida har payshanba kuni Zilzilalarni oldindan aytish komissiyasi majlisi o'tkaziladi. Mazkur komissiya tomonidan mamlakat hududi bo'yicha qisqa va o'rta muddatli seysmik xolat to'g'risida xulosa tayyorlanadi. Komissiya to'plangan haftalik axborotlarni

umumlashtirish natijasida chiqarilgan ma'lumotlarni Favqulodda vaziyatlar vazirligi va boshqa tegishli tashkilotlarga jo'natib turadi.

Aytish mumkinki, o'tgan yillar mobaynida yer silkinishlarini oldindan aytishda o'zbekistonlik olimlar ko'plab yutuqlarni qo'lga kiritdilar. Bu esa mamlakat iqtisodiyotida bo'lishi mumkin bo'lgan ko'plab yo'qotishlarni oldini olish bilan birga aholining xavfsiz turmush kechirishini ta'minlashda asosiy o'rinlardan birini egallaydi. Ayniqsa, Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 24 avgustda yangi tahrirdagi 242-sonli Qarori va Nizomini qabul qilinishi favqulodda vaziyatlarni oldindan xabar berish masalalarini yanada ko'lamini kengayishiga olib keldi [7]. Bu kabi keng ko'lamli harakatlar zilzilalar sodir bo'lishini oldindan aniqlash orqali, respublikamiz hududlari va aholisining seysmik xavfsizligini ta'minlash kabi o'ta muhim vazifani amalga oshirishga imkon yaratadi.

Xulosa. 1. O'zbekiston geomagnit maydonida yuz beradigan anomal o'zgarishlarni o'lchash 1968 yildan boshlab amalga oshirila boshlandi. Oqibatda o'zbek seysmolog olimlari ko'plab yutuqlarni qo'lga kiritdi. Shulardan ayrimlari jahon seysmologiyasida ilk bor o'z isbotini topdi. Bunga geomagnit maydondagi o'zgarishlarni kiritish mumkin.

2. Bu tajribaga asoslangan holda o'zida juda katta potensial xavfni tutib turuvchi Chorvoq suv ombori atrofida geomagnit kuzatishni doimiy amalga oshirish uchun 1970 yillarning oxiri va 80 yillarning boshlarida magnetometrik stansiya o'rnatildi. Bu esa suv ombori atrofida magnetometrik holatlar o'zgarishini qayd etib bordi.

3. Seysmologiya institutida 1977 yilda akademik G.O.Mavlonov tashabbusi bilan "Zilzilalarni oldindan aytish hay'ati" tashkil etildi. Seysmik oldindan aniqlashda seysmik kuzatishlar oqibatida aniqlangan zilzila darakchilarining holatiga (faollashuvi yoki aksincha) qarab ilmiy xulosa qilish yo'lga qo'yildi. Biroq, O'zbekiston seysmologiyasida bir qator zilzilalarni oldindan aniqlash holatlari kuzatilgani bilan, aynan shu yo'nalishda o'ziga xos biror tuzilma shakllantirilmadi.

ADABIYOTLAR

1. Мирзаев В. Зилзилалар. - Тошкент, 1966. - 4 б.
2. Зилзилани олдиндан билса бўладими? // Тошкент оқшоми. - 1989. - №23.
3. Азимов А. Сейсмическая безопасность гидротехнических сооружений // Мухофаза +. - 2014. - №11 (121). - 5 б.
4. Юсупов В. Зилзила ва геомагнит майдон // Вазият. - 7 январь 2016. - №1.
5. ЎзР ФА. Ғ.О.Мовлонов номидаги сейсмология институти 50 ёшда. - Тошкент, 2017. - 83 б.
6. ЎзРФМИ. Зилзилаларни мониторинг қилишнинг истиқболлари ва ривожлантириш асослари // Илмий – амалий семинар материаллари – Тошкент, 2018. - 58 б.
7. Тожиев М. Аҳолини хавфсизлигига оид ҳужжатлар // Мухофаза +. - 2013. - №11. - 5 б.



UDK:71/72

Pahlavon QURBONOV,
Qarshi davlat universiteti doktranti, g.f.n., dotsent
E-mail: pahlavon82@mail.ru
Gulhayo QO'LDOSHEVA
Qarshi davlat universiteti tayanch doktranti, PhD

Tarix fanlari doktrori, professor A.Alimov taqrizi asosida

AHOLI MANZILGOHLARI RIVOJLANISHINING KLASSIK NAZARIYALARI TAHLILI

Annotatsiya

Maqolada aholi manzilgohlarining ilmiy-nazariy masalalari ko'rib chiqiladi. Aholi manzilgohlarining shakllanishi, rivojlanishi va ularning hududiy joylashuvi tarixiy va geografik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Urbanizatsiya jarayonlari va aholi joylashuvining iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirlarini tushuntirish maqsadida bir qator nazariyalar, jumladan, V. Kristallerning markaziy o'rinlar nazariyasi, I.G. fon Tyunenning halqalar modeli, A. Veberning sanoat joylashuvi nazariyasi, F. Perruning o'sish qutblari nazariyasi hamda shaharsozlikka oid modellar tahlil qilinadi. Shuningdek, lokalizatsiya nazariyasi va uning hududiy rivojlanishga ta'siri haqida ham ma'lumotlar keltiriladi.

Kalit so'zlar: Aholi manzilgohlari, urbanizatsiya, markaziy o'rinlar nazariyasi, lokalizatsiya nazariyasi, shaharsozlik, iqtisodiy geografiya, transport omili, hududiy rivojlanish, shahar modellari, iqtisodiy faoliyat.

АНАЛИЗ КЛАССИЧЕСКИХ ТЕОРИЙ РАЗВИТИЯ НАСЕЛЁННЫХ ПУНКТОВ

Аннотация

В статье рассматриваются научно-теоретические вопросы населённых пунктов. Анализируется формирование, развитие и территориальное размещение поселений с исторической и географической точек зрения. Для объяснения процессов урбанизации и социально-экономического влияния расселения рассматриваются различные теории, включая теорию центральных мест В. Кристаллера, модель кругов И. Г. фон Тюнена, теорию размещения промышленности А. Вебера, теорию полюсов роста Ф. Перру, а также модели градостроительства. Кроме того, в статье приводятся сведения о теории локализации и её влиянии на региональное развитие.

Ключевые слова: Населённые пункты, урбанизация, теория центральных мест, теория локализации, градостроительство, экономическая география, транспортный фактор, региональное развитие, городские модели, экономическая деятельность.

ANALYSIS OF CLASSICAL THEORIES OF HUMAN SETTLEMENT DEVELOPMENT

Annotation

The article examines the scientific-theoretical issues of human settlements. The formation, development, and spatial distribution of settlements are analyzed from historical and geographical perspectives. Various theories, including Walter Christaller's Central Place Theory, Johann Heinrich von Thünen's Ring Model, Alfred Weber's Industrial Location Theory, François Perroux's Growth Pole Theory, and urban planning models, are discussed to explain urbanization processes and the economic and social impacts of settlement distribution. Additionally, the article provides insights into the theory of localization and its influence on regional development.

Key words: Human settlements, urbanization, Central Place Theory, Localization Theory, urban planning, economic geography, transportation factor, regional development, urban models, economic activity.

Kirish. Aholi manzilgohlarining paydo bo'lishi va shakllanishi kishilik jamiyatining rivojlanish tarixi bilan bevosita bog'liq. Ko'p yillik tarixiy tadqiqotlarga ko'ra dastlabki aholi manzilgohlari neolit davrida (miloddan avvalgi 10-8 ming yilliklar atrofida) paydo bo'la boshlagan. Bu davr insoniyat tarixida ovchilik va termachilik negizida qishloq xo'jaligi (dehqonchilik va chorvachilik) va doimiy turg'un aholi manzilgohlar paydo bo'lishining asosiy bosqichi hisoblanadi. Neolit inqilobi davrida odamlar hunarmandchilikni, yerga ishlov berish va chorvachilikni o'rganib, doimiy yashash uchun qulay manzilgohlar qurishni boshlagan. Bu manzilgohlar odatda, qulay tabiiy sharoitga ega, eng avvalo suv manbalari yaqinida, hosildor tuproqli hududlarda joylashgan bo'lib, ular jamoa tarzida yashash va mehnat qilish uchun mo'ljallangan bo'lgan.

Olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasida eng qadimgi aholi manzilgohlari sifatida taxminan 10-9 ming yillik tarixga ega hozirgi Falastin davlatining g'arbiy sohilida joylashgan Jerixo (Jericho), Turkiyaning janbiy

qismidagi Gyobekli-Tepe (Göbekli Tepe), 7-6 ming yillik tarixga ega Pokiston hududidagi Mehrgarh (Mehrgarh), Turkiya xududidagi Chatalho'yuk (Çatalhöyük) aholi manzilgohlarini ko'rsatish mumkin. Mazkur aholi manzilgohlari asosan qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanuvchi muqim aholi yashash punktlari bo'lib, ularda asosan xom g'ishtdan barpo qilingan uylar zich holatda joylashgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jahon aholisi soni va turmush darajasining ortib borishi bilan aholi manzilgohlarining shakl-shamoli ham o'zgarib boradi. Bu jarayon ayniqsa, sanoatlashuv va kapitalizm bosqichida zamonaviy shaharlarning paydo bo'lishi hamda o'z navbatida aholi joylashuv nazariyalarining ishlab chiqilishi bilan bog'liq holda rivojlanib borgan.

Aholi manzilgohlarining rivojlanishi va joylashuvi bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida ko'plab ilmiy-nazariy yondashuvlar ishlab chiqilgan. Jumladan, aholi manzilgohlari tashkil etilishining iqtisodiy geografik jihatlarini dastlab Yevropa davlatlari olimlari I.Tyunen, A.Veber,


V.Kristaller, A.Lyosh, F.Perru va boshqalarning asarlarida o'z aksini topgan. Sobiq ittifoq va mamlakatimiz olimlaridan N.N.Baranskiy, Y.G.Saushkin, G.M.Lappo, S.A.Kovalyov, YE.N.Persik, O.B.Atamirzaev, A.S.Soliev, A.U.Sattorov va boshqalar aholi manzilgohlarini hududiy tashkil etilishi muammolari bilan shug'ullanishgan.

Tahlil va natijalar. Aholi manzilgohlari rivojlanishining ilmiy-nazariy masalalari aholining joylashishi, hududiy taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik omillarni o'rganishni o'z ichiga oladi. Bu masalalarni o'rganishda Yevropalik olimlarning quyidagi asosiy klassik nazariy yondashuvlari va modellari mavjud:

1. Valter Kristaller (1893–1969) nemis geografi bo'lib, 1933 yilda o'zining "Markaziy o'rinlar nazariyasi"

(Central Place Theory) ni ilgari surdi. Ushbu nazariya iqtisodiy geografiya va shahar rivojlanishi sohasida inqilobiy ahamiyatga ega bo'lib, aholi turg'unlik nuqtalari va shaharlar rivojlanishini iqtisodiy jihatdan tushuntirishga qaratilgan. V.Kristaller nazariyasining asosiy mohiyatini shaharlar va qishloqlar orasidagi funksional munosabatlarni tushuntirish, markaziy joylarning o'lchami, faoliyat hududi va tashkiliy tartibini aniqlash, shaharlar o'rtasidagi iqtisodiy bog'liqlik va hududiy rivojlanish modellarini tasvirlash tashkil etadi. Bunda u, ikkita asosiy jihatga e'tibor qaradai, birinchidan markaziy o'rin - xizmatlar, savdo va boshqa iqtisodiy faoliyatlar to'planadigan nuqta bo'lsa, ikkinchidan markaziy joydan boshqa barcha hududlar tovarlar va xizmatlar taqsimlanadigan aholi punktlari deb hisoblaydi.

1-rasm.



1-rasm. Aholi manzilgohlari va xo'jalik tarmoqlarini joylashtirishning asosiy nazariyalari (muallif ishlanmalari asosida tuzilgan).

Kristaller aholi joylashuvini va aholi manzilgohlarini ierarxik shaklda tasvirlaydi, ya'ni ierarxiya yuqori darajali markazlardan (katta shaharlar) boshlanib, kichik darajali markazlarga (qishloq va tuman markazlari) qadar uziladi. Nazariyada hududlar oltiburchak (geksagonal) shaklida tasvirlangan bo'lib, bu hududlar o'rtasidagi ta'sir hududlari o'zaro qoplanmasdan, samarali taqsimlanishini ta'minlaydi.

Nazariyada geografik yondashuv kuchli aks etgan bo'lib, taklif etiladigan xizmatlardan foydalanishda xudud va masofa hal qiluvchi ahamiyatga ega deb hisoblanadi. Jumladan, Markaziy joyda taklif etiladigan xizmatlar ma'lum masofadagi mijozlarni jalb qilishi, kichik markazlar yaqindagi talabni qondirsa, yuqori darajadagi markazlar katta hududlarni qamrab oladi deb ta'kidlaydi. Kristaller nazariyasida markaziy joylar uch asosiy tamoyilga asoslanadi:

Tashqi savdo tamoyili: Iqtisodiy faoliyat minimal masofada joylashadi. Har bir markaz o'z tovar va xizmatlari bilan yaqindagi kichik markazlarni ta'minlaydi.

Transport tamoyili: Transport xizmatlarining samaradorligini oshirish uchun markaziy joylar transport yo'nalishlari bo'yicha joylashtiriladi.

Administrativ tamoyil: Ma'muriy boshqaruvning qulayligi uchun asosiy markazlar boshqa markazlarga nisbatan kattaroq hududni qoplaydi.

Markaziy joylar nazariyasi shahar va qishloq hududlaridagi iqtisodiy va ijtimoiy faoliyatlar qanday tashkil qilinishini tushuntirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi hamda u shaharsozlik, transport infratuzilmasi rivojlanishi, hududiy rejalashtirish va iqtisodiy geografiya sohalarida keng qo'llaniladi. Shu bilan birga V.Kristaller nazariyasida hududlar bir xil, ya'ni: har bir joyda bir xil geografik shart-sharoit mavjud, aholi bir xil joylashgan va ularning xarid qobiliyati teng, barcha markaziy joylar o'rtasida transport xizmati bir xil darajada rivojlangan, Shaharlar va markazlar o'zlarining faoliyat hududiga ega degan gipoteza yotadi. Va aynan, ana shunday yondashuv, mazkur nazariyaning asosiy kamchiligi hisoblanadi. Chunki, haqiqiy dunyoda hududiy birxillik mavjud emas va aslo bo'lishi ham mumkin emas, xuddi shuningdek, dunyo mamlakatlari aholisi joylashuvi va geografik shart-sharoitlar turli-tuman, va har bir xududda shaharlarning taraqqiyotiga darajasiga ko'ra transport infratuzilmasi teng rivojlanmagan. Yuqoridagi kamchiliklar bilan birga V.Kristallarning Markaziy joylar nazariyasi

hududiy rivojlanishni tushuntirishda muhim ahamiyatga ega. U aholi manzilgohlarining asosiy ikki shakli shaharlar va qishloqlar orasidagi iqtisodiy munosabatlarni tizimli tarzda baholash imkonini beradi va hozirgi vaqtda ham urbanizatsiya jarayonlari tahlil qilishda qo'llaniladi.

Aholi manzilgohlari nazariyalari bilan bir vaqtda aholi manzilgohlarini tashkil topishida eng asosiy o'rinni egallovchi, ya'ni aholi manzilgohlarini hosil qiluvchi qishloq xo'jaligi, sanoat va xizmat ko'rsatish sohalari joylashtirish nazariyalari ham ishlab chiqila boshlagan. Jumladan, ana shunday nazariyalar orasida, Lokalizatsiya nazariyasi — iqtisodiy faoliyatning muayyan hududda joylashishi va uning omillarini o'rganuvchi iqtisodiy-geografik nazariya alohida ahamiyatga molikdir. Bu nazariya iqtisodiy resurslarning joylashuviga, ishlab chiqarish va bozorning aloqadorligiga hamda muayyan hududning samaradorligini oshirishga qaratilgan. Lokalizatsiya nazariyasining asosiy maqsadi ishlab chiqarishni hududiy joylashtirishga ta'sir etuvchi omillarni tushuntirish va joylashuv bo'yicha eng samarali qarorlarni belgilashdan iborat. Bu nazariya birinchi navbatda sanoat va ishlab chiqarish sektorlari uchun ishlab chiqilgan.

Lokalizatsiya nazariyasining rivojlanishida uning asoschilari sifatida nemis olimlarining hissalarini beqiyos. Jumladan, Iogann Genrix fon Tyunen (Johann Heinrich von Thünen) nemis iqtisodchisi va geografi bo'lib, u birinchi bo'lib iqtisodiy faoliyatning hududiy joylashuvini matematik modellari orqali tahlil qilishga urinib, bu sohaning asoschilaridan biri hisoblanadi. Uning "Tyunen halqalari modeli" deb atalgan nazariyasi 1826 yilda chop etilgan "Izoliyatsiya qilingan (ajratib qo'yilgan) davlat" ("Der isolierte Staat") asarida bayon qilingan. Mazkur nazariya Lokalizatsiya nazariyasining poydevori sifatida tan olingan. Uning ishlab chiqarish joylashuvi va bozor aloqasiga oid yondoshuvi asosiy ilmiy manba hisoblanadi. I. Tyunen "Xalqalar modeli" orqali transport xarajatlari va resurslarning joylashuviga asoslangan lokalizatsiyani tushuntirgan.

Tyunen modelida markaziy bozor atrofidagi qishloq xo'jaligi hududlari konsentrik halqalar shaklida joylashadi. Har bir halqa belgilangan bir qishloq xo'jaligi mahsuloti uchun mo'ljallangan:

1-halqa: Intensiv qishloq xo'jaligi va bog'dorchilik

Hosili tez buziladigan mahsulotlar, masalan, sabzavotlar, gullar va sut mahsulotlari.

Markazga yaqinligi transport xarajatlari va yetkazib berish vaqtini kamaytirish nuqtai nazaridan muhim

2-halqa: O'tin va yoqilg'i o'rmoni

Yoqilg'i mahsulotlari transport xarajatlari yuqori bo'lgani uchun bozorga yaqin joylashtiriladi.

3-halqa: Don va g'alla yetishtirish

Transport xarajatlari o'rta darajada. G'alla ko'proq masofalarda ham saqlanishi mumkin.

4-halqa: Chorvachilik va malakali chorva yetishtirish

Qoramol boqiladi, chunki ularni markazga yetkazish oson. Yashash joyi uchun esa katta yer maydoni talab etiladi.

5-halqa: Markazdan uzoq hududlar: Qishloq xo'jaligiga yaroqsiz, masalan, o'rmonlar yoki hosilsiz yerlar.

Tyunen nazariyasi mahsulotlar bozorga qanchalik yaqin bo'lsa, ularning transport xarajatlari kamayadi, bu esa mahsulot turlarini joylashtirishga juda katta ta'sir ko'rsatadi, Markazga yaqinlashgan sari yerning narxi oshadi, bu esa intensiv qishloq xo'jaligini talab qiladi. Yerdan olinadigan daromad maksimal darajada bo'lishi lozim degan g'oyalarni o'zida mujassamlashtirgan.

Shu bilan birga mazkur nazariya ham ideal bir xil tabiiy, iqtisodiy-ijtimoiy sharoitga ega xududlarga nisbatan ishlab chiqilgan bo'lib, model haqiqiy aholi manzilgohlarida qishloq xo'jalik tarmoqlarini joylashtirishda ko'p hollarda real hayotga mos kelmaydi. Ammo, I.Tyunen nazariyalari hozirgi davrda ham qishloq xo'jaligi, shaharsozlik, atrof-muhit

muhofazasi va transport infratuzilmasini rejalashtirish kabi sohalarida metodologik asos sifatida katta ahamiyatga ega.

Yana bir nemis olimi Alfred Veber (Alfred Weber) 1909 yilda o'zining "Sanoat shtandorti" nazariyasida ishlab chiqarishni joylashtirishga ta'sir etuvchi uch asosiy omilni belgilagan:

Resurslarga yaqinlik.

Bozorlarga yaqinlik.

Transport xarajatlari.

Yana bir nemis olimi Avgust Lyosh (August Lösch 1906–1945) bo'lib, hududiy rivojlanish, iqtisodiy geografiya va iqtisodiy faoliyatning hududiy tashkil etilishini o'rgangan. U o'zidan oldingi joylashtirish (I.Tyunen, A.Veber, V.Kristaller) nazariyalarini umumlashtirib xo'jalikning barcha tarmoqlarini oqilona joylashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borgan. Uning asosiy ishlari "Iqtisodiy hududiy rivojlanish" va "Markaziy o'rinlar" nazariyasini takomillashtirish bilan bog'liq. A.Lyosh qishloq xo'jaligini areal va sanoatni nuqtasimon joylashtirish xususiyatlarini mohiyatini tushuntirib berdi.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, klassik joylashtirish nazariyalari mutlaq abstrakt bo'lib, ular ideal sharoit mavjud hududlar doirasida ishlab chiqilgan. Mamlakat va mintaqalarda ma'lum bir sohani joylashtirish orqali shu hududning iqtisodiy salohiyatini rivojlantirish, uning boshqa hududlarga nisbatan tezroq rivojlanishi xududiy tafovutlarni vujudga keltiradi. Bu esa, qulay tabiiy sharoit va resurslarga ega hududlarda aholida etibor qaratish lozimligini anglatadi. Iqtisodiyot nuqtai nazaridan uncha o'zlashtirilmagan, xo'jalik sig'imi past hududlarni rivojlantirish va jonlantirish borasida "O'sish qutblari va rivojlanish markazlari" nazariyasi Fransuz iqtisodchisi Fransua Perru (François Perroux) tomonidan 1955 yilda ilgari surilgan. Ushbu nazariya jamiyat va iqtisodning rivojlanishi har doim bir xil bo'lmashligini, rivojlanish ma'lum hududlarda (qutblarda) yoki markazlarda jamlanishini ta'kidlaydi. Bu jarayon iqtisodiy, ijtimoiy va hududiy disproportsiyalarga olib keladi.

F.Perru mamlakat va mintaqalarda rivojlanish bir tekis amalga oshmasligi, u ma'lum markazlar (shaharlar, sanoat zonalar yoki texnologiya markazlari) atrofida jamlanishi va bu markazlarda rivojlanish jarayoni yuqori sur'atda amalga oshishi hamda aynan ular "O'sish qutblari" sifatida xizmat qilishini ta'kidlaydi.

O'sish qutblari o'zlarining atrofidagi hududlarga ijobiy (yangi ish o'rinlari yaratish, infratuzilma rivojlanishi, texnologiyalarning tarqalishi) yoki salbiy (resurslarning bir markazga yig'ilishi, periferiya hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy qaramligi) ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu ta'sir markaz va periferiya o'rtasidagi iqtisodiy va ijtimoiy aloqalar orqali amalga oshadi. O'sish qutblari rivojlanishi tashqi omillarga bog'liq bo'lib, rivojlanish markazlari iqtisodiy faoliyatni jalb qilishda muhim rol o'ynaydi. Ular innovatsiyalar, sarmoyalar va ishlab chiqarish jarayonlarini jalb qiladi. Bu jarayon, o'z navbatida, iqtisodiy taraqqiyotni tezlashtiradi, natijada, ularning atrofida sanoat korxonalari, xizmat ko'rsatish sohalari, transport infratuzilmalari va aholi punktlari rivojlanadi.

Perru fikricha, uchinchi guruh tarmoqlari tez, jadal rivojlanish, rayon (majmua) hosil qilish salohiyatiga, qobiliyatiga ega bo'lib, aynan ana shunday mintaqaviy iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi tarmoqlar rivojlanishi o'sish markazlarini tashkil qiladi. Markazlarning mustahkamlanishi, ularda turdosh korxonalarning ko'payishi, atrofga bo'lgan ta'sir doirasining kengayishi natijasida o'sish qutblari vujudga keladi. Ta'kidlash joizki, o'tgan asrning qirqinchi yillarida xuddi shunga o'xshash «iqtisodiy o'choqlar» g'oyasi rus olimlari, jumladan A.G.Aleksandrov va N.N.Kolosovskiy tomonlaridan ham yaratilgan edi(5).

Fransua Perru nazariyasi hududiy iqtisodiy rivojlanishni o'rganish va rivojlantirish uchun muhim asos bo'lib, uning g'oyalari hozirgi vaqtda ham dolzarb ahamiyatga ega.

Xulosa va takliflar. Lokalizatsiya jarayonlariga iqlim va tabiiy sharoit, tabiiy resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi, ishchi kuchi, transport infratuzilmasi, iqtisodiy muhit

va iqtisodiy siyosat eng yuqori ta'sir ko'rsatuvchi omillar sifatida belgilanadi.

Hozirgi kunda lokalizatsiya nazariyasi sanoat va xizmat ko'rsatish sohaslarini joylashtirishda hamon dolzarb hisoblanadi. Shaharlarning rivojlanishi, globalizatsiya jarayonlari va texnologik taraqqiyot ushbu nazariyaning yangi yo'nalishlarini belgilab berdi.

ADABIYOTLAR

1. Christaller, W. (1933). Die zentralen Orte in Süddeutschland. Jena: Gustav Fischer.
2. Thünen, J. H. von (1826). Der isolierte Staat in Beziehung auf Landwirtschaft und Nationalökonomie. Hamburg.
3. Weber, A. (1909). Über den Standort der Industrien. Tübingen: Mohr Siebeck.
4. Perroux, F. (1955). Note sur la Notion de Pôle de Croissance. Économie Appliquée, 8(1-2), 307-320.
5. Soliev A.. Hududiy majmualarning nazariy asoslari, o'quv qo'llanma. Toshkent, 1996 – 108 b.
6. Qurbonov P.R.. Janubiy O'zbekistonda urbanizatsiya jarayonlari, monografiya. Toshkent. – “Mumtoz so'z”, 2019.



UDK:930.253(560):001.891

Zumrad RAHMONQULOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti professori
E-mail: zumradrahmankulova@gmail.com

Toshkent davlat texnika Universiteti professori R.Xolikova taqrizi asosida

REFLECTION OF EXTERNAL RELATIONS OF THE CENTRAL ASIAN KHANATES IN ARCHIVAL DOCUMENTS

Annotation

The state presents domestic and foreign archival funds on the relationship of the Central Asian khanates with the Ottoman Empire. The general content of the documents in these archives is also often discussed, and archival documents are analyzed by groups as a source. Collections of archival documents on the relationship of the Central Asian khanates with the Ottoman Empire and a brief summary of the documents contained in them are also presented. The Ottoman archives contain information on the funds of a number of palace organizations.

Key words: National Archives of Uzbekistan, Khazinay Evrak, State Archives of the Cabinet of Ministers of Turkey, International Research Institute of Central Asia.

ОТРАЖЕНИЕ ВНЕШНИХ СВЯЗЕЙ СРЕДНЕАЗИАТСКИХ ХАНСТВ В АРХИВНЫХ ДОКУМЕНТАХ

Аннотация

В статье представлены отечественные и зарубежные архивные фонды, о взаимоотношении среднеазиатских ханств с Османской империей. Также частично обсуждается общее содержание документов в этих архивах, а архивные документы анализируются по группам как источник. Представлены также подборки архивных документов по взаимоотношениям среднеазиатских ханств с Османской империей и краткое содержание содержащихся в них документов. В османских архивах хранится информация о фондах ряда дворцовых организаций.

Ключевые слова: Национальный архив Узбекистана, Хазинаи еврак, Государственный архив Кабинета министров Турции, Международный исследовательский институт Центральной Азии.

ARXIV HUIJATLARIDA O'RTA OSIYO XONLIKLARINING TASHQI ALOQALARINING AKS ETISHI

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'rta Osiyo xonliklari va Usmoniylar davlati o'rtasidagi munosabatlarga doir mahalliy, xorijiy arxiv jamg'armalari ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, mazkur arxivlardagi hujjatlarning umumiy mazmuniga qisman to'xtalib o'tiladi va arxiv hujjatlari manba sifatida guruhlariga bo'linib tahlil qilinadi. O'rta Osiyo xonliklarining Usmoniylar davlati bilan o'zaro aloqalariga doir arxivi hujjatlari to'plamlari va undagi hujjatlarning qisqacha mazmuni ham keltirib o'tiladi. Usmoniylar arxividagi bir qator saroy tashkilotlarining fondlari ma'lumotlar saqlanmoqda.

Kalitli so'zlar: O'zbekiston milliy arxivi, xazinai yevrak, Turkiya Vazirlar Mahkamasi Davlat Arxivlari, Markaziy Osiyo xalqaro tadqiqot instituti.

Kirish. Arxiv hujjatlari ma'lumotlarini o'rganish davlatlar va jamiyatlar taraqqiyoti tarixining kam o'rganilgan jihatlariga oydinlik kiritish imkonini beradi, bu esa ularning jahon hamjamiyatidagi bugungi va kelajakdagi o'rni va mavqeini aniqlashda ham muhim ahamiyatga ega. Maqola mavzusiga doir arxiv manbalarini ikki guruhga bo'linadi. Bular O'zbekiston Milliy Arxiv fondlari va xorijiy arxiv fondlarida saqlangan hujjatlar.

Mavzuga oid manbalar tahlili. Arxiv manbalarining birinchi guruhiga, O'zbekiston milliy arxivi jamg'armalaridagi hujjatlardan birlamchi tarixiy manba sifatida foydalanilgan bo'lib, mavzuga oid ko'plab tarixiy ma'lumotlar ilmiy muomalaga kiritilgan.

Ta'kidlash lozimki, I-1-«Turkiston general-gubernatori devonxonasi (kanselyariyasi)», I-2-«General-gubernator diplomatik amaldorlari» arxiv fondlarida saqlanayotgan hujjatlarda XIX asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyo va Usmoniylar munosabatlaridagi siyosiy masalalar, shuningdek, Buxoro amiri va Xiva xonining Usmoniylar sultonlari bilan yozishmalariga oid ko'plab diplomatik hujjatlar saqlanib qolgan.

Arxivda saqlangan yana bir muhim arxiv manbasi I-3-«Rossiyaning Buxorodagi siyosiy agentligi» fondi hisoblanadi. Fond tarkibida saqlangan hujjatlarda Usmoniylar

davlatidan Buxoro amirligiga siyosiy maqsadlarda kelgan fuqarolar va ularning nazorati olinishi to'g'risida ko'plab ma'lumotlar uchraydi. Shuningdek, ushbu mazmundagi tarixiy ma'lumotlar I-18-«Samarqand viloyat boshqarmasi», I-19-«Farg'ona viloyat boshqarmasi» arxiv fondlarida ham mavjud.

Xususan, arxivning I-48-«Buxoro Xalq Sovet Respublikasi» va I-17-«Sirdaryo viloyat boshqarmasi» jamg'armalarida Buxoro Xalq Sovet Respublikasi Nozirlar Kengashi Raisi Otaxo'jayev va Turkiston Avtonom Sovet Respublikasi Markaziy Ijroiya Qo'mitasining raisi I.Xidiraliyevlarning 1922 yilda turk xalqini inglizlarga qarshi kurashda erishgan g'alabasi bilan tabriklab, Turkiya Buyuk Millat Majlisi Raisi Mustafo Kamol (Otaturk) nomiga yo'llagan tabrik telegrammasi ham saqlanmoqda.

O'zbekiston Milliy arxivida saqlanayotgan R-2850 «Babaxodjayev Abdusamat Xanturayevichning» shaxsiy fondida ham mavzuga oid ma'lumotlar saqlanadi. Mazkur fond A.Babaxodjayevning Turkiya va RSFSR o'rtasidagi munosabatlar mavzusiga oid bir-kator ilmiy maqolalari mavjud bo'lib, ularda 1920-1923 yillardagi Sovet-Turkiya aloqalariga doir qimmatli ma'lumotlar mavjud.

Arxiv manbalarining ikkinchi turkumi xorijiy davlatlarda saqlangan hujjatlar bo'lib, ularning aksariyat qismi

Turkiya Respublikasining Usmoniylar imperiya tarixiy arxivida saqlanib qolgan.

Tadqiqot metodlari. Mazkur maqolada tari-xiylik, narrativ, qiyosiy tahlil uslublaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Mulohaza o'rinda aytish lozimki, O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi diplomatik aloqalar tarixiga oid O'zbekiston Milliy arxivi va Usmonlilar tarixiy arxivida saqlangan arxiv hujjatlarini aniqlash borasida Turkiya hukumati bilan hamkorlikda yirik loyiha amalga oshirilgan bo'lib, ushbu hujjatlar asosida alohida to'plam nashr etilgan. To'plamda O'zMA va Turkiya arxivlarida saqlanayotgan 113 ta hujjat nusxasi va ularning tavsifi berilgan bo'lib, ularning 89 tasi davriy jihatdan XVI-XIX asrlarga, 24 tasi XX asr boshlariga oid hisoblanadi[1].

Mavzuga oid O'zMA va Turkiya arxiv fondlaridagi hujjatlar "O'zbekiston Turkiya aloqalari" to'plamida nashr qilingan. Hujjatlarning aksariyati savdo-sotiq, diplomatik, iqtisodiy aloqalarga oid bo'lganligi uchun ham qimmatlidir. Bu masalalar O'zMA arxiv hujjatlarida o'z aksini topgan bo'lib, nafaqat O'zbekiston balki qo'shni davlatlar ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy munosabatlar tarixini o'rganishda ham muhim manba vazifasini bajarmoqda.

Mazkur arxiv hujjatlarida O'rta Osiyolik elchilar, ularni qabul qilish marosimi, ular tomonidan keltirilgan sovg'alar, ular orqali jo'natilgan hadyalar, haj ziyoratchilari, tijoratchilar, savdo sotiq va boshqa turli sohalaridagi hamkorlik masalalariga oid ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, birinchi jahon urushi davrida asrga tushgan turk askarlari, ularning Turkiston o'lkasidagi faoliyati, vatanlariga qaytish borasidagi urinishlari va boshqa ijtimoiy siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohaga oid hujjatlar mavjud.

Turkiyada Vazirlar Mahkamasi Davlat arxivlari umumiy mudirligi tomonidan ham O'rta Osiyo xonliklarining Usmoniylar davlati bilan o'zaro aloqalariga doir Usmoniylar arxivi hujjatlari to'plami bir necha bor nashr qilingan. Dastlabki tanlangan hujjatlar to'plami 1992 yilda nashr qilingan bo'lib "Usmoniylar davlati bilan Kavkaz, Turkiston va Qrim xonliklari o'rtasidagi munosabatlarga oid arxiv hujjatlari" [2] deb nomlanadi. Mazkur hujjatlar to'plamida XVII asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshlariga oid yuqori davlat organlari hukmdorlari o'rtasidagi yozishmalarni faksimilesi va zamonaviy alifbodagi shakllari berilgan.

2004 yilda Turkiya Vazirlar Mahkamasi Davlat Arxivlari umumiy mudirligi tomonidan "Hujjatlarda Usmoniy-Turkiston aloqalari. (XVI-XX asrlar)"[3] nomli to'plam nashr etildi. O'rta Osiyo xonlari va Usmoniy sultonlari o'zaro yozishmalaridan iborat 76 ta hujjat kiritilgan bo'lib, ular XVI-XX asrlarga o'g'dir. To'plamda asosan Buxoroga amirligining elchilik aloqalari, hukmdorlarning xatlari, sovg'alari, elchilarni ularni kutib olish marosimlari, O'rta Osiyodan kelgan hojilar, ularga ko'rsatilgan yordamlar haqidagi hujjatlar kiritilgan.

Markaziy Osiyo xalqaro tadqiqot instituti (IICAS) tomonidan ham uch tomdan iborat O'rta Osiyo xonliklarining Usmoniylar davlati bilan o'zaro aloqalariga doir uch tomdan iborat jami 300 dan ortiq hujjatlardan iborat to'plam nashr qilingan[4]. To'plamdagi hujjatlarni uch qismga bo'lish mumkin. 1. Siyosiy va diplomatik munosabatlar. 2. Ma'naviy-ma'rifiy aloqalar. 3. Ijtimoiy masalalarga oid hujjatlar. To'plamda arxiv hujjatlarining foto nusxasi va uch tildagi annotatsiyasi berilgan. Hujjatlar XVIII-XX asrning boshlariga o'g'dir. Unda Usmoniylar sultoni Abdulhamid I ning Buxoro amiri Doniyolbiyga yozgan javob xati, 1789 yilda Amir Shohmurodning Usmoniylar vaziriga yozgan xati, Xiva, Qo'qon xonlarining xatlari va boshqa ijtimoiy, madaniy sohalariga oid hujjatlar o'rin olgan.

Ta'kidlab o'tish lozimki, mavzuga oid arxiv hujjatlari nafaqat O'zbekiston va Turkiya respublikalari arxivlarida balki Rossiya arxivlarida ham saqlanib qolgan. Rossiya davlat

harbiy-tarix arxivining 439-"O'rta Osiyoga harbiy harakatlar", 400-"Bosh shtabning Osiyo bo'limi", 1396-"Shtab TurkVO", Rossiya Federatsiyasi davlat arxivining 102-"Politsiya Departamenti", Rossiya imperiyasi tashqi siyosati arxivining 133-"Kanselyariya", 89-"Rossiyaning Turkiya bilan munosabatlari", 90-"Konstantinopol missiyasi", 154-"Osiyo departamenti" fondlarida mavzuga oid ma'lumotlar mavjud. Mazkur fondlardagi hukmdorlar o'rtasidagi diplomatik yozishmalar, Turkiston general guber-natorligi xodimlarining, rus harbiylarining shuningdek, diplomatlarning rapotlaridan ham arxiv hujjati sifatida foydalanish mumkin.

Usmoniylar arxivlarida hujjat bu "belge" deb nomlanib, usmonli turkchasida "vasiqa" deb atalib "ishonchli dalil" degan ma'noni bildiradi. Usmoniylarda vasiqa bilan birgalikda "varaq" so'zining ko'pligi "yevraq" atamasi ham qo'llanilib, arxivlar "Xazinai yevrak"- deb nomlangan[5]. "Xazinai yevrak"lar asosan saroylarda saqlangan va birinchi marta 1850 yil "Xazinai yevrak" uchun maxsus bino qurilib, hujjatlarni tasniflash bo'yicha Nizom ishlab chiqiladi. Bugungi kunda Usmoniy davriga oid arxiv hujjatlari Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Arxiv mudirligiga qarashli Usmoniylar arxivi nomi bilan faoliyat olib bormoqda. Usmoniylar - O'rta Osiyo munosabatlari oid ma'lumotlar Usmoniylar arxividagi bir qator saroy tashki-lotlarining fondlarida ma'lumotlar saqlanmoqda[6].

A.DVN.NMH - Sadaret Divani Humayun Name-I Humayun- Asosan Tashqi ishlar vazirligi, elchixonalar orqali boshqa davlat rahbarlari tomonidan sultonga, shahzodalarga yuborilgan xatlar xorijiy davlatlar bilan tuzgan shartnomalar saqlanadi.

A.MKT.MHM - Sadaret Mektubi Kalemi Muhimme Evraki (Vazirning shoshilinch va muhim ishlar kanselyatsiyasi rahbarining fondi). Barcha rasmiy maxfiy, muhim va dolzarb vazifalarni bajaruvchi bo'limning fondi. Mazkur fondga qo'zg'olon, zilzila, chegara muammosi, urush, ocharchilik va aholi punktlari, xorijiy davlatlarning rasmiy organlardan ruxsat so'rash kabi muhim masalalarni qamrab oladi.

YEE. - Yildiz Esas Evraki -(Yulduz saroyining asosiy hujjatlari). Sultonlarini mahalliy va xorijiy davlat arboblari, elchilar bilan alohida suhbatlari, diplomatik munosabatlar, davlat boshqaruvi, sulolaga tegishli muhim masalalarga oid ma'lumotlar va shunga o'xshash muhim hujjatlar saqlanadi.

NAT - Hatti Humayun - sultonning shaxsan o'zi tomonidan yozilgan yoki muhim masalalarni qayd qilgan farmonlar saqlanadigan fond. Bunday farmonlar usmoniylarning bayrog'i ramzi bo'lgan qizil xaltalarda saqlangan.

HR.SYS - Tashqi ishlar vazirligining mazkur fondida, siyosiy, huquqiy va ma'muriy masalalar, qator, savdo shartnomalari, elchixonalar va konsulliklar bilan yozishmalar, qul savdosini taqiqlash, chegara masalalariga oid ma'lumotlarni o'z ichiga olgan.

Xulosa va takliflar. Shuni ta'kidlash joizki, XVIII asr oxiri-XIX asr o'rtalarida O'rta Osiyo xonliklarining Usmoniylar davlatida doimiy vakolatxonalari bo'lmagan uchun, davlatlar o'rtasidagi bu aloqalarda izchilik ko'zga tashlanmaydi. O'rta Osiyo elchilik aloqalari an'ana-lariga ko'ra, Usmoniylar davlatidan kelgan elchilarga ham elchi qo'shib jo'natilgan. Elchi yolg'iz qaytib kelgan taqdirda, aloqalar ma'lum muddat, ya'ni zarurat tug'ilganga qadar uzilib turgan. Nihoyatda mulozamat va mubolag'a bilan yozilgan maktub va sovg'a-salomlarni topshirishdan tashqari, mavjud siyosiy vaziyatdan xabardor bo'lish va uni o'rganish ham elchining zimmasida bo'lgan. Ayni vaqtda elchilar orqali oradagi munosabatlarni murakkablashishiga yo'l qo'ymaslik maqsadi ham nazarda tutilgan. Istanbulga ketayotgan O'rta Osiyo elchilari oldindan belgilangan rejaga ko'ra, Eron shohi qabulida bo'lishi, uni o'z vakolatidan ogoh qilishi, O'rta Osiyo davlatlari va Usmoniylar o'rtasidagi munosabatlarni

namoyish etishi lozim bo'lgan. O'rta Osiyo davlatlari hukmdorlari yuborgan elchilik yozishmalarida, odatda, elchi yuborishdan ko'zlangan asosiy maqsad atroflicha bayon etilmagan[7]. Ko'pchilik hollarda, maktub oxirida «qolgan gaplarni elchining o'zidan eshitursiz», deyilgan ibora kiritilgan. Bu, birinchidan, uzoq davom etgan safar davomida ikki oradagi munosabatlarga daxldor masalalar tafsilotidan uchinchi tomonning, ba'zan esa raqib tomonning ogoh bo'lib qolishi mumkinligini hisobga olib qo'llangan uslub bo'lsa, ikkinchidan, yuborilgan elchining vakolati yuksak ekanligiga ham ishora bo'lgan. Elchilik aloqalari va diplomatik yozishmalar haqidagi ma'lumotlardan shu narsa ko'rinadiki, Xiva xonlari tashqi siyosatga oid yozishmalarni davlat tili, ya'ni o'zbek tilida, Buxoro amirligi va Qo'qon xonligi fors tilida yozishgan. O'rta Osiyo hukmdorlari maktublari o'sha davrda urf bo'lgan diplomatik yozishmalar uslubida, sharqona lutfu ikrom bilan yozilgan. O'rta Osiyo hukmdorlari va

Usmoniylar sultonlari maktublari shundan dalolat beradiki, XVIII asrning oxiri-XIX asrning o'rtalarida ikki o'rtada elchilik aloqalari, diplomatik yozishmalari, madaniy aloqalar va savdo munosabatlari mavjud bo'lgan. Ular maktublarida xoh savdo aloqalarini xavf-xatardan himoya qilish borasida, xoh siyosiy bordi-keldilarni rivojlantirish sohasida bo'lsin, bu aloqalarning davom etishi ikki o'rtada saxovat va ittifoqning barqarorligiga xizmat qilishini ta'kid-lashadi, elchilik aloqalarining davlatlar do'stligi uchun xizmat qilishini eslatib, savdo yo'llaridagi qaroqchilikka barham berish uchun amaliy choralar taklif qilinadi. Bu yozishmalar O'rta Osiyo davlatlarining elchilik aloqalari tarixini tadqiq qilishda qimmatli manba hisoblanadi. Ularni arxiv hujjatlari bilan qiyosiy o'rganish elchilik aloqalar tarixida mavjud chalkashliklarni bartaraf etish uchun ahamiyatlidir.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Туркия алоқалари ҳужжатларда. -Истанбул. 2023.
2. Osmanli Devleti ile Kavkasya, Turkistan ve Krim Hanliklari arasindaki munasebetlere dair arxiv belgeleri. - Ankara. 1992.
3. Belgelerde Osmanli-Turkistan iliskileri (XVI-XX yuzyillar). -Ankara. 2004.
4. Osmanli belgelerinde Merkezi Asya tarihi. -Samarkand. 2012.
5. Бу ҳақида қаранг: Sertoglu Mithat. Arxivlerin dunu, bugunu, yarini // Osmanli arxivleri ve Osmanli arastirmalari sempozyumu. -Istanbul. 1985. S. 47; Uzuncarsili I. Osmanli devletinin Merkez ve Behriye teskilati. -Ankara.,1948; Sertoglu M.resimli Osmanli Tarihi Ansiklopedisi. -Istanbul.,1958;Cetin Atilla. Turkiye Buyuk Millet Meclisi Hukumeti nin Osmanli Devlet arsi ve Mugla Sadaret Evrakinin muhafazasi hakkinda aldigi kararlara ait bazi belgeler // Tarih Enstitusu Dergisi (1981-1982) , sayi 12. S.593-595.
6. Rakhmankulova, Z. (2020). The National library of Uzbekistan as a digital humanities Center In Uzbekistan. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2(10), 25-33.
7. Rakhmankulova, Z., Choriev, S., Yusupova, D., & Muminov, O. (2020). The Historiography Of The Relations Between Central Asian Khanates And Ottoman Empire In The 19 th And At The Beginning Of The 20 th Centuries. International Journal of Scientific and Technology Research, 9(2), 311-318.



UDK: 94:339(572.3)

Nurillo REJABBOYEV,
Namangan davlat universiteti dotsenti v.b., PhD
E-mail: rejabboyevnurillo@123.com
Shahobiddin DARIPOV,
CAMU – Xalqaro tibbiyot universiteti o'qituvchisi
E-mail: ulugyulduz89@mail.com

Renaissance university dotsenti, t.f.d D.Uralov taqrizi asosida

TEMIR YO'LLAR TIZIMIDA IJTIMOY HIMOYA MASALALARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada mustaqillik yillarida temir yo'llar tizimida amalga oshirilgan ijtimoiy islohotlar tahlil etilgan. Unda asosan, soha xodimlarini tibbiy himoya qilish, kam ta'minlangan oilalarga turli yordamlar, uy-joy va oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash hamda "Salomatlik" poyezdlarini tashkil etish kabi masalalar o'rin olgan.

Kalit so'zlar: "O'zbekiston temir yo'llari" DATK, ijtimoiy himoya, "Salomatlik" poyezdi, sog'likni saqlash, oromgoh, sanatoriya, dori-darmon, kiyim-kechak.

ВОПРОСЫ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ В СИСТЕМЕ ЖЕЛЕЗНЫХ ДОРОГ

Аннотация

В данной статье проанализированы социальные реформы, проведенные в системе железных дорог в годы независимости. В ней в основном рассматриваются вопросы медицинской защиты работников отрасли, оказания различной помощи малообеспеченным семьям, обеспечения жильем и продуктами питания, а также организация поездов «Здоровье».

Ключевые слова: «Узбекистон Темир Йуллари» ДАТК, социальная защита, поезд «Здоровье», охрана здоровья, санаторий, курорт, лекарства, одежда.

SOCIAL PROTECTION ISSUES IN THE RAILWAY SYSTEM

Annotation

This article analyzes the social reforms implemented in the railway system during the years of independence. It mainly covers issues such as medical protection for industry workers, providing various assistance to low-income families, supplying housing and food products, and organizing the «Salomatlik» (Health) trains.

Key words: "Uzbekistan Railways" JSC, social protection, "Salomatlik" train, healthcare, rest camp, sanatorium, medicines, clothing.

Kirish. Temir yo'llar xodimlarining ijtimoiy tibbiy himoyasi, uy-joy bilan ta'minlash mustaqillikning dastlabki yillarida muhim ustuvor vazifalardan biri bo'lgan. Iqtisodiy qiyinchiliklarga qaramay Buxoro temiryo'chilari shahri Kogonda qad ko'targan kottejlar temiryo'chilarga berilgan. Har biri ikki oilaga mo'ljallangan ushbu kottejlarining beshtasi egalarga berilgan [1]. 1995-yilning 18-sentabrda "O'zbekiston temir yo'llari" DATK raisi malakali tibbiy yordam ko'rsatish maqsadida ginekologiya sohasida bosh mutaxassisga bo'lgan zaruratni inobatga olgan holda, tizimda xizmat ko'rsatuvchi xodimlar uchun bosh ginekolog lavozimini joriy etishga ruxsat bergan [2]. Xodimlar mehnat va ish haqi masalasida esa ko'zlangan vazifa ijrosini ta'minlash maqsadida 1997-yilda mehnat unumdorligi, o'rtacha ish haqi miqdori har oyda tahlil qilinib, har chorakda hisob-kitob qilinib, ish natijalari umumlashtirilgan. 1997-yil uchun 21550 so'm ish haqi fondi ajratilgan bo'lsa, amalda 20944,1 ming so'm sarflandi, bu 97,2 foizni tashkil etgan. Yil davomida ish haqi fondidan 1542,7 ming so'm, shu jumladan, ishchilarga 1450,8 ming so'm, rahbar xodimlarga 13,2 ming so'm, mutaxassis va xizmatchilarga 54,7 ming so'm mukofot to'landi. Yillik va qo'shimcha ta'tillar to'lash, nafaqadan foydalanmaganlik uchun pul kompensatsiyasi 1638,7 ming so'mni tashkil etgan. Zararli mehnat sharoitlari uchun to'lama 295,6 ming so'mni, moddiy yordam jamg'armasi 1,1 ming so'm, shu davrdagi moddiy kechirim esa 41,0 ming so'mni tashkil etgan. Bundan tashqari, oziq-ovqat ta'minotining

yomonlashuvi munosabati bilan 1997-yildan boshlab buning uchun 1000 ming so'm miqdorda kompensatsiya to'langan. O'rtacha oylik ish haqi 7200 so'mni, yo'l montyolarining o'rtacha oylik ish haqi 8000 so'm mashinist va mexaniklarning oylik ish haqi esa 9000 so'mni tashkil etgan [5].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Temir yo'llar tizimida ijtimoiy himoya masalalarini o'rganishda arxiv hujjatlari va ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan maqolalar muhim manba sifatida xizmat qiladi. Ushbu adabiyotlar tahlili temiryo'chilar hayotida ijtimoiy himoya tizimining shakllanishi, rivojlanishi va takomillashuv bosqichlarini ochib beradi. Avvalo, "Temir yo'lchi" gazetasi sahifalarida (1995-yil 11-mart; 2002-yil 5-iyun, 12-iyul, 30-avgust, 4-oktabr) e'lon qilingan maqolalar [1] orqali temiryo'chilarning kundalik hayoti, ularning mehnat sharoitlari, ish haqining o'zgarish dinamikasi, pensiya, sog'liqni saqlash, dam olish imkoniyatlari va ijtimoiy imtiyozlari haqida muhim ma'lumotlar taqdim etilgan. Bu maqolalar ijtimoiy himoya masalalarining dolzarbligini yoritish bilan birga, temir yo'l tizimida olib borilgan islohotlarning ijtimoiy natijalarini ko'rsatadi. O'zbekiston Milliy Arxivi (O'zMA) fondlarida saqlanayotgan hujjatlar esa temiryo'l tizimida ijtimoiy siyosatni tashkil qilish va uni amalga oshirish mexanizmlari haqida keng ko'lamli tarixiy materiallarni o'z ichiga oladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Temir yo'llar tizimida ijtimoiy himoya masalalarini yoritishga qaratilgan mazkur maqolada ilmiy-tadqiqotning analiz, sintez, analogik tahlil kabi bir qator metod va usullardan samarali foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik masalasida 1997-yili yig'ilish yakunlari bo'yicha har oyda "Mehnatni muhofaza qilish kunlari" o'tkazilgan, mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik holatini monitorini olib borilgan. Yangi ishga qabul qilingan barcha xodimlar tegishli tibbiy ko'rikdan o'tib, tibbiy ma'lumotnomasi muddati o'tgan xodimlar oldindan ogohlantirilgan, ko'rikdan o'tish muddati o'tib ketgan shaxslar ishlashga ruxsat etilmagan. Xotin-qizlar va o'smirlar tomonidan mehnat qonunchiligiga rioya etilishi ustidan nazorat olib borilgan. Imkon qadar ayollar og'ir mehnatdan ozod qilingan. 1997-yil uchun jamoa shartnomasiga kiritilgan mehnatni muhofaza qilish bo'yicha tuzilgan shartnomaga asosan 2147570 so'mlik dori-darmonlar xarid qilinib, barcha sexlar zarur dori vositalari bilan ta'minlangan. Shuningdek, barcha xodimlar belgilangan meyorlarga muvofiq maxsus kiyim, maxsus shaxsiy himoya vositalari bilan ta'minlandi, buning uchun 55831,42 so'mlik maxsus kiyim-kechaklar, 35086 so'mga kir yuvish vositalari xarid qilingan. 1997-yilda mehnat sharoitlarini yaxshilash uchun 675 ming so'm mablag' ajratilib, murakkab ish kunlari uchun tekin oziq-ovqat mahsulotlari tarqatilgan [6].

Tizimda sog'liqni saqlash masalasiga ham alohida e'tibor qaratilgan. Iqtisodiy muammolar u yoki bu choralar ko'rishga majbur etgan. 2002-yilda «O'zbekiston temir yo'llari» DATK da 13962 nafar pensioner bo'lib, ularning 1252 nafari urush faxriylari, 1119 tasi mehnat fronti qatnashchilari va 108 nafari temiryo'l ishlariga jalb etilgan hamda 1080 kishi esa yolg'iz, kam ta'minlanganlardan iborat bo'lgan. Qariyalarning ijtimoiy himoyasi, moddiy va ma'naviy manfaatdorligini oshirishga e'tibor qaratildi. Misol uchun, dorishunoslik firmasi homiyligida «Salomatlik» tibbiy-sanitariya poyezdi tashkil etilib, Respublikaning chekka hududlariga uch marta safar uyushtirilgan. Unda 11 nafar malakali shifokorlar 493 nafar kasalga maslahat hamda ko'mak bergan va ularning 124 nafari keksalar, 93 nafari ayollar va 93 nafari esa bolalar bo'lgan. Nafaqadagi 490 nafar temiryo'lchiga eng kam ish haqi miqdorida moddiy yordam berilgan, sanatoriyalarga 133 ta, sanatoriya-profilaktoriyaga 345 ta bepul yo'llanmalar tarqatilgan, 8 nafar keksa temiryo'lchining tishlari bepul protez qilindi, 37 nafar qariyalarning aloqa xizmatlariga haq to'landi, 4 nafariga kvartira ta'mirlash uchun yordam berilgan. 10659 nafar pensionerlar oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlangan [3].

Ijtimoiy infrastruktura obyektlarini ta'minlashga kompaniya doim e'tibor qaratgan. Masalan, 2002-yil uchun shu sohaga 2,25 mlrd so'mga yaqin mablag' yo'naltirilgan [6]. Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati aholisi uchun "Navoiy - Uchquduq - Nukus" yangi yo'nalishi bo'yicha yo'lovchi poyezdlari ochilishi munosabati bilan bu yerda 48 xonalik yangi turar - joy binoda temiryo'lchilar hovli to'ylarini nishonlagan [4].

2002-yil davomida soha ishchilarga yetarlicha ish va maishiy sharoitlar yaratish, moddiy yordam, dam olishni tashkillashtirish masalalari atroflicha ko'rib chiqilgan. Ishchi - xizmatchi va ularning oila a'zolariga 256 ta yo'llanma tarqatildi, ularning 77 tasi dam olish uylariga, 83 tasi sanatoriyalarga, 96 tasi sanatoriya-profilaktoriyalarga yuborilgan. Shuningdek, bolalar oromgohlariga 159 ta yo'llanma, Mitrofanov nomidagi suzish havzasiga esa 220 abonement tarqatilgan. Keksalarga ajratilgan 27 yo'llanmaning 13 tasi bepul tarqatilgan va yil davomida sport tadbirlariga esa 587600 so'm sarflangan. Shundan 248000 so'mi ishchi-xizmatchilarning tog' bag'rida dam olishlariga sarflangan [8].

2002-yilda ijtimoiy soha obyektlarini ta'mirlash va saqlash uchun 9 mlrd so'm, kapital mablag'larni moliyalashtirishga esa 27 mlrd so'mdan ortiq mablag' sarflangan. Yo'lovchi tashishdan ko'rilgan 7,4 mlrd so'm zarar yuk tashishdan tushgan daromadlar hisobidan qoplangan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 14-avgustdagi qaroriga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi va Buxoro viloyatida «O'zbekiston temir yo'llari» kompaniyasi tomonidan 2 ta kollej qurish ko'zda tutilgan. 2002-yilning 1-sentabrida kompaniya tomonidan Toshkent viloyati Nazarbek posyolkasida 450 o'rinli kasb kolleji foydalanishga topshirilgan [9].

2004-yil 19-martdagi "O'zbekiston temir yo'llari" DAK buyrug'iga asosan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 27-yanvardagi "2004-yilni "Mehrmuruvvat yili" deb e'lon qilish to'g'risida"gi qarorini amalga oshirish, keksa avlod vakillari hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholiga bo'lgan e'tibor va g'amxo'rlikni kuchaytirish, temiryo'l xodimlari va kam ta'minlanganlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish, profilaktika ishlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida, "Jasliq-Qoraqalpog'iston" yo'l uchastkasidagi aholiga yordam ko'rsatish uchun mutaxassislar jo'natildi.

"Salomatlik" poyezdi tarkibiga 1 ta vagondizel elektr stansiyasi, 1 ta yotoqxona vagoni, 2 ta ambulatoriya vagoni va 1 ta florografiya vagoni kiritildi. Ushbu poyezd 2004-yil 23-29-mart kunlari mazkur hududlarda xizmat ko'rsatdi [7].

Shu kabi tadbirlardan yana biri 2004-yil 15-aprel kuni "Nukus-Xo'jayli-Qo'ng'iro't-To'rtko'l" yo'nalishida o'tkazilib, Orolbo'yi olis tumanlari aholisi tibbiy ko'rikdan o'tkazildi. 2004-yil 17-aprelga qadar "Salomatlik" poyezdi tuzilib, belgilangan hududlarga oziq-ovqat, dori-darmon va ixtisoslashgan tibbiy xizmat ko'rsatish uchun yo'lga qo'yildi. Poyezd tarkibida 1 ta dizel-elektr stansiya vagoni, 1 ta yo'lovchi vagoni, 2 ta ambulatoriya vagoni, 1 ta florografiya vagoni, 1 ta restoran vagoni va 1 ta yuk va bagaj vagoni bo'lgan. Poyezd 2004-yil 17-26-aprel kunlari joylarda xizmat ko'rsatdi.

Bundan tashqari, 2004-yilning 2-iyul kuni "SHo'rtan-Oltinugurt zavodi-Jayron" yo'nalishida keksa avlod vakillari, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlari va temiryo'l xodimlariga tibbiy ko'rik o'tkazilib, profilaktika ishlarini amalga oshirildi. "Salomatlik" poyezdi tarkibiga 1 ta florografiya va 1 ta dizel-elektr vagon ajratilgan bo'lib, tadbir 2004-yil 7-10-iyul kunlari o'tkazildi [4].

2004-yil 9-iyulda kompaniya tomonidan "Buxoro va Navoiy viloyatlarining olis tumanlarida aholining tibbiy ko'rikdan o'tkazilishi va sog'lomlashtirilishi"ga bag'ishlangan tadbir o'tkazildi. Shu munosabat bilan, 2004-yil 10-iyulgacha "Salomatlik" tibbiy-sanitariya poyezdi shakllantirildi. Sog'liqni saqlash vazirligi mutaxassislariga oziq-ovqat mahsulotlarini, "Ekosan" jamg'armasining gumanitar yuklarini Toshkentdan Buxoro va Navoiy stansiyalarigacha yetkazib berish ta'minlandi. Poyezd tarkibiga 1 ta yuk vagoni, 1 ta dizel-elektr vagon, 1 ta restoran vagoni, 1 ta yo'lovchi vagoni va 2 ta ambulatoriya vagoni kiritildi. Ushbu tadbir 2004-yil 10-20-iyul kunlari davom etdi. Umumiy xarajatlar 14 348,7 ming so'mni tashkil etdi.

2004-yil 28-iyulda DATKning "Uchquduq-2-Nukus" uchastkasida mehnat qilayotgan ishchilarning ijtimoiy himoyasini ta'minlash va "Temiryo'lchilar kuni" kasb bayrami munosabati bilan oziq-ovqat mahsulotlari va yordam paketlari tarqatildi. Buning uchun kompaniya va kasaba uyushmasi tomonidan 824 kishilik yuk xarid qilini, ro'yxat asosida taqsimlandi [3].

2004-yil 29-iyulda esa "Salomatlik" poyezdi "Qarshi-Termiz-SHo'rtan-Oltinugurt kombinati-Jayron" yo'nalishida keksa avlod vakillari, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi va temiryo'lchilarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish, ularni qo'llab-quvvatlash, malakali tibbiy xizmat ko'rsatish

maqsadida yo'lga chiqarildi. Poyezd tarkibiga 1 ta florografiya vagoni, 1 ta dizel-elektr vagon, 1 ta yuk vagoni, 1 ta poliklinika vagoni va 1 ta yotoqxona vagoni kiritildi. Tadbir 2004-yil 2–7-avgust kunlari amalga oshirildi.

2004-yil 23-iyun kuni DATK tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Ijtimoiy majmui hamda bolalarni sog'lomlashtirish va dam oldirish bo'yicha Respublika doimiy komissiyasining 2004-yil 27-maydagi qaroriga asosan, yoz mavsumida Orolbo'yi, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatidan 3000 nafar bola hamda ularni kuzatib boruvchi xodimlarni dam olish maskanlariga bepul olib borish va qaytarish uchun yo'lovchi vagonlar ajratildi. Xarajatlar to'liq kompaniya hisobidan qoplandi [9].

2004-yil 17-noyabrda "O'zbekiston temir yo'llari" DAKning "Uchquduq-2–Miskin" uchastkasida mehnat qilayotgan ishchilar uchun xayriya va insonparvarlik yordami ko'rsatilib, jamiyat tashkil topganining 10 yilligi munosabati bilan 911 kishilik oziq-ovqat mahsulotlari xarid qilinib, yetkazildi. Yuk vagoniga ortish va yetkazib berish ishlari kompaniya tomonidan moliyalashtirildi.

Orolbo'yi bolalari salomatligini muhofaza qilish maqsadida Qo'ng'iro't MTU qoshida sanatoriy-profilaktoriy tashkil etildi. Ushbu muassasada 2005-yilda 108 nafar, 2006-

yilda esa 250 nafar bola davolangan. 2006-yilda yana 350 nafar bolaning salomatligini tiklash rejalashtirilgan bo'lib, yil yakuniga qadar 280 nafar bola davolandi. Yozgi ta'til davomida temiryo'lichilar farzandlarini sog'lomlashtirish maqsadida beshta navbat bilan qabul tashkil etildi. Kompaniya rahbariyati tomonidan ajratilgan mablag' hisobidan Toshkent MTUga qarashli Bo'stonliq tumanidagi tog'li hududda joylashgan "Yangi avlod" bolalar oromgohiga 110 ta bepul yo'llanma xarid qilinib, Xorazm va Qo'ng'iro't temiryo'lichilari farzandlariga tarqatildi [7].

Temiryo'lichilar sog'ligini tiklash uchun poliklinika va kasalxonalardan tashqari, sanatoriy va profilaktoriylar ham faoliyat yuritmoqda. Masalan, "Nazarbek" va "Chimyon" sanatoriylarida fizioterapiya bo'limlari, sport zallari, igna, parafin bilan davolash xonalari hamda fitobarlar mavjud.

Xulosa va takliflar. Yuqorida keltirilgan dalillardan ma'lumki soha xodmilaridan tashqari kam ta'minlangan oilalar, boquvchisini yo'qotgan, chekka hududlardagi yordamga muhtojlarni ijtimoiy himoya qilish kompaniyaning asosiy faoliyatidan biri bo'lib kelgan. Uy-joy, oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, sanatoriyalarga dam olishga jo'natish ishlari ham muntazam amalga oshirilgan.

ADABIYOTLAR

1. Temir yo'ldi gazetasi // 1995-yil 11-mart.
2. O'zbekiston Milliy arxivi (O'z MA.) M.92-fond,1-ro'yxat, 42-ish, 179- varaq.
3. O'zbekiston milliy arxivi (O'z MA.) M. 37-fond, 1-ro'yxat, 6145-ish, 166-169 b.
4. O'zbekiston milliy arxivi (O'z MA.) M.92-fond,1-ro'yxat, 50-ish, 30-35- varaqlar.
5. O'zbekiston milliy arxivi (O'z MA.) M.92-fond,1-ro'yxat, 50-ish, 30-35- varaqlar.
6. O'zbekiston milliy arxivi (O'z MA.) M. 37-fond, 1-ro'yxat, 6145-ish, 166-169 betlar.
7. O'zbekiston Milliy arxivi (O'z MA.) M.92-fond,1-ro'yxat, 382-ish, 374-375- varaqlar.
8. O'zbekiston Milliy arxivi (O'z MA.) M.92-fond,1-ro'yxat, 383-ish, 181 -182-varaqlar.
9. O'zbekiston Milliy arxivi (O'z MA.) M-92. 1- ro'yxat, 21- ish, 10- varaq.



Sharifa TOSHOVA,
TIPU dotsenti v.b., PhD
E-mail: sharifaxon.tosheva@gmail.com

T.f.n N.Toshev taqrizi asosida

BUXORO JADIDLARI SOVET MAFKURASI BOSIMI OSTIDA: SADRIDDIN AYNII VA FAYZULLA XO'JAYEV ASARLARINING VERSIYALARI

Аннотация

Sovet hukumati targ'ibot-tashviqot va mafkura ishiga, xususan, inqilob tarixini yoritishga alohida e'tibor qaratib, bir qism kishilar tomonidan, qurol kuchi bilan amalga oshirilgan inqilobni go'yo butun xalq ommasining irodasi va ishtiroki bilan sodir bo'lganini dalillashga urindi. Maqolada bu jarayon Buxoroda jadidchilik harakati rahbarlari Sadriddin Ayniy va Fayzulla Xo'jaevlar Buxoro inqilobi tarixiga bag'ishlangan asarlarini qayta-qayta o'zgartirishga majbur bo'lishi misolida yoritiladi.

Kalit so'zlar: Jadid, inqilob, mafkura, Buxoro, Sadriddin Ayniy, Fayzulla Xo'jaev.

БУХАРСКИЕ ДЖАДИДЫ ПОД НАТИСКОМ СОВЕТСКОЙ ИДЕОЛОГИИ: ВЕРСИИ СОЧИНЕНИЙ САДРИДДИНА АЙНИ И ФАЙЗУЛЛА ХОДЖАЕВА

Аннотация

Советская власть, вкладывая много стараний в пропаганду и идеологию, в частности, в освещение истории революции, пыталась преподнести революцию, осуществленную группой людей силой оружия, как нечто такое, которое произошло по воле и при участии всего народа. В данной статье этот процесс освещается на примере сочинений по истории революции, созданных руководителями джадидского движения в Бухаре, – Садриддином Айни и Файзулла Ходжаевым, которые были вынуждены снова и снова вносить в них изменения.

Ключевые слова: Джадиды, революция, идеология, Бухара, Садриддин Айни, Файзулла Ходжаев.

BUKHARAN JADIDS UNDER THE ONSLAUGHT OF SOVIET IDEOLOGY: VERSIONS OF THE WORKS OF SADRIDDIN AINI AND FAIZULLA KHODJAEV

Annotation

The Soviet authorities, putting a lot of effort into propaganda and ideology, in particular, into the coverage of the history of the revolution, tried to present the revolution, carried out by a group of people by force of arms, as something that happened by the will and participation of the whole people. This article highlights this process on the example of the works on the history of the revolution created by the leaders of the Jadid movement in Bukhara, Sadriddin Aini and Faizulla Khojaev, who were forced to make changes in them again and again.

Key words: Jadids, revolution, ideology, Bukhara, Sadriddin Aini, Faizulla Khojaev.

Kirish. Ma'lumki, o'tmishning turli davrlarida yuz bergan siyosiy va mafkuraviy o'zgarishlar millat tafakkuri va madaniy taraqqiyotida chuqur iz qoldiradi. XX asr boshlarida Buxoroda sodir bo'lgan ma'rifatparvarlik va inqilobiy harakatlar hamda ularning natijasida yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy voqealar nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki milliy uyg'onish jarayonida muhim burilish yasab berdi. Mazkur inqilobiy jarayonlarning yoritilishida o'z davrining yetuk ziyolilari, xususan, Sadriddin Ayniy va Fayzulla Xo'jaevning tarixnavislik faoliyati alohida o'rin tutadi. Buning ustida, sovet davlatining o'zi omma uchun jozibali bo'lgan g'ayrioddiy bir mafkuraning mevasi sifatida paydo bo'lgani bois, yangi tuzumning afzalliklarini targ'ib qilishga tashabbus ko'rsatdi va tarixiy asarlarning buyurtmachisi bo'ldi. Zero, sho'ro tuzumining afzalliklarini targ'ib qilish barobarida o'tmishni xira va ayanchliroq tasvirlash ko'zlangan natija berishini bolsheviklar yaxshi angladilar.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu ilmiy maqolani tayyorlash jarayonida tarixiy-tahliliy, manbashunoslik va qiyosiy tahlil usullari asos qilib olindi. Sadriddin Ayniyning "Tarixi inqilobi fikriy dar Buxoro" hamda "Buxoro inqilobining tarixi" asarlari o'zaro qiyos va tahlil qilinib, muallifning g'oyaviy qarashlari, yondashuvlari va siyosiy ta'sirlar tufayli yuz bergan mazmun hamda uslubi o'zgarishlar o'rganildi. Maqoladagi yana bir muhim metodologik yondashuv – bu manbashunoslik tahlili bo'lib,

unda ikkala muallifning asarlarini tahlil qilish orqali inqilob haqidagi turlicha siyosiy qarashlar o'rganildi. Bundan tashqari, siyosiy-tahliliy yondashuv orqali Ayniy va Xo'jaevning inqilob, jadidchilik va ijtimoiy jarayonlarga munosabatidagi farqlar tavsiflandi. Ushbu tahliliy usul mualliflarning shaxsiy tajribasi, ijtimoiy mavqei va siyosiy bosimlar ta'sirida yozgan asarlarini tushinishda muhim o'rin tutadi.

Tahlil va natijalar. Buxoro Respublikasi hukumati o'zining ilk kunlaridanoq inqilobiy harakatlarni tarix sahifalariga muhrlashga sa'y-harakat ko'rsatdi. 1920-yil 24-sentabrda yangi tashkil topgan BXSr Maorif nozirligining birinchi majlisidayoq inqilob tarixini yozish uchun maxsus komissiya tuziladi. Tanlangan mualliflar orasida S.Ayniy ham bor edi [1]. Hukumat tomonidan yuklatilgan bu vazifani S.Ayniy qisqa fursatda bajarib, 1921-yilning mayida kitobni yozib topshirdi. Ayniyning bunday yirik asami qisqa muddatda yozib ulgurganining siri shundaki, u ikki yil muqaddam aynan shu mavzuga doir "Tarixi inqilobi fikriy dar Buxoro" ("Buxoroda fikriy inqilob tarixi") nomli kitobni tojik tilida ta'lif etgan edi. Yarim yil ichida mazkur asarning o'zbekcha qayta ishlangan variantini yaratgan Ayniy unga "Buxoro inqilobining tarixi" degan nom beradi. Bu haqda Ayniyning o'zi quyidagicha yozgan: "Men 1920-yil noyabridan 1921-yil mayiga qadar o'sha tojik tilidagi materiallarni o'zbekchalashtirib va oxirini to'ldirib, [19]20-yil

voqealari va inqilob g'alabasini unga kiritib berdim... SSSR xalqlari nashriyoti o'rtoq To'raqulov orqali bu qo'lyozmani Moskvaga so'ratib oldi, 1926-yilda [kitob] chop bo'lib chiqdi" [4].

Buxoro Respublikasi davlat nashriyoti "Buxoro inqilobining tarixi" asarini o'z vaqtida bosib chiqarmadi [3]. S.Ayniyning o'g'li K.Ayniy Buxoro inqilobi tarixini yozishga hukumat tomonidan avval buyurtma berilib, so'ng nashr etilmagani uchun F.Xo'jaevni aybdor deb biladi [7]. Ehtimol, bu fikrda ma'lum asos bordir. "Buxoro inqilobining tarixi"da, Yosh buxorolilarning islohot yo'lida amalga oshirgan muhim tadbirlarini yorituvchi boblarda muallif F.Xo'jaevning nomini umuman tilga olmagan. Yuqorida guvoh bo'lganimizdek, "Tarixi inqilobi fikriy dar Buxoro" "Buxoro inqilobining tarixi"dan biroz burun yaratilgan. Biroq Buxoro inqilobidan keyin ushbu tojikcha asarning qo'lyozmasi yo'qoladi va S.Ayniy uni izlab topishni o'g'li Kamoliddinga vasiyat qiladi. K.Ayniy Sovet Ittifoqi tarqalib ketgandan so'nggina qo'lyozmani arxivdan topishga muvaffaq bo'ldi. Bu asar 2003-yili Tehronda aslyatda [7], 2005-yili Dushanbeda kirill alifbosida chop etildi [8], 2007-yilda esa qo'lyozmaning faksimile nashri dunyo yuzini ko'rdi [9].

"Buxoro inqilobining tarixi" 1926-yili Moskvadagi "SSSR xalqlari markaziy nashriyoti"da arab imlosida nashr qilingan [2]. Nashrdan maqsad, jumladan, uning amaliy ahamiyati mazkur Nazir To'raqulovning so'zboshisida ochiq-oydin bayon qilingan: O'rta Osiyoning "har bir haqiqiy inqilobchisi" kitob orqali "Buxoro o'lkasida yoqindagina bo'lib o'tgan razolatlar" bilan tanishib, Afg'onistonda "sargardon yurib", imperialistlar homiyligida Yevropa matbuotida xitobnomalar bostirayotgan amirdan nafratlansin, "ma'naviy va axloqiy foyda" topsin [11].

Ma'lum mafkuraviy sabablarga ko'ra, asar katta qisqartirishlar bilan bosilgan. 1960-yillarda S.Ayniyning sakkiz jildlik tanlangan asarlari o'zbek tilida, kirill yozuvida nashr etilib, uning birinchi jildiga "Buxoro inqilobining tarixi" ham kiritildi [5: 181–349]. O'zR Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida asarning ikkita qo'lyozma nusxasi mavjud bo'lishiga qaramay, uning transkripsiyasi 1926-yilgi Moskva nashri asosida amalga oshirilgan. Mafkuraviy yondashuv oqibati o'laroq matn navbatdagi qisqartirishlarga duchor qilingan. Nihoyat, 2010-yilda mazkur institut qo'lyozmalar fondida 2125 va 36 ashyo raqamlari ostida saqlanayotgan nusxalari asosida "Buxoro inqilobining tarixi" asarining ilmiy-tanqidiy matni nashr etildi [10].

S.Ayniy jadidlarning keksa avlodiga mansub. Yuqorida qayd etganimizdek, u madaniy inqilob tarafdori bo'lib qoldi. Eron va Turkiya inqiloblari ta'sirida Buxoro jadidlari, jumladan, 1914–1915-yillarda chet ellarda o'qib qaytgan yosh jadidlar ham endi siyosiy talablarni kun tartibiga qo'ya boshladilar. Ayniqsa, 1916–1917-yillarda Ayniy bilan jadidlarning siyosiy fikrlarida, xususan, inqilob to'g'risidagi qarashlarida ixtilof borligini "Tarixi inqilobi fikriy dar Buxoro"da Ayniyning o'zi bir necha bor eslatadi. Masalan, Ayniy shu kitobning bir joyida quyidagi xotiralarini keltiradi: "Mening fikrim boshqa taraqqiyparvarlarning fikriga muxolif kelardi va shuning uchun ulur o'z tashabbuslarini mendan pinhon tutardilar. Ba'zilar meni qo'rqqoq va irodasiz derdilar, ba'zilar konservator, balki reaksioner deb atardilar. Bir kecha do'stlarimizdan birining uyida Buxoroda islohot va tanzim xususida suhbat borardi, har kim islohot haqida o'zining orzu va xayolini gapirardi. Faqir dedim: Agar hukumatning o'zi islohot boshida bo'lsa va mendan so'rasaki, Buxoro islohoti uchun nima qilish lozim? Men ikki narsa kerak derdim: Maktab! Jarida!" [7]. Suhbatdoshi Ayniyning fikriga qarshi chiqib, Buxoroda ra'iyatning ahvoli benihoya og'ir bo'lgan bir sharoitda siyosiy muammolarni yechish muhimligini uqtiradi: "Mamlakatning har go'shasida ra'iyat mushtipar, bir necha bedodgarning qo'lida giriftor, ziroat uchun suv yo'q, tijorat

uchun yo'l, tabobat uchun hakim, dorixona yo'q... Shu qadar muhim muammolarni bir tomonga yig'ib qo'yib, sizning maktab va gazetangiz atrofida aylanaylikmi?" [7].

Ayniyning Yosh buxorolilar bilan munosabatini ko'rsatuvchi bu va bunga o'xshash fikrlar "Buxoro inqilobining tarixi"da keltirilmaydi. Masalan, "Buxoro inqilobining tarixi"da "Tarixi inqilobi fikriy dar Buxoro"dagi F.Xo'jaev haqida bildirilgan ushbu fikrlar tushirib qoldirilgan: "Fayzullaxo'ja marhum Ubaydullaxo'janing o'g'lidir. Yosh bo'lishiga qaramay (taxminan 20 yoshda), tijorat ishida mahorat hosil qilgan edi. Buxoro inqilobi va islohotchilik harakatida molu jonini xatarga qo'yib, hamisha oldingi safda turdi. Afsuski, yoshligi va tajribasizligi tufayli katta xatolarga yo'l qo'ydi hamda umumiy mahviyat va parokandalikka sababchi bo'ldi. Agar bu falokatlardan ibrat olgan bo'lsa va o'z harakatlarini aql bilan mantiqning to'g'ri yo'lga solsa, muvaffaqiyatlari kutilgandek bo'ladi, yo'qsa, har kuni yangi fojeani keltirib chiqarajak" [7].

Ikki asar orasidagi farqlarni ko'rsatuvchi bu kabi misollarni ko'plab keltirish mumkin. Xulosa shuki, "Buxoro inqilobining tarixi"da sovet mafkurasining ta'siri sezilib turadi. Ayniyning dunyoqarashidagi bu majburiy o'zgarishning o'zi ham o'sha davr ruhini tushunish uchun ahamiyatga molik. 1920–1921-yillarda, ya'ni Buxoroda sovet tuzumi o'rnatilishining dastlabki yillarida yaratilgan "Buxoro inqilobining tarixi" asarida Ayniy davr sharoiti va talabini hisobga olib, 1918-yilda yozgan ba'zi fikrlarini tushirib qoldirgan yoki ba'zi bir ma'lumotlarni qo'shish bilan cheklangan bo'lsa, o'ttizinchi yillardagi dahshatli qatag'onlarga guvoh bo'lganidan so'ng, 1940-yilda yozgan "Qisqacha tarjimai holim" nomli kitobida u ilgari aytgan fikrlarining butkul aksi bo'lgan yoki ularni inkor qiladigan mulohaza va ma'lumotlar yozishga majbur qolgan. Masalan, Ayniy "Buxoro inqilobining tarixi" asarida 1910-yilda tashkil etilgan Buxoro jadidlarning "Tarbiyai atfol" nomli yashirin jamiyati faoliyatiga yuksak baho berib, "Yashirin jamiyat Buxoroning ilmiy, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy inqilobig'a boshlab xizmat qildig'i sababli buyuk tarixiy ahamiyatga molikdir" [10], deb yozgan bo'lsa, "Qisqacha tarjimai holim"da bu jamiyatning ishlarini butkul yo'qqa chiqaradi. Maxfiy jamiyatning maqsadi va talablari amirlikda boshqaruvni ma'lum bir tartibga solish, saroyini, maktab va madrasalarni isloh qilish, yer solig'ini qayta ko'rib chiqish kabi tor doiradagi masalalardan iborat bo'lganini hamda ular aytarli biror natijaga erisholmaganini yozib, o'z fikrini quyidagicha xulosalaydi: "Bizning "Maxfiy jamiyatimiz" nima ish qildi? Afsuslanib iqror bo'lish kerakki, u ham biror ish qila olmadi" [6].

1926-yilda Buxorodagi inqilobiy harakatning rahbarlaridan biri bo'lgan va o'sha vaqtda BXSR raisi vazifasini egallab turgan F.Xo'jaevning "Buxoro inqilobining tarixiga materiallar" nomli asari o'zbek tilida, arab yozuvida va qisman rus tilida nashr etilgan [14]. Kitobning muqaddimasida muallif "bo'lib o'tgan voqealarga birmuncha ravshanlik berish" va "ko'z oldida sodir bo'lgan inqilobiy harakatlarga baho berish" maqsadida ushbu asarni yozishga jazm etganini qayd qiladi. F.Xo'jaevning yangi tashkil etilgan davlatning rahbari sifatida mamlakatda siyosiy tanglik hukm surgan, iqtisodiy muammolarni hal etish, xalq xo'jaligini tiklash, qonunchilik, qurilish, maorif, madaniyat sohasida ishlarni tashkil etish, kadrlar tayyorlash kabi dolzarb masalalar bilan band bo'lishiga qaramay, uni jadidchilik va inqilob haqida kitob yozishga undagan sababni markazda sinfiylik siyosatining tobora kuchayib borayotgani bilan izohlash mumkin.

Davr talabi bilan F.Xo'jaev Yosh buxorolilarning sinfiy tarkibi va inqilobning harakatlantiruvchi kuchlari xususida yozganda o'z asarini ko'proq mafkura asosida, bir yoqlama yoritishga majbur edi. Hatto asarning muqaddimasida

u S.Ayniyning “Buxoro inqilobining tarixi” kitobiga munosabat bildirib, asarning qimmatli materiallarga ega ekanligini e’tirof etish barobarida, Ayniy jadicchilikka noto’g’ri baho berish va uni bolshevizm bilan tenglashtirishda, jadicchilikning ichki dinamikasini ochib bermaganlik va Yosh buxorolilar harakati bilan jadicchilikni aralashtirib yuborganlikda ayblaydi [14]. F.Xo’jaevning egallab turgan mansabi, shu bilan bog’liq mas’uliyati va qaltis siyosiy vaziyatdan xabardorligidan kelib chiqilsa, u K.Ayniy o’ylaganidek shaxsiy g’araz orqasida emas, ko’proq ehtiyotkorlik yuzasidan Ayniy asarining nashriga yo’l bermagan va qaysidir ma’noda o’z asariga Ayniyning kitobiga o’ziga xos javob va muqobil sifatida qaragan bo’lishi mumkin.

Ayniy Buxoroda jadicchilik harakati tarixining 1910-yildan 1917-yilgacha bo’lgan bosqichini batafsil qalamga olgan bo’lsa, F.Xo’jaev bu davrni qisqacha yoritib, asosiy diqqatini 1917–1920-yillardagi siyosiy harakatlar, jadiclar orasidagi bo’linish, inqilobiy Yosh buxorolilar partiyasining tashkil topishi, Yosh buxorolilar kommunistik guruhining shakllanishini yoritishga qaratadi. Bunda asosiy diqqat Kolesov voqeasidan keyin Buxoroda sinfiy kuchlar tarkibida tub o’zgarishlar bo’lgani, ilgari inqilobning markaziy harakatlantiruvchi kuchi bo’lgan savdo kapitali sarmoyasining vakillari – savdogarlar, ijarachilar, baqqollar, sudxo’rlar xususiy mulklaridan ajralib qolishdan cho’chib chetga chiqib qolgani, aksincha, ilgari islohotchilikka befarq bo’lgan xalq ommasi, ayniqsa, dehqonlar va qo’shin orasida amir hukumatidan norozilik kuchaya borganini isbotlashga qaratiladi. “Buxoroning o’z muhiti, o’z-o’zidan paydo bo’lgan xo’jalik ahvoli ommani g’alayonga keltirdi. Va buning uchun badbaxt jadiclarning va Yosh buxorolilarning hech bir tashviqotlari kerak emas edi”, deb yozadi F.Xo’jaev [14]. Shuningdek, u jadicchilikning vujudga kelish sabablari haqida to’xtalib, quyidagicha ma’lumot beradi: “Buxoro jadicchiligi dehqonlar va mayda savdogarlarga tushadig’an soliq og’irliklarini yengil qilish ham soliq ishlarini umumiy tartibga solish to’g’risida ochilgan gapdan boshlab, tadrijiy suratda ... haqiqiy bir yashirin jamiyatga aylana bordi” [14]. Holbuki, Buxoroda ham, Turkistonda ham jadiclar dastlab maktab va madrasalarni isloh qilish taklifi bilan chiqib, keyinchalik iqtisodiy va siyosiy talablarni ilgari surganlariga F.Xo’jaevning shaxsan o’zi guvoh edi.

Asar nashr etilishi bilanoq G.Turkestanskiy tomonidan tanqid etildi. U F.Xo’jaevni Buxoro inqilobining sinfiy mohiyatini buzib ko’rsatganlikda, ya’ni uning burjua demokratik inqilob bo’lganini e’tirof etmaganlikda, jadicizmni kommunizmga o’xshatishga uringanlikda ayblaydi [13]. Shundan so’ng F.Xo’jaev O’zbekiston Kommunistik partiyasining III s’ezdida bayonot berib, jadicizmni ideallashtirish masalasida o’zi yo’l qo’ygan “xato”ga iqror bo’ladi va “ziyolilarga munosabat masalasida Markaziy

Komitetning siyosatini to’g’ri deb hisoblab kelgani va bundan buyon ham to’g’ri deb hisoblashini” bildiradi. Xo’jaevning bu bildirishi 1927-yilda “Kommunisticheskaya misl” jurnalida chop etiladi [17].

Bu tanqid va tahdidlardan keyin F.Xo’jaev o’z asarini qayta ishlab, 1932-yilda uni “Buxorodagi revolyutsiya va O’rta Osiyoning milliy chegaralanishi” nomi bilan nashr ettirdi [18]. Natijada asar oldingisiga nisbatan yanada mafkuraviylashtirildi. Buni kitob materiallari bilan tanishgan ko’plab tadqiqotchilar e’tirof etishgan. Jumladan, olmoniyalik tadqiqotchi Reynxard Ayzener F.Xo’jaevning “Buxorodagi revolyutsiya va O’rta Osiyoning milliy chegaralanishi” asarining kuchli mafkuraviy konformizm bilan xarakterlanishini ta’kidlagan [12]. F.Xo’jaevning o’zi so’zboshida asarning “Buxoroning sotsial strukturasi”, 1917-yilga qadar jadiclar faoliyati, 1917-yildan keyingi davr voqealari hamda asarning xotima qismiga o’zgartirishlar kiritganini qayd etgan. Bu yerda o’sha o’zgartirishlarga bir-ikki misollar keltirish bilan cheklanamiz. Asarning birinchi nashrida diniy ulamo Buxoro aholisining 3% tashkil qiladi [14], deyilgan bo’lsa, ikkinchi nashrda bu son 1% ga tushirilgan. Buxorodagi yarim proletar unsurlar: hammollar, suvchilar, tikuvchilar va har xil ixtisosdagi kustarlar soni 10 mingdan ortiq edi [14], deyilgan bo’lsa, ikkinchi nashrda ularning soni bir necha o’n ming kishiga yetar edi [19], degan ma’lumot beriladi.

Xullas, tarixchilar ma’lum bir siyosiy bosim ostida ijod qilishga majbur edilar. Tarixiy voqealarni xolis tahlil etish imkoni yo’q edi. Yaratilgan har bir asar bir necha bor senzurdan o’tib, “tahrir qilingan”, “tuzatilgan” va “to’ldirilgan” holda nashr qilingan. Tadqiqotchilar uzoq yillar davomida shu nuqsonli nashrdan foydalanishga majbur edilar. Faqatgina mustaqillikdan so’ng, aniqrog’i, 1996-yilda O’zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi Fayzulla Xo’jaevning 100 yilligini nishonlash haqida qaror qabul qilgach, O’zR FA Tarix instituti xodimlari tomonidan “Buxoro inqilobining tarixiga materiallar”ning allaqachon kamyob kitobga aylanib qolgan arab grafikasidagi birinchi nashri asosida krill yozuviga o’girilib, nashr etildi [20].

Xulosa. Sadriddin Ayniy va Fayzulla Xo’jaevning Buxoro inqilobi haqidagi asarlari inqilobiy voqealarni yoritishda bir-birini to’ldiruvchi muhim tarixiy manbalardir. Ayniy o’z asarlarida tarixiy hodisalarning ijtimoiy-ruhiy sabablari va oqibatlariga urg’u beradi. Fayzulla Xo’jaevning asarlari, xususan uning chiqishlari, siyosiy nutqlari va maqolalarida Buxorodagi inqilobiy harakatlarning tashkiliy, siyosiy va strategik tomonlari chuqur yoritilgan. Xo’jaev voqealarga bevosita rahbarlik qilgan shaxs sifatida tarixiy jarayonlarga siyosiy faollik va konkret amaliy yondashuv nuqtayi nazaridan baho beradi.

ADABIYOTLAR

1. Adeeb Khalid Nation into History: The Origins of National Historiography in Central Asia // Stéphane A. Dudoignon (ed.). Devout Societies vs. Impious States? Transmitting Islamic Learning in Russia, Central Asia and China through the Twentieth Century. Berlin, 2004.
2. Айний С. Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар. Москва, 1926.
3. Айни С. Мухтасари таржимаи ҳоли худам // Айни С. Куллийет. Жилди 1. Душанбе, 1958.
4. Айни С. Жавоби ман // Айни С. Куллийет. Жилди 11, китоби якум. Душанбе, 1963.
5. Айний С. Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар // Айний С. Асарлар. 1-том. Тошкент, 1963. Б. 181–349.
6. Айний С. Қисқача таржимаи ҳолим // Айний С. Асарлар. 1-том. Тошкент, 1963. Б. 17–104. Б. 17–104.
7. Айни С. Тарихи инқилоби фикри дар Бухоро / Бо муқаддимаи аз Камолиддин Садриддинзода Айний. Техрон, 1381 х.ш. [2002 милодий].
8. Айни С. Таърихи инқилоби фикри дар Бухоро // Садриддин Айни. Куллийет. Жилди 14. Душанбе, 2005.
9. Айни С. Таърихи инқилоби фикри дар Бухоро. Нашр: акси нусхаи асл бо хатти муаллиф с. 1918 // Айни С. Куллийет. Жилди 15. Душанбе, 2007.
10. Айни С. Бухоро инқилобининг тарихи // Нашрга тайёрловчилар: Шимада Шизуо, Шарифа Тошева. Токио, 2010.
11. Назир Тўракул ўғли. Сўзбоши // Садриддин Айний. Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар. Москва, 1926. Б. 3–5.

12. Рейнхард А. Бухара в 1917 году // Восток, 1994, № 4. Б. 141.
13. Туркестанский Г. Об одном историческом документе // Коммунистическая мысль. Ташкент, 1926, № 2. Б. 136–148; Шу муаллиф. Кто такие джаиды // Коммунистическая мысль. Ташкент, 1926. Б. 11–22.
14. Хўжаев Ф. Бухоро инкилобининг тарихига материаллар. Самарқанд–Тошкент, 1926.
15. Ходжаев Ф. О младо-бухарцах // Историк-марксист. 1926, №1. Б. 123–141.
16. Ходжаев Ф. Джаиды // Очерки революционного движения в Средней Азии. Б. 5–12.
17. Ходжаев Ф. Справка и ответ // Коммунистическая мысль. Ташкент, 1927, № 3. Б. 153–161.
18. Ходжаев Ф. К истории революции в Бухаре и национального размежевания Средней Азии. Ташкент, 1932.
19. Хўжаев Ф. Танланган асарлар. Уч томлик. Т. I. Тошкент, 1976.
20. Хўжаев Ф. Бухоро инкилобининг тарихига материаллар / Д.А. Рашидова нашри. Тошкент, 1997.



UDK: 9.94

Salohiddin USMONOV,
Samarqand davlat universitetining Urgut filiali katta o'qituvchisi
E-mail manzili: usmonovsalohoddin1@gmail.com

Farg'ona davlat universiteti dotsenti B.Mirzaraximov taqrizi asosida

ROSSIYA IMPERIYASINING TURKISTONDAGI MILLIY MAORIF SOHASIDAGI SIYOSATI VA UNING AMALGA OSHIRILISHI

Annotatsiya

Ushbu maqolada 1910-yildan keyingi Markaziy Osiyo xalqlari hayotida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-mafkuraviy o'zgarishlar chuqur tahlil qilinadi. Ayniqsa, xalq maorifi sohasidagi o'zgarishlar, an'anaviy eski maktablarning bosqichma-bosqich yopilishi va yangi zamonaviy ta'lim tamoyillariga asoslangan jadid maktablarining vujudga kelishi muhim masala sifatida ko'rib chiqiladi. Jadidchilik harakati, uning ilg'or namoyandalari, g'oya va dasturlari, hamda ularning xalq ongini uyg'otishdagi roli yoritiladi. Shuningdek, maqolada o'sha davr muallimlarining faoliyati, ta'limga bo'lgan yondashuvi, milliy uyg'onish g'oyalari bilan uyg'unligi ham ilmiy asosda yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: Eski maktablar, Buxoro, Ta'lim tizimi, Jadidchilik harakati avj olishi, madrasa, maktab, usuli jadid.

THE POLICY OF THE RUSSIAN EMPIRE IN THE FIELD OF NATIONAL EDUCATION IN TURKESTAN AND ITS IMPLEMENTATION

Annotation

This article provides a detailed analysis of the socio-political, economic, and spiritual-ideological changes that took place in the lives of the Central Asian peoples after 1910. Special attention is given to transformations in the field of public education, particularly the gradual closure of traditional old schools and the emergence of new Jadid schools based on modern educational principles. The activities of the Jadid movement, its prominent figures, ideas, and programs, as well as their role in awakening public consciousness, are thoroughly explored. Furthermore, it scientifically discusses the role of teachers of that era, their educational methods, and their connection with the ideas of national awakening.

Key words: Old schools, Bukhara, Education system, rise of the Jadid movement, madrasa, school, Jadid method.

ПОЛИТИКА РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ В ОБЛАСТИ НАЦИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ТУРКЕСТАНЕ И ЕЕ РЕАЛИЗАЦИЯ

Аннотация

В данной статье подробно анализируются социально-политические, экономические и духовно-идеологические изменения, произошедшие в жизни народов Центральной Азии после 1910 года. Особое внимание уделяется трансформациям в сфере народного просвещения, постепенному закрытию традиционных старых школ и формированию новых джадидских учебных заведений, основанных на современных принципах образования. Освещается деятельность джадидского движения, его ведущих представителей, идеи и программы, а также их роль в пробуждении народного сознания. Кроме того, в статье научно обоснованно раскрывается деятельность учителей того времени, их подход к образованию и связь с идеями национального возрождения.

Ключевые слова: Старые школы, Бухара, Система образования, Расцвет джадидского движения, медресе, школа, метод джадид.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2024-yil 19-iyulda qabul qilingan "Siyosiy qatag'on qurboni bo'lgan yurtdoshlarimiz hayoti va faoliyatini o'rganish, targ'ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni kengaytirish" to'g'risida qarorining asosiy maqsadi hozirgi murakkab va tahlikali davrda mustaqilligimizni har tomonlama mustahkamlash, tariximizning noma'lum sahifalarini tiklash va ilmiy nuqtai nazardan chuqur o'rganish, inson, uning huquq va erkinliklarini oliy qadriyat sifatida e'tirof etish, shu asosda yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yosh avlodning vatan taqdiri va kelajagiga daxldorlik tuyg'usini, fuqarolik pozitsiyasini kuchaytirish, ularni bugungi tinch, erkin va ozod hayotning qadriga yetish ruhida tarbiyalashdir. Bugungi kunda jadidchilik harakati o'rganish va uning ilg'or tajribalarini keng hayotimizga hamda ta'lim tizimi oldidda turgan muammolarni hal etishga qaratish barkamol avlodni tarbiyalashda asosiy vositalardan biri bo'lib qolmoqda[1].

O'zbekistonning davlat mustaqilligiga erishishi uning tarixiy taraqqiyotida tub o'zgarishlarga olib keldi, milliy

uyg'onish va milliy qadryatlarni tiklashga keng yo'l ochdi. Bu sohada bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar ham anchagina ekanligini Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" asarida ta'kidlaganligi bejiz emas: "Tarix xotirasi, xalqning, jonajon o'lkaning, davlatimiz hududining xolis va haqqoniy tarixini tiklash milliy o'zlikni anglashni, ta'bir joiz bo'lsa, milliy iftixorni tiklash va o'stirish jarayonida muhim o'rin tutadi. Tarix millatning haqiqiy tarbiyachisiga aylanib bormoqda. Buyuk ajdodlarimizning ishlari va jasoratlari tarixiy xotiramizni jonlantirib, yangi fuqarolik ongini shakllantirmoqda. Axloqiy tarbiya va ibrat manbasiga aylanmokda". Tarixiy ongni tubdan tozalash, o'tmish tajribasidan kelib chiqib mustaqil O'zbekistonning ma'naviy asoslarini mustahkamlash ushbu vazifani muvaffaqiyatli hal etishning asosi hisoblanadi. "Ma'naviyat va ma'rifat jamiyatimiz, xalqimiz kamolotining bosh omillaridan ekan, biz bu sohaga davlat miqyosida g'amxo'rlik qilishimiz, sharoit tug'dirishimiz shart" deb yozganida Prezidentimiz I.A.Karimov benihoya haq edi.

Totalitar tuzum davrida O'zbekistonning haqiqiy tarixini yaratish imkonsiz bo'lib, muammolarni o'rganish doirasi va ularning manbalari qat'iy chegaralangan edi, tarixiy voqealarga haqqoniy baho berish mumkin bo'lmay, dogmatik yondoshish hukm surardi. Respublikamiz Prezidenti Islom Karimov 1998-yil 26-iyunda tarixchi olimlar bilan uchrashuvida tarix fani taraqqiyotining yangi yo'nalishlarini belgilab berdi, tarixning xalq, mamlakat, inson, millat taqdiridagi o'rni, mohiyati va vazifasiga tamomila yangicha bir nazar tashladi, yangicha nuqtai nazarlarini bayon etdi. "Ahvol shu darajaga borgan ediki, - deb ta'kidladi Prezident I.A.Karimov,- o'z tariximizni o'zimiz yozish huquqidan mahrum bo'lib qoldik. Birovlar tomonidan yaratilgan tarix darsliklarini o'qir edik. "SSSR tarixi" deb atalgan darslikda O'zbekistondagi mamlakatga bor-yo'g'i 3-4 sahifa o'rin berilib, tarixiy voqealar va shaxslar haqida noxolis fikrlar aytilar yoki umuman lom-mim deyilmasdi. Fandagi bunday soxtakorlik, ko'zbo'yamachilikni bugun eng olis qishloqlarda yashayotgan oddiy fuqaro ham, maktab o'quvchisi ham yaxshi biladi. Endi, mustaqillik tufayli yaqqol namoyon bo'layotgan tarixiy haqiqatni bilishga, o'zligini anglashga chanqoqlikni tub sabablari mana shunda deb o'ylayman. Mustaqillikka erishilgandan keyin tarix fani totalitar tuzum g'oyaviy zanjirlaridan xalos bo'ldi, Tarixiy haqiqatni qaror toptirish yo'lida katta ishlar amalga oshirilmoqda. Lekin ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilinishi lozim bo'lgan sahifalar hali anchagina. Bugungi tarix fanida qarama-qarshiliklarga to'la bo'lgan 20-30-yillarda respublikamizda xalq ta'limi tizimini shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari, o'sha murakkab davrda milliy o'qituvchilar tayyorlash tajribasini o'rganish vazifasi markaziy o'rin tutmoqda.

XIX asrning boshlariga kelib Turkistonda islom dini keng tarqalib, mustahkam o'rnatilib o'z mavqeiga ega edi. Bu davrga kelib diniy e'tiqod asosiy tarbiya kuchi sifatida maydonga chiqdi. Islom dini murakkab ta'limot bo'lganligidan u turlicha talqin qilina boshladi. Islom dinida turli xil oqimlar vujudga kela boshladi. Bu holat islom dinini sofliigi uchun kurashuvchi ilg'or kishilarni qoniqtirmas edi. Shuning uchun ham Buxorodagi ma'rifatparvarlar, musulmon ruhoniylar va ziyolilar orasida madrasa va maktablar tizimiga hamda islom diniga kirib qolgan bid'atlarni isloh qilish fikri paydo bo'la boshladi. Shunday islohot tarafdorlarini jadidlar, ya'ni yangilik tarafdorlari deb atay boshladilar.

"Jadid" – so'zi arabcha so'z bo'lib, "yangi", jadidizm esa yangilik tarafdorlari degan ma'noni anglatadi.

XIX asrning o'rtalarida Turkiston o'lkasida boshlang'ich ma'lumot beradigan maktab hamda o'rta va oliy diniy ta'lim beradigan madrasalar mavjud edi. Maktablarning aksariyati, shu jumladan, qishloq maktablarining ko'pchiligi diniy ta'lim beruvchi eng oddiy boshlang'ich maktablar edi. Bu maktabda machitlarning imomlari, savodxon mullalar dars berardilar. Bunday maktablarda o'qitish eng oddiy diniy vazifalarni o'rgatish bilan, ya'ni arab tilida yozilgan Qur'onni o'qishni o'rgatish, har bir musulmon uchun zarur bo'lgan asosiy vazifalarni bildirish bilan cheklanar edi. Shahar maktablarida diniy ta'limotdan tashqari, umumiy ta'lim elementlari – yozish va hisoblash yo'llari o'rgatilar edi. Shahar maktablarida o'quvchilar soni 20-30-taga qishloq joylarida esa 10-15 taga yetar edi. O'qishga 6 yoshdan qabul qilinib, o'zlashtirishiga qarab 17-18 yoshlarigacha davom etardi. Maktabda avval "Haftiyak", keyin "Qur'on" yod olinar, so'ng "Chor kitob"ga o'tilardi[5].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Shu kungacha Ta'lim tizimiga oid juda ko'plab maqolalar, chop etilgan. Boymirza Xayitov "Turkustonda jadidchilik va uning tugatilishi" – gazitasining 1-sonida chop etilgan maqolasi, T.N. Qori – Niyoziy sovet O'zbekiston madaniyati tartixidan ocheriklaridan ham foydalanilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Hozirgi vaqtda yangi tendensiyalar yangi yo'nalishlar paydo bo'lmoqda. Shu kungacha juda ko'p tarixchilar tomonidan O'zbekistonda ta'lim sohasida juda ko'p disertatsiyalar yozilgan. Choriev Ahmad Xuvaevichning fikriga ko'ra XX-asrning 20-yillarida Samarqandda ta'lim tizimi yaxshi darajada rivojlanmagan edi. Maqsadli davlatning rivojlanishi uchun asosan ta'lim tizimiga e'tibor beradi deyiladi.

Tahlil va natijalar. Yuqorida takidlangandek rivojlanayotgan davlatlar asosiy e'tiborni ta'lim tizimiga qaratadi shuni hisobga olgan holda maqolaning natijasi asosan XX-asrning 20-yillarida Samarqanddagi ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlarni ko'rish mumkin.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda XX-asrning 20-yillarida Samarqandda ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlarni ko'rish mumkin. XX-asrning 20-yillarida Samarqandda ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar keng ko'lamli natijalar berganligini va eski maktablarni tugatilib jadidmaktablarida yangi uslda o'qitila boshlagan bunda diniy ta'limotlar bilan birgalikda dunyoviy fanlar o'qitila boshladi.

Asrimizning boshlarida Turkistonda boshlangan "rus - tuzem" maktablarda mahalliy millat bolalariga dunyoviy bilimlar o'rgatila boshlandi mazkur maktablarni taraqqiyparvarlarning xizmatlariga ko'z yumish insofdan emas afsuski bu o'rinda ham tegadigan nozik bir xolat bor "Населения" degan Ruscha o'zbekcha lug'atda "Maxalliy xalq" "tub axoli" deb tarjima qilingan shundan so'ng biron bir mamlakat odamiga "tuzem slev" xadiya etish usha shaxsni o'z fuqorolariga qabul qilib birga xuquqlarni berish demakdir deb talqin qilinadi. Oq podshox oliy xazratlari Turkiston o'g'lonlaridan bir umirga ilim berishga qaror qilganlar.

Xatto ular o'z panoxlariga xam olganlar. Biroq shunday xaqli savol tug'uladi:

Nima uchun mazkur maktablar aynan "русско – туземная школа" deb atalgan?

Mixluxo Manlay ko'p yillar avval borib qolgan Okeanidagi yarim yavvoyi qabilalar "туземца" bo'yicha bo'lgandir. Biroq XIX asr oxiri XX-asr boshlarida Turkiston axolisi qanday qilib insoniyat taraqqiyotini tubdan boshqarib turgan bo'lishi mumkin ehtimol oq podsho amaldorlari "русско эматнос школа" "русско тёрпекас" deganiga o'xshash iboralar ustida bosh qotirib o'tirishni istamay birvarakayiga "Русско туземнас школа" deb quyaqolgan bo'lishi xam mumkun. Biroq bu o'rinda maxalliy xalq madaniyati ataylab kamsitilgan deb aytishga xam asos yuq.

Olimlarimiz inqilobgacha o'zbek xalqining boru yo'g'i 2 foizi savodli edi deb jar soldilar va minglab madrasalarda mudarrislar mahalla va qishloqlardan yuz minglab (madrasalar) domlalaru, otinoyilar odamlarga ilim saboq bermasdan nima qilib yurgan ekan? Oxir oqibat ayon bo'ldiki O'zbekistondagi 2-foiz odam ovropacha ilmdan xabardor ekan! sal kam 30 foiz axoli voyaga yetgan erkagu ayollarni qariyib uchdan biri o'qish yozishdan, xabardor yani savodi chiqqan ekan.[6] Buxoro shahri O'rta Osiyo xalqlarning fan va madaniyat markazi bo'lgandir 1910-yilda Buxoroda 350 dan ortiq madrasa bo'lib unda O'rta Osiyoning turli burchaklaridan kelgan 50-mingdan ortiq mullachalar tahsil olgan.[2] Buhoro madrasalaridan birida shuningdik Turkistonda ta'lim olgan Fitrat xalqning nochor axvolini yengillashtirishda ilim maktab tuzishga katta ahmiyat bergan.

Umuman butun Turkiston marifatparvarlari shu niyat yo'lida birlashadilar yaniy usuldosh aniqrog'i usuljadidya maktablarini ochib bolalarni o'qitadilar darsliklar chop etdilar o'zga tillardan bolalarga mos bo'lgan asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilishdilar Fitratni Buxoro inqilobigacha bo'lgan faolyati faqat marifatparvarlik doirasida cheklanib qolishgan albatta u qizg'in ijtimoiy adabiy ish bilan shug'ullangan. Jadidchilik xarakatlarini XX asir boshlarida yetakchilari

xurriyatga yetishmoq uchun avval yosh avlodni zamonaviy ovropa ilmlari doirasida tarbiyalash g'oyasini ilgari surmoqda. Ular tomonidan tashkil etilgan usullar Jadid maktablari 1890-yilda Farg'ona vodiysida va 1893-yilda Samarqand shahrida va Buxoro shaharlarida bunday maktablarning ochilishida Ismoil Gasparalining aloxida roli bordir.

Buxorodagi "Jamiyat-i Tarbiya-i Affol" Istambulga 1911- yilda 15, 1912 yilda 30 talab jo'natilgandir Rossiya hokimiyati ostida Turkiston jadidlari 1917- yilga qadar marifat va jamiyatni qurib Maorif va madaniyat ishlarini davom ettiradilar.

Maxmudxo'ja Behbudiy XIX asr oxirlaridayoq xayotga xushyorlik bilan qarata oladigan bir ziyoli maktablarini shakllantira boshladi. XX asr boshlarida butun musulmon dunyosida paydo bo'lgan keskin jadal uyg'onish dunyoga yangicha qarash, ilm-fanni rivojlantirishi va demokratik erkinliklarni amalga oshirish jadidchilik oqimini asosiy dasturi bo'lib qoladi. Bexbudiy va jadidchilik munosabatlari xaqida gap borar ekan marifatparvarlik bilan jadidchilik o'rtasida devor qo'yib bo'lmaydi. Agar jadidchilik bir oqim marifat uchun kurashuvchilarni muayan yo'nalishini ko'rsatuvchi bir yo'l marifatiga paydo bo'lgan bo'lsa kiyinchalik Buxoroda yosh buxoroliklarni uyushmasi darajasiga o'sib chiqdi, bora bora bu kuchlar bir tashkilotga aylanib uning rahbarlari aniq dasturlari xatto markaziy qo'mitasi paydo bo'ldi ko'pchilik olimlarning suhbatida jadidchilikning aniq uyushgan tashkiloti haqida shunday tarif beriladi, bu tashkilotining oqibati natijada Buxoroda amirlikning ag'darish masalasini maqsad qilib quyganligi xaqida gapirilmaydi 10-yillarni o'rtalariga borib jadidlarni tashabbusini Fayzullo Xujaev olgani, nihoyat yosh Buxoroliklar kompaniyasi siyosatiga qo'shilib Buxoro amirligini yiqitishga Frunze qo'shinlariga yordam berganlar. Amirlik oltinlarini vagonlab Moskvaga jo'natiladi, va talanadi lekin bu inqilobga yordam berganlarning barchasini qatl etish bilan taqdirlandi asli inqilobiy yo'l bilan emas, Ma'rifat yo'li bilan oliy maqsadlarni amalga oshiruvchilar sifatida maydonga chiqdilar. Agar xalqning ma'naviy dunyosi boyitilsa, ilim marifat yuqori darajada rivojlantirilsa xayot yaxshi bo'ladi degan fikr jadidlarni isloxatchi qilib yuqadi lekin bu qarashni endilikda cheklangan deb boxolash mumkin bo'lmay qoldi shuni aytish kerakki Bexbudiy jadidlarni marifat, madaniyat ong tushunchasini yuqori ko'rsatish bilan xalqni baxtli qilish tarafdorlarini tomonida turardi. Maktab-maorif ishlariga butun vijudi bilan kirishib ketgan Bexbudiy "Samarqandni eski shaxar qismida bepul kutubxona, qiroatxona, o'z xovlisida maktab ochdi. Buyuk pedagog Abdulqodir Shohuriyning yangi uslubidagi maktabni o'z xavlisida kutarib kelib uni rag'batlantiradi O'zi tarix jo'g'rofiya va boshqa fanlardan dars beradi. Qora idoraning 1906-yil zulmi zamonida maktabga o'rus marifatchilari kelib kirgan chog'da jo'g'rofiya tarix va xisob kitoblarni otxonalarni oxiri tagida yashirib yurgan vaqtlaridagi azob va mas'uliyatlar Abdulqodir afandi bilan barobar albatta Bexbudiyning o'stiga xam tushgandir. Chor bosqinchilari davrida Bexbudiylar xatto darslarini yashirib o'qilsa o'qitsa Sho'ro davrida Qodiriy Cho'lpon asarlarini yashirib o'qilsa shu on O'zbekiston xalq yozuvchisi Xakim Nazirning "Tavba" hikoyasidagi voqiyalar yani undagi muallif qodiriy va chulpon asarlarini yashirgani uchun boshiga tushgan tashvishlarni bayon etgan edi. Bexbudiy maktab maorifi ishlariga shu qadar jiddiy kirishadiki yoshlarni kuproq til bilishga o'z onatildan boshqa rus tilini o'rganishgaxam shu bilan bilim darajasini kengaytirishga davit etdi g'ayri dinlarning tilini bilish bilan kofir bulmaydi degan aqedani targ'ib qiladi O'zi rus tilini o'rganadi bolalarini ham o'rgatadi bir qator darsliklar yozadi "Bolalar uchun kitob" "Amalyot Islomiya" "Jo'g'rofiya o'roniy va rusiy" "Mintaqaviy jo'g'rofiya

umumiy turkey" kabi bir qator darsliklar uning qalamiga mansubdir "Samarqand" "Xurshid" "Shuxrat" "Turon" "Hurriyat" "Sadoyi turkiston" "Oyna" singari bir qator oynomalar va ruznomalarda Bexbudiy maktab maorif va ilm fanni rivojlantirishda targ'ib etuvchi iiki yuzdan ziyod maqolalar elon qilingan uning qatil etilishi oldidan do'stlari shogirtlari o'ziga yaqin ham fikrlariga qilgan vasiyatidan bir dalil keltish joizdir „o'rtoqlarim Siddiqiy, Ayniy, Fitrat, Qurdi, Akobir, Maxtum va o'g'lonlarim Vaddut Maxdum, Abdulqodir Shakuriy sizlarga vasiyat qilaman! Maorif yo'ilida ishlayotirg'on nualimalarnig boshini silangizlar maorifga yordam etingiz! O'rtadan nafaqani kutaringiz! Turkiston bolalarini ilojisiz quymangizlar xar ish qilsangiz jamyat ila qilingiz![8] Bizdik maorif qurbonlarni yo'qlangiz.

Buxora tuprog'iga tezlik ila yo'l boshlangizlar ozodlikni tezlik ila yuzaga chiqaringizla bizni qonimizni zolim beklardan talab qilingizklar bizlar ul chog'da qabrimizda tinch yotamiz!.....

Yana Fitrat to'g'risida qaytib uning "kelajak" deb nomlangan keng yoritilgan puplisistik maqolasida kutib turmasdan kelajak to'g'risida o'ylash kerakligini aytadi u jumladan shunday misol keltiradi. O'quvchi (madrasada) nom va kambag'allikda qaramay o'z xujrasida kelajakni kutib vaqtini bekorga otkazadi yitti yil savodga o'qitish bu bebexo lazzatdir dukodorga bunday o'zoq vaqt foydasiz shuning uchun u o'z o'g'lini oldida saqlaydi .

Misrda oliy o'quv yurtida o'qishi o'n ikki yilni tashkil etadi. Buxoroda esa shu davr ichidfa o'rtta malumot olish mumkun xalos shuning uchun deb yozdi Fitrat Buxora madsalarni obruyi tushib kupchlik xorijda o'qishga intiladi odamlarni dexqonchilikga o'qitish muximligi va yer maktablari tashkil etishni qo'llaydi tarix chilar uchun asosan 1916-yil tarqatilgan varaqaalar mazmunining Fitrat tomonidan yoritilishi katta axamyatga ega. Bu vaqalarda jumladan shunday deyilgan edi. Jadidlar sizlarning bolalarinigzni tuzmoqdalar. Xechkim o'z bosini ularni maktabiga bermasligi kerak, Kimki o'qisa uni biz o'liramiz Jadidlar majlislar o'tkazmasinlar agar yig'ilsalar ularni boshini kesib tashlashingiz. Jadidlar diniy marosim larga rioya qilmaydilar. Ular dinsiz kofirlardir. "Ularni o'ldirish muqaddas ishdir" deb yozilgan edi. Fitrat tomonidan "O'qi" deb nomlangan maktab darsligi yozilgan (A.Fitrat 1886-1937) [9]

Chor Rassiya maktab va maorif juda qoloq edi. Rassiya milonlab kishilar inson uchun zarur bo'lgan oddiy boshlang'ich ma'lumotga va yozish va chizishni o'rganisga muxtoj edilar. Maorifga ajratiladigan xarajat bo'yicha Rossiya dunyodagi taraqqiyparvar mamlakatlar orasida oxirgi o'rinlardan birida turar edi. Rassiya asosi rus bo'lmagan xalqlarning xalq maorifi juda og'ir ahvolda edi. Rassiya yashagan 71 xalqdan 48 tasi o'z yozuviga ega emas edi. Oddiy qilib aytganda bu xalqlar o'z ona tillarida maktab ochish xuquqidan maxrum edilar. Chorizim uchun xalqlarni savodsizlikda ushlab turish foydali edi. O'zbekiston jumladan Samarqand viloyati chor Rossiyasi eng qoloq o'lkalardan biri xisoblanadi.

Mustamlakachi ekisputatorlar O'zbekiston mexnatkashlarini savodsiz qoloq xalda tutub turishida mafatdor edilar. Sovet hokimyatigacha O'zbekistonda Samarqand viloyatida uch xil sestemadash maktab mavjud edi : 1) konfessional (Eski usuldosh maktab va madrasalar) 2) Yangi usuldagi (Jadid) va 3). Rus tuzumi maktablari mavjud edi.[10]

Maktablar ommaviy boshlang'ich maktab bir necha asirlar davomida ish kursatdi 1899-yildagi faktlarga binoan Turkistonning O'rta-Sirdaryo, Samarqand va Farg'ona viloyatlarida 4632-ta maktab bo'lib ulardan 44773- o'quvchi bo'lgan maktablar shaxarlarda qishloqlarda bor edi.

Ko'pincha xolatlarda maktablar masjidlar qaoshida bo'lardi. Boylar uylarida maktablar ochishardi. Maktablarda

o'quvchilar soni 10-20 kishini tashkil qilar edi. Eski maktab gigena qoidalariga javob bermas tor shiftsiz, past qorong'u va iflos binolarda joylashgan bo'lib unda tana jazosi, asosiy usul xisobida ishlatilardi. Asosan ota o'g'lini maktabga keltirib domlaga gushti sizdan suyagi bizdan deb topshirardi. Domla o'z o'quvchisiga jazo bera turib, kaltak ayiqni savodsiz qiladi

der edi. Jazo choralaridan biri bu pichoq bilan kerakli joylarni chuqurchoq kesib (asosan oyoq tagini orqa yelkani) tuzlashdan iborat bo'lgan. Maktab xarajatlarini qoplash va o'quvchilarning xaqqini to'lash ota-onalar bo'ynida edi. Maktablarda dinning roli katta edi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2024-yil 19-iyulda qabul qilingan "Siyosiy qatag'on qurboni bo'lgan yurtdoshlarimiz hayoti va faoliyatini o'rganish, targ'ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni kengaytirish" to'g'risidagi qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2020-yil 30-sentabr kuni "O'qituvchi va murabbiylar kuni" munosabati bilan ziyolilarga qilgan murojaatnomasi.
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sagasi: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent: O'zbekiston, 1997. – B. 140.
4. Karimov I.A. Asarlar to'plami. 3-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 1996. – B. 42.
5. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. // Ma'rifat, 1998-yil, 19-avgust.
6. Boymirza Xayitov. Turkistonda jadidchilik va uning tugatilishi. // Gazetasi, 1-son (50), 1991-yil 21–26-noyabr.
7. Oxunjon Safarov. Toshpulat, Ahmad, G'ayrat, Murodov, Fidoiy. // Sovet O'zbekistoni gazetasi, 1991-yil 6-iyul.
8. Ahmad Aliev. "Sening nurli ko'zlaringga baxt o'qidim". // O'zbekiston ovozi gazetasi, 1992-yil 9-yanvar, №7.
9. O'zbekiston ijtimoiy fanlar jurnali, 1990-yil, №10.
10. T.N. Qori-Niyoziy. Sovet O'zbekiston madaniyati tarixidan ocherklari. SSSR FA Nashriyoti, Moskva, 1955. – B. 56.



UDK: 791.43/.45+008+(23.046)

Sanobar XODJAYEVA,
Buxoro davlat texnika universiteti katta o'qituvchisi
E-mail: sanobarkhodjaye75@gmail.com

BDU dotsenti, PhD B.Boltayev taqrizi asosida

BUXORODA KINEMATOGRAFIYA SOHASIDAGI O'ZGARISHLAR (1991-2016 YILLAR MISOLIDA)

Annotatsiya

Maqolada 1991-2016 yillarda Buxoro viloyatidagi kinematografiya sohasida amalga oshirilgan o'zgarishlar yoritildi. Xususan, "Buxorokinovideo" hissadorlik birlashmasining faoliyati, o'tkazilgan kino haftaliklari, kinoseanslar, xorijiy davlatlarning kino kunlari hamda 1998-2001 yillarda Buxoro shahrida bo'lib o'tgan I, II, III, IV o'zbek milliy filmlari festivali ilmiy adabiyotlar va "Buxoronoma" gazetasidan keltirilgan ma'lumotlar asosida tahliliy o'rganildi.

Kalit so'zlari: Buxoro kinoteatrlari, kinematografiya, kinomexanik, kinoqurilma, film, kinoseans, kinofestival, kinostudiya.

ИЗМЕНЕНИЯ В ОБЛАСТИ КИНЕМАТОГРАФИИ В БУХАРЕ (В 1991-2016 годах)

Аннотация

В статье рассматриваются изменения, произошедшие в кинематографии Бухарской области с 1991 по 2016 год. В частности, на основе научной литературы и информации газеты «Бухоронума» проанализирована деятельность акционерного общества «Бухорokinovideo», проведенных в Бухаре в 1998-2001 годах кинонедель, кинопоказов, дней кино зарубежных стран, I, II, III, IV узбекских национальных кинофестивалей.

Ключевые слова: Кинотеатры Бухары, кинематография, киномеханик, кинооборудование, фильм, кинопоказ, кинофестиваль, киностудия.

CHANGES IN THE FILM SECTOR IN BUKHARA (IN THE EXAMPLE OF 1991-2016)

Annotation

The article covers the changes that took place in the cinematography sector in the Bukhara region between 1991 and 2016. In particular, the activities of the joint-stock company "Bukhorokinovideo", the film weeks, film screenings, film days of foreign countries, and the I, II, III, IV Uzbek National Film Festivals held in Bukhara in 1998-2001 were analyzed based on scientific literature and information from the newspaper "Bukhoronoma".

Key words: Bukhara cinemas, cinematography, cinema mechanic, cinema equipment, film, film screening, film festival, film studio.

Kirish. Buxoro vohasining madaniy hayotida kinematografiya ham o'ziga xos o'ringa ega. Tadqiq etilayotgan 1991-2016 yillarda sohadagi qator o'zgarishlar asosan hududiy kinolashtirish va kinoprokat boshqarmasi tomonidan amalga oshirilib, uning tarkibiga shahar va tuman direksiyalari, kinoteatrlar va ta'mirlash-ishlab chiqarish korxonasi kirgan. Kino direksiyalari kinoteatrlar repertuarlarini tuzish, filmlarni namoyish qilish, texnik jihatlarini nazorat qilib borish, aholini yangi filmlardan xabardor qilish kabi vazifalarni bajargan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada ma'lumotlar tizimli ravishda xronologik tarzda to'plab chiqildi. Tadqiqot metodologiyasining asosini izchillik, tizimlilik, tanqidiy-tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Buxoro shaharida Bahor, Buxoro, Komsomol, Ahmad Donish, O'zbekiston, Drujba (Do'stlik), To'qimachi, Guliston, Sputnik (Yo'ldosh), Pobeda (G'alaba) va Avtomobilchi singari qishki va yozgi kinoteatrlar bo'lib, shaharliklarga shu kinoteatrlar orqali xizmat ko'rsatilgan. Kinoseanslar haqida afishalardan tashqari gazetalarda ham e'lonlar berib borilgan. "Buxoro haqiqati" gazetasining 1991 yil 16 martdagi sonida "Shahrimiz kinoteatrlarida" sarlavhasi ostida 18-24 mart kunlari Buxoro kinoteatrida "Imperatorning maxfiy farmoni (Xitoy filmi)", Komsomol kinoteatrida "Alanga (Hindiston)", 18-21 mart kunlari Bahor kinoteatrida "Bilqilloq yerdagi raqs (Vengriya)", 22-24 martda "027 sonli buyruq (KXDR)", 18-24 mart kunlari Ahmad Donish nomli kinoteatrdan "O'z kuchim bilan (Hindiston)" singari filmlarning ko'rsatilishi haqida e'lon berilgan [1].

Taniqli kinoarboblar bilan uchrashuvlar, yubiley tadbirlari tashkil qilingan. 1992 yilning fevral oyida asli buxorolik bo'lgan Tojikistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, kinorejissor Baqo Sodiqovning 50 yillik yubiley munosabati bilan Abu Ali ibn Sino nomli madaniyat saroyida ijodiy kecha va u yaratgan "Buxoroyi sharif" filmining premyerasi o'tkazilgan.

1992 yilda Buxoro viloyatining aholisiga 324 kinoqurilma orqali madaniy xizmat ko'rsatilgan. 1993 yil yanvar oyi boshlarida "Bahor" kinoteatrida 1992 yil yakunlari bo'yicha hisobot tadbiri o'tkazilib, viloyatda kino san'ati targ'ibotiga munosib hissa qo'shgan marhum kinomexaniklar xotirasi yodga olinadi, mehnat faxriylari bilan ish tajribalari haqida suhbat uyushtiriladi. O'ndan ortiq kinomexaniklarga faxriy yorliq va sovg'alar beriladi [2].

Bayram va tantanali kunlar munosabati bilan kino haftaliklari, bepul kinoseanslar tashkillashtirilgan. 1993 yil vatanimiz mustaqilligining ikki yilligi munosabati bilan o'zbekistonlik kinematograflarning eng yaxshi filmlarini namoyish qilish haftaligi, birinchi sentabrda butun viloyat kinoteatrlari bo'ylab bepul kinoseanslar bo'lib o'tgan [3]. Bunday tadbirlar maktab o'quvchilari uchun ham dam olish, bayram, yozgi va qishki ta'til kunlari tashkil qilingan. 1994 yil qishki ta'til kunlari Buxoro shahridagi "Buxoro", "Yoshlik" kinoteatrlarida "Salom, qishjon" mavzusida kino kunlari bo'lib, maktab o'quvchilariga "Bu nima bu?", "Tohir va Zuhra", "Mening nabiram militsiyada ishlaydi", "Yer ostidagi shahzodaning kelini" kabi 20 dan ortiq filmlar taqdim etilgan [4]. 1998 yilning 25 martidan 25 aprelegacha Buxoro

shahridagi "Bahor" kinoteatrda bolalar uchun bepul kinoseanslar namoyish etilgan. "Mustaqillik va yoshlar" shiori ostida o'tadigan tadbirlar davomida umumta'lim maktablarining o'quvchilari "O'tgan kunlar", "Nodirabegim", "Buyuk Turon", "So'g'diyona", "Buyuk Amir Temur" kabi filmlarini tomosha qilishgan[5].

Kino sohasida xorijiy davlatlar bilan hamkorlikda madaniy tadbirlar o'tkazilgan. 1996 yil may oyida Fransiyaning O'zbekistondagi elchixonasi tashabbusi bilan fransuz filmlari festivali bo'lib o'tadi. Buxoroliklar to'rt kun davom etgan festival chog'ida Burvil, Lui de Fyunes, Per Rishar, Kristian Klave singari fransuz kino yulduzlari suratga tushgan badiiy filmlarni tomosha qilishgan. Fransiyaning iqtisodiy va madaniy hayotiga doir bir qator hujjatli filmlar ham namoyish qilingan[6].

1996 yil 9 oktabr kuni "Buxoro" kinoteatrda O'zbekistonda Germaniya madaniyati kunlari doirasida nemis kinematografchilari -Yorg Vitte, Fillips Debora, Adel Maklenberglar bilan uchrashuv o'tkazilgan. Fillips Deboraning ko'pchilik kartinalari ovozsiz bo'lib, ular musiqa va rasm yordamida tomoshabinni mushohada yuritishga, go'zallik va haqiqatni teran anglashga chorlaydi. Uning qisqa metrajli "Non", "Purimi" filmlari kinomuxislarga katta taaassurot qoldirgan[7].

Buxoroda, ayniqsa hududning madaniy meros ob'ektlarida "O'zbekfilm" va xorijiy davlatlarning kinostudiyalari tomonidan filmlar yoki filmlarning bir qismini sur'atga olish jarayoni amalga oshirilgan. 1998 yili A.Qodiriy tavalludining 100 yilligi munosabati bilan Melis Abzalov rejissorligida "O'tkan kunlar" romani asosida yangi badiiy film suratga olinadi. Asardagi asosiy voqealar Qo'qon, Marg'ilon va Toshkentda ro'y bergan bo'lsa-da, o'tmishning real manzarasini aks ettirish uchun filmning ko'pgina qismlarini qo'hna Buxoroda, aniqrog'i Fayzulla Xo'jayevning qadimiy hovlisida, takrorlanmas naqshlar bilan bezatilgan xonadonda tasvirga tushiriladi. Viloyat va shahar hokimligi, boshqa mutasaddi tashkilotlar filmni sur'atga olish ishlariga imkoniyat yaratib beradi. Shuning uchun ijodiy guruh "O'tkan kunlar"ning Toshkentdagi primerasidan so'ng kartinani taqdimotini viloyatlar ichida birinchi bo'lib Buxoroda o'tkazadi[8].

1999 yili Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar"[9] romani asosida suratga olingan film-epopeyasining taqdimoti bo'lib o'tadi[10]. Bu film voqelikning keng qamrovi, taqdirlar tasviri tugalligi, g'oyaviy mushohadalarga hamda badiiy umumlashmalarga boyligi, bir-birini mantiqan ham, mazmunan ham davom ettiruvchi uch mustaqil qismdan iboratligi bilan so'nggi yillar o'zbek kinosida jiddiy hodisadir[11].

1996 yil "O'zbekkino" davlat aksionerlik kompaniyasi tashkil qilindi[12]. Bu o'zbek kino san'atida yangi izlanishlar, zamon bilan hamnafas bo'lishga undadi, tomoshabinlarni jalb qila bilish yo'llarini topishni, o'z-o'zini pul va yangi texnik jihozlar bilan ta'minlashni nazarda tutdi[13]. Buxoroda ham 1996 yildan boshlab viloyat kinolashtirish va kinoni ijaraga berish boshqarmasi "Buxorokinovideo" hissadorlik birlashmasiga, shahar va tuman kinodireksiyalari kinovideo hissadorlik jamiyatlariga aylantirildi. Birlashma aholiga pullik xizmat ko'rsatish turlarini ko'paytirib, daromad olish yo'llarini topishga harakat qildi. Birlashmaga qarashli ta'mirlash-ishlab chiqarish korxonasi huzurida 40 kishidan iborat 4 ta qurilish brigadasi tuzildi. "Buxoro" kinoteatrda qariyb 500 ming so'mlik va "To'qimachilik", "Do'stlik" nomli yozgi kinoteatrlari ham qayta ta'mirlash ishlari bajarildi. Xalq is'temoli mollari tayyorlash hamda turli inshootlarda ta'mirlash ishlarini olib borish hisobidan 1997 yilning 6 oyi mobaynida 11,7 million so'mlik daromad olindi. Shu hisobdan Toshkentda o'tkazilgan XII xalqaro kinofestivalga 100 ming so'mlik sovg'alar ajratildi, viloyat

bolalar kasalxonasi va tibbiyot insitutida katta hajmdagi ta'mirlash ishlari bepul bajarildi. 1997 yilgi ma'lumotlarga ko'ra, Buxoro viloyatida 15 ta qishki, 6 ta yozgi kinoteatr, 53 ta ko'chma va 81 ta doimiy kinoqurilma hamda 11 ta videosalon bo'lgan[14]. Kinoteatrlarning barchasi ta'mirga muhtoj edi. 1999 yilda shahar va tumanlardagi 16 ta kinotetrlarda 8 million so'mlik ta'mirlash ishlari olib borilgan[15].

1998 yildan e'tiboran "Ma'naviyatimiz qo'limizda yengilmas kuchga aylanin" shiori ostida o'zbek milliy filmlari festivalining joriy etilishi vohaning madaniy hayotida muhim voqea bo'ldi. 1998-2001 yillarda Buxoro shahrida I,II,III,IV o'zbek milliy filmlari festivali o'tkazilib, so'nggi yillarda yaratilgan hujjatli, badiiy, animatsiyali filmlar keng jamoatchilik e'tiboriga havola etildi[16]. Kinematografiya sohasidagi ilg'or zamonaviy qarashlar namoyish etildi, yilning eng yaxshi filmlarini tanlab olinib, suratga olish guruhi a'zolarining ijodiy salohiyati, iqtidori baholandi. Viloyat hokimligi festivallarni o'tkazishda "O'zbekkino" davlat-aksionerlik kompaniyasiga amaliy yordam ko'rsatdi.

1998 yil avgust oyida o'tkazilgan milliy filmlarning birinchi festivalida taniqli rejissor, operator, aktyor va boshqa san'atkorlar Buxoroga keladi va 7 avgustda Peshku, Qorako'l, Olot, Jondor, Romitan tumanlarida, 8 avgust kuni Buxoro, Vobkent, G'jduvon tumanlarida, Buxoro va Kogon shaharlarida aholi bilan uchrashuvlar o'tkaziladi. Kino muxlislari uchun "Yaratganga shukur", "O'tkan kunlar", "Buyuk Amir Temur", "Marg'iyona", "Piyoda" kabi yangi filmlar ko'rsatiladi[17]. Viloyat hokimining qarori bilan doimiy faoliyat ko'rsatuvchi "Milliy filmlar festivalini o'tkazish direksiyasi" tashkil etiladi. Tashkiliy qo'mita o'zbek milliy filmlari ikkinchi festivalini o'tkazishga har tomonlama tayyorgarlik ko'rishni boshlaydi[18].

1999 yil 5 avgustda ikkinchi kinofestival boshlanib, unda jami 70 dan ziyod kino arboblari 6,7,8 avgust kunlari olti guruhga bo'linib, viloyatning barcha shahar va tumanlarida tomoshabinlar bilan ijodiy uchrashuv o'tkazgan va yangi filmlar namoyish qilingan. Festivalda 1998 yili o'zbek kinematografchilari tomonidan sur'atga olingan eng yaxshi 6 ta badiiy, 11 ta hujjatli, 5 ta multifikasion va ko'plab qisqa metrajli filmlar ko'rsatildi. "Sevgi", "Voiz", "Kichkina tabib", "Yolg'iz yodgorim", "Tilsimoy-g'aroyib qizaloq" kabilarini misol keltirish mumkin. 9 avgust kuni Buxoro shahridagi Abu Ali ibn Sino nomli madaniyat saroyida festivalning yopilish marosimi o'tkazilib, 20 ta nominasiya bo'yicha g'oliblar taqdirlangan[19].

2000 yil 2-7 avgust kunlari o'tkazilgan III respublika festivalida 130 dan ortiq soha mutaxassislari qatnashdi va 27 nominasiya bo'yicha g'oliblar aniqlandi. "Alpomish", "Chimildiq", "Ayollar saltanati va mamlakati", "Fellini", "Qismat" singari filmlar ko'rsatildi[20]. O'zbekiston hujjatli va ilmiy ommabop filmlari studiyasi tomonidan "Istiqlol fidoiylari" turkumida A.Fitrat, Cho'lpon, S.Axroriy haqidagi filmlari namoyish qilindi. Viloyat markazining sobiq "Buxoro" o'yingohida kinofestivalning yopilish marosimi bo'lib, 30 dan ortiq nominasiya bo'yicha g'oliblar taqdirlandi. Festival kunlari shahar va tumanlarda o'tkazilgan 50 dan ziyod ijodiy uchrashuvlarda 200 mingdan ortiq kishi ishtirok etib, yangi kinofilmlardan bahramand bo'ldi. Qorovulbozor tumani kinoteatrda taniqli rejissor Melis Abzalov boshchiligidagi "Chimildiq" filmi ijodkorlari bilan uchrashuv o'tkazildi[21].

2001 yil 17-21 avgust kunlari respublika IV milliy filmlar festivali bo'lib o'tdi. Buxorodagi amfiteatrda 100 dan ziyod taniqli kino, teatr aktyorlari, rejissor, operator va rassomlar besh guruhga bo'linib viloyatning barcha shahar hamda tumanlarida uchrashuvlar o'tkazdi. Kino san'atkorlari so'nggi festivaldan keyin o'tgan bir yil ichida sur'atga olingan "O'yijon", "Chayongul", "Parimomo", "Meshpolvon" va "Baxt

qadri” nomli badiiy filmlarini, “Istiqlol fidoiylari”, “Tabarruk zamin”, “Fiqh olami sultoni” singari 30 ga yaqin hujjatli, ilmiy-ommabop va turli multiplikasion kartinalarni tomoshabinlar e’tiboriga havola etdi va 20 dan ortiq nominatsiya bo’yicha g’oliblar aniqlandi.

Hakamlar hayati festivalni har ikki yilda bir marta o’tkazish to’g’risida qaror qabul qiladi. Biroq, o’rganishlar natijasida 2002-2007 yillar davomida bu haqidagi ma’lumotlarga duch kelmadi. 2008 yil Toshkentda Markaziy Osiyo mamlakatlari yoshlarining “Ijodiy parvoz” uchinchi kinofestivali tashkilotchilari safida Buxoro viloyat hokimligi ham bor edi. Poytaxtda boshlangan bu san’at bayramining ikkinchi kuni Sharif shaharda davom etadi. 17 may kuni “Buxoro” kinoteatrda Markaziy Osiyoning yosh kinematografchilari bilan uchrashuv o’tkaziladi. Ma’naviyat targ’ibot markazi viloyat bo’limi tanlov dasturiga kiritilgan filmlarni ko’rikdan o’tkazib, viloyat hokimligi tomonidan “Milliy mavzuda yaratilgan eng yaxshi film uchun” maxsus mukofot ta’sis etadi.

2011 yilning 30 aprel va 1 may kunlari Buxoro shahrida Mustaqilligimizning 20 yilligi munosabati bilan “O’zbek milliy kino san’ati kunlari” o’tkazildi. “Buxoro” kinoteatrda o’zbek kinoijodkorlari tomonidan yaratilgan “O’rgimchak to’ri”, “Yor-yor qaydasiz?”, “Uqubat” kabi badiiy filmlar namoyish etildi[22].

O’rganilayotgan davrda Buxoroda kinematografiya sohasida bir qancha muammolar ham mavjud edi. 90-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab shahar va tuman kinoteatrlariga tomoshabinlar deyarli kirmay qo’ydi va katta zallar bo’shab qoldi. Buning sababi, birinchidan, xonadonlarga televizor va videomagnitafonlarning keng tarqalishi bo’lsa, ikkinchi tomondan sohadagi moliyaviy qiyinchiliklar tufayli

yangi kartinalarni sotib olinmayotganligi, kinoteatlarda tomoshabinlarga qulay sharoitlarning yo’qligida edi. 2005 yilning birinchi yarmida Buxoro shahrida atigi 408 ta kinoseans ko’rsatilib, unga 14700 nafar tomoshabin jalb qilingan. Viloyatning qishloq joylarida esa 213 ta kinoseans o’tkazilgan.

Kinematografiya goh u tashkilot, goh bu tashkilot-vazirlik tasarrufiga kiritildi. 1992-1996-yillarda O’zbekiston Respublikasi Davlat kinokompaniyasi („Uzgoskinokompaniya“) sifatida faoliyat yuritdi va O’zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tasarrufidan chiqarildi. 1996-2004-yillarda „O’zbekkino“ davlat hissadorlik kompaniyasi, 2004-2021-yillarda „O’zbekkino“ Milliy agentligi, 2021 yildan esa Kinematografiya agentligi etib qayta nomlandi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijasida xulosa qilib shuni aytish mumkinki, 1991-2016 yillarda Buxoroda kinematografiyaning hududiy bo’limi va viloyat hokimligi tomonidan qator ishlar amalga oshirildi. Yangi premyeralar namoyish etish, kino namoyondalari bilan uchrashuvlar va milliy filmlar festivallarini o’tkazish orqali kino san’atidagi yangilik va o’zgarishlar xalqimizga yetkazildi. 1996 yilda aksiyadorlar jamiyati sifatida qayta tashkil etilgach kinoteatr, kinoqurilma va boshqa kinomulkalar xususiy lashtirildi. Ekranga yangi badiiy filmlar olib kelinsa-da, tomoshabinlar soni kamayaverdi.

Yaxlit badiiylik ta’minlangan, milliy koloritga ega elementlar yaxshi rakursdan ochib berilgan, milliy va diniy qadriyatlar birdek hurmat qilingan, hissiyotlarga ta’sir qiladigan, rejissor, rassom va operatorlar tomonidan mahorat bilan ishlagan filmlar yaratilsa kinematografiya yanaga rivojlanadi.

ADABIYOTLAR

1. Buxoro haqiqati. 1991 yil 16 mart, №53(18.084).
2. Buxoro san’ati gazetasi. 1993 yil yanvar. № 2(8). -b2.
3. Buxoro san’ati gazetasi. 1993 yil noyabr
4. Buxoro haqiqati. 1994 yil 1 yanvar. №1(18.588).
5. Buxoro haqiqati. 1998 yil 28 mart. № 26(19.029).
6. Buxoroda fransuz filmlari festivali. Buxoro haqiqati. 1996 yil 15 may. №38(19.834).
7. Olmon kinematografchilari bilan uchrashuv. Buxoro haqiqati. 1996 yil 12 oktyabr. №82(18.877).
8. Xalilov A.. “O’tkan kunlar” bilan yangi uchrashuv. Buxoro haqiqati. 1998 yil 20 may. №41(19.044).-b8.
9. Ishoqov A.. Kinematografiya tarixi.T.: „Zilol buloq“. 2019.-b151.
10. Xalilov A.. “Otamdan qolgan dalalar”. Buxoro haqiqati. 1999 yil 3 fevral. -b8.
11. Ishoqov A.. Kinematografiya tarixi.T.: „Zilol buloq“. 2019. -b484., Sh.Rizaev. «Ma’naviyat manzillari», G’afur G’ulom, T.:2008 y.,309-323- betlar.
12. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O’zbekkino» davlat aksionerlik kompaniyasini tashkil etish va uning faoliyati masalalari to’g’risida”gi 12.07.1996 yildagi 247-son qarori.
13. Qambarov A.va boshqalar. O’zbek san’ati tarixi. Farg’ona: “Farg’ona”, 2021.-b165.
14. Buxoro haqiqati. 1997 yil 23 iyul. №59(18.958).-b8
15. Xalilov A.. Assalom, kinofestival! Buxoro haqiqati. 1999 yil 4 avgust. № 62(19.169).-b8.
16. O’zbekiston san’ati. (1991-2001 yillar) «Sharq», 2001.
17. Xalilov A.. Buxoroda o’zbek kinosi bayrami. Buxoro haqiqati. 1998 yil 8 avgust. № 64(19.067)-b1,-b5.
18. Xalilov A.. Assalom, kinofestival. Buxoro haqiqati. 1999 yil 4 avgust. № 62(19.169).-b8.
19. Xalilov A.. Buxoro osmonida yulduzlar. Buxoro haqiqati. 1999 yil 7 avgust. № 63(19.170).-b8.
20. Xalilov A.. Istiqlol bayramiga-kinochilar arg’umoni. Buxoro yangiliklari(Buxoronoma gazetasining shanba ilovasi). 2000 yil 29 iyul. №31 (320).-b2.
21. Buxoro yangiliklari(Buxoronoma gazetasining shanba ilovasi). 2001 yil 8 sentyabr. №37(91) -b7.
22. Ibrohimov I.. O’zbek milliy kino san’ati kunlari. Buxoronoma . 2011 yil 4 may. № 36 (21. 359). -b4.